

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM  
VAZIRLIGI**

**Muqimiy nomidagi Qo`qon davlat pedagogika instituti**

**IJTIMOIY FANLAR KAFEDRASI**

**XODJAYEV OLIMXON SHAVKATOVICH**

**“Sotsiologiya” fanidan qo‘llanma**

**TOSHKENT-2021**

Sotsiologiya fani va qo'llanma haqida yoziladi

## **1-MAVZU. SOTSIOLOGIYANING FAN SIFATIDA VUJUDGA KELISHI**

**Reja:**

- 1.Sotsiologiya fanining vujudga kelishi, predmeti va ob'ekti.**
- 2.Antik davr va Sharq mutafakkirlarining sotsiologik qarashlari.**
- 3.Sotsiologiyaning fanlar tizimida tutgan o'ziga xos o'rni.**

**Tayanch iboralar:** Sotsiologiya, Pozitivizm, tushunuvchan sotsiologiya, naturalism, sotsiologizm

Sotsiologiya fanining vujudga kelishida ijtimoiy-iqtisodiy, g'oyaviy-nazariy shart-sharoitlar. Kishilar jamiyatda doimo ro'y beradigan xilma-xil ijtimoiy hodisalarning mohiyati va sababini tushunishga asrlar davomida intilib kelganlar. Ko'pgina mutafakkir olimlar ijtimoiy munosabatlarning mohiyatini aniqlabgina qolmay, jamiyat taraqqiyotini boshqaruvchi kuch nimada, murakkab ijtimoiy voqealar va to'xtovsiz ro'y berayotgan o'zgarishlar tasodifiymi yoki ular muayyan ob'ektiv qonunlarga asoslanganmi, degan savollarga javob topishga intilganlar. Xullas, kishilik jamiyatni nima, u qanday qonunlar asosida rivojlanadi, kishilar ijtimoiy taraqqiyot qonunlarini o'rganib, ularni o'z foydalariga ishlatalishlari mumkinmi va shunga o'xshash ko'pgina masalalar uzoq davrlardan beri inson tafakkurini o'ziga jalb qilib kelgan. Bunday savollarga to'g'ri va aniq javob beradigan fanning paydo bo'lishi tarixiy zaruriyat edi. Ilmning sistemalashtirilgan bu sohasi XIX asrning o'rtalariga kelib yaratildi.

XVIII asr oxiri-XIX asr boshlarida Yevropadagi sotsiologik dunyoqarash xarakteri va mazmuni mazkur jamiyatdagi ijtimoiy o'zgarishlar bilan izohlanadi. Jamiyatning iqtisodiy va siyosiy hayotida yangi shaklli tuzilmalar paydo bo'ldi. Eski bilimlar o'rmini yangi nazariyalar egallab, falsafiy bilimlarda yangicha yondoshuvlar kuchaya boshladi. Xarakterli tomoni shundaki, sotsiologiya yangi pozitiv falsafa tamoyillarini asoslab beruvchi fan sifatida maydonga chiqdi. Jamiyat tuzilishi to'g'risidagi mavjud falsafiy-sxolastik g'oyalar tanqidga

uchrab, uning o'rniga tabiiy fanlar metodlariga mos keluvchi ijtimoiy tadqiqotlar taklif etila boshlandi. Sotsiologiya mustaqil fan sifatida XIX asrning birinchi yarmida vujudga keldi. Bu jarayon ijtimoiy hayotning murakkablashuvi va ilmiy bilimlarning tabaqlanishi tufayli yuzaga kelib, sotsiologiyaning falsafadan ajralib mustaqil fan sifatida faoliyat ko'rsatishiga imkon berdi. Natijada sotsiologiya ijtimoiy munosabatlarni nazariy tahlil qilishni ijtimoiy faktlarni empirik tadqiq qilish bilan qo'shib olib boruvchi mustaqil fanga aylandi.

**Sotsiologiya** lotincha “*societas*” – jamiyat va yunoncha “*logos*” – tushuncha, ta’limot ma’nosini anglatib, jamiyatning tarkibiga kiruvchi alohida institutlar, tizimlar, guruhlar va ularning o’zaro aloqadorligini o’rganuvchi fandir. Demak, sotsiologiya umumiy ma’noda jamiyat to’g’risidagi fandir.

Har qanday fan singari sotsiologiya fani ham o’zining izlanish ob’ekti va o’rganish predmetiga egadir. **Ob’ekt** bu – tadqiqotlar qaratilgan narsa (jamiyat). **Predmet** bu – o’rganilishi kerak bo’lgan muammo. (insonlar o’rtasidagi aloqa va munosabatlar).

O.Kont - pozitiv sotsiologiyaning asoschisi, uning sotsiologiyani mustaqil fan sifatida yaratishdagi dastlabki rejali. Sotsiologiya fan sifatida XIX asrning 30-yillarida shakllanib, bu tushuncha fanga frantsuz faylasufi Ogyust Kont tomonidan kiritilgan. Sotsiologiya ijtimoiy falsafaning masalalarini yanada konkretlashtirish, empirik sotsial tadqiqotning rivojlanishi oqibatida shakllandi. Frantsuz faylasufi O. Kont (1798 - 1857) tomonidan 1839 yilda “Pozitiv falsafa kursi” asarining uchinchi tomi chop etilganidan boshlab “sotsiologiya” faniga asos solindi. U o’z asarida birinchi bor jamiyat hayotini o’rganish vazifasini bajaradigan “sotsiologiya” tushunchasini qo’llagan. Shuning uchun O. Kontni sotsiologiyaning asoschisi – “otasi” deb ham atadilar. O. Kont o’z ta’limotini pozitiv, ya’ni ilmiy asoslangan falsafa deb baholaydi.

Dastlab pozitiv bilim tabiiy fanlar sohasida qo’llanilgan bo’lib, keyinchalik sotsiologiyada qo’llanildi. “Pozitiv usul” bu ilmiy kuzatishlar, eksperiment va taqqoslash usullari yordamida to’plangan

empirik ma'lumotlarni nazariy tahlil qilishdan iboratdir. O.Kont yangi fanni yaratar ekan, taxminan quyidagicha fikr yuritgan: “jamiyatni uning turli-tuman namoyon bo'lish jihatlarida anglash uchun falsafaning o'zi etarli emas. Jamiyatni boshqa masalalar bilan bir qatorda emas, balki maxsus tarzda faqat unga e'tibor bergen holda o'rghanadigan maxsus fan kerak. Jamiyat to'g'risidagi yangi fan mustaqil bilim sifatida shakllanishi uchun u bilishning falsafiy metodini rad etishi va o'zining metodini o'ylab topishi kerak. Ammo hozircha uning o'z metodlari yo'q ekan, sotsiologiya tabiatshunoslikdan kuzatish, eksperiment va solishtirma tahlil kabi usullarni o'zlashtirishi lozim”. O.Kont sotsiologiya fanini yosh, lekin ahamiyatiga ko'ra eng murakkab va eng muhim fan hisoblagan. U yangi fanni insoniyatning baxt- saodatga erishuviga to'g'ridan- to'g'ri ta'sir ko'rsatadi deb ta'kidlagan.

Yana bir fransuz sotsiologi Emi Dyurkgeymning fikricha, sotsiologiya fanga aylanishi uchun, “sotsial faktlarni” o'rghanishi, “sotsial faktlarni buyumlar kabi o'rghanish lozim” deb jamiyatda yuz berayotgan o'zgarishlarni alohida empirik tarzda o'rghanishni ilgari surgan. Ko'zga ko'ringan buyuk sotsiologlardan biri Maks Veber sotsiologiya fani to'g'risida gapirar ekan, uni shunday tushuntirgan; “...tabiy olamni tadqiq etishda qo'llaniladigan tartiblardan foydalangan holda, insonlar hayotini ham o'rgana olishimiz mumkin, deb o'ylash unchalik ham to'g'ri emasdir. Inson- fikrovchi va mulohaza yurituvchi mavjudotdir; biz qilayotgan ishlarimizga ko'proq ma'no va ahamiyat beramiz va inson hulq- atvori bilan shug'ullanadigan har qanday fan, bu omilni albatta hisobga olishi lozim.” deb tushuntirigan.

Antik davrning qomusiy olimlari va Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy ta'limotlari (Platon, Aristotel, Forobiy, Ibn Haldun va boshqalar) zamonaviy sotsiologiyaning muhim manbalari sifatida. Jahon sotsiologiya fanining namoyandalaridan biri Robert King Merton (1910 yilda tug'ilgan) shunday degan edi: “**Sotsiologiya** – bu o'ta qadimiy predmetni o'rghanish to'g'risidagi juda yosh fan”. Bundanda aniq ta'rifni topolmaysiz. Biz hozir jamiyat deb ataydigan ta'rifga

insonlar qadim zamonlardayoq qiziqishgan. Jamiyat tuzilishi haqidagi dastlabki va ancha to’liq tasavvurni antik davr faylasuflari berishgan.

Ijtimoiy hayot rivojlanishi qonuniyatlarini o’rganishga qaratilgan ta’limotlar, qarashlar eramizdan avvalgi IV asrdayoq yunon faylasuflari

**Aflatun** (eramizdan avvalgi 427-347 yil)ning “Qonunlar”, “Davlat to’g’risida”,

**Arastu** (eramizdan avvalgi 384-322 yil)ning “Siyosat to’g’risida”, “Metafizika”, “Etika”;

**Protagor** (eramizdan avvalgi 490-420 yil)ning “Haqiqat” kabi asarlarida yoritilgan.

Antik davrdagi birinchi sotsiologlarni ijtimoiy faylasuflar deyishadi. Ularning orasida ikkita buyuk mutafakkirni ko’rsatib o’tish mumkin – Aflatun va Arastu. Ular hozirgi sotsiologlar kabi an’analarni, urf-odatlarni, insonlarning fe’l-atvorlari va o’zaro munosabatlarini o’rganishgan, faktlarni umumlashtirishgan, jamiyatni takomillashtirish bo’yicha amaliy tavsiyalar bilan tugaydigan kontseptsiyalarni tuzishgan. Aflatunning “**Davlat**” asari “Umumiyl sotsiologiya” bo’yicha tarixdagi birinchi risola hisoblanadi. Buyuk mutafakkir ijtimoiy stratifikatsiyaning dunyodagi birinchi nazariyasi asoslarini ishlab chiqadi, unga ko’ra har qanday jamiyat uchta sinfga ajratilgan: davlatni boshqaruvchi donishmandlardan iborat oliy sinf; uni g’alayon va tartibsizliklardan saqlovchi jangchilardan iborat o’rta sinf; hunarmandlar va dehqonlarni o’z ichiga oluvchi past sinf. Antik davrning yana bir qomusiy donishmandi Arastu esa stratifikatsiya nazariyasining o’z variantini taklif qildi. Unga ko’ra o’rta sinf tartibning tayanchi sifatida ko’riladi. Undan tashqari yana ikkita sinf mavjud bo’lgan – boy plutokratiya va mulkdan mahrum proletariat. Arastu o’z davridagi mavjud stratifikatsion, ya’ni ijtimoiy tabaqlashuv tartiblarini qo’llab-quvvatlaydi. Arastu komil inson, komil fuqaro, adolatli davlat xususidagi qarashlarini ilmiy asoslashga intildi. Komil inson tarbiyasi shaxsning o’z davlatiga bo’lgan yuksak vatanparvarligini, o’z ijtimoiy-siyosiy tuzumiga sadoqatni

shakllantirishdan boshlanadi. Komil fuqaro tarbiyasi esa har tomonlama mukammal davlat tartibotini yuzaga keltirishdan boshlanadi. Demak, komillik tizimidagi «davlat-fuqaro-inson» tartiboti Arastuning davlat va jamiyatni mukammallahdan iborat sotsiologik kontseptsiyasini tashkil etadi. U jamiyat a'zolarining ma'naviy-mafkuraviy tarbiyasi masalasida umumdavlat nuqtai nazarida turdi. Jamiyatning tarbiyaviy vazifasi xususiy shaxslar yoki alohida guruqlar qo'liga topshirib qo'yilmasligi lozim. Xullas, Aristotel antik dunyo sotsiologiyasi tarixini eng mazmundor davri bo'l mish grek sotsiologiya mактабига мantiqiy yakun yasagan. Uning sotsiologik qarashlari dastlab qadimgi Rimning sotsiologiya mактabi namoyondalari (Tsitseron, Lukretsiy, Vergiliy, Goratsiy, Ovidiy) ga hayotbaxsh ilhom bag'ishladi, so'ngra esa o'rtasrlar sharqining buyuk mutafakkirlari Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ibn Rushdlar dunyoqarashlariga o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Movarounnahr jamoatchilik fikri tarixini o'r ganishda Moturidiya maktabining asoschisi Abu Mansur al-Moturidiy asarlari muhim o'rin tutadi. Uning asarlarini nafaqat dinshunoslik, balki jamiyat, jamoa, ijtimoiy jarayonlar va xususan shaxs haqidagi ta'limot sifatida yondashish, ularni Movarounnahr hududi hayot tarzi, mentalitetiga muvofiq keluvchi, ularni g'oyaviy, e'tiqodiy yakdillikka undovchi yaxlit ilmiy sotsiologik kontseptsiya sifatida baholash va har tomonlama o'r ganish maqsadga muvofi qdir. Inson shaxsi va mavqeい masalasi uni turli ijtimoiy-siyosiy, kerak bo'lsa, diniy tazyiqlardan himoya qiluvchi al-Moturidiyning murosaviy muvozanat kontseptsiyasini, islomni anglash jarayonlaridagi ijobiy jihatlar yig'indisigina emas, balki Movaraunnahrdagi real ijtimoiy-siyosiy muhit, xalq turmush tarzi, mentaliteti, boy madaniy-tarixiy tajribasi bilan boyitilgan insoniy yondashuvlar sintezi, deb, baholash maqsadga muvofi qdir.

Al-Motrudiy jabariylarning, insonning hamma amallari oldindan uning taqdiriga yozib qo'yilgan, shu boisdan u o'zi qilayotgan ishlarga mas'ul emas, degan nuqtai nazarini ham qadariylarning, Olloh inson

faoliyatlari va amallarining himoyachisi emas, degan nuqtai nazarini ham asosli tanqid qilib, inson yaxshi va yomon amallarni o'z erkiga ko'ra tanlashi va bu yo'lida Ollohning madadini olishi nazariyasini ilgari suradi. Shu asoslarda al- Moturidiy Movaraunnahr jamoatchilik fikrining ma'naviy asoslari kuchli insoniy mazmun bilan boyitilishiga katta hissa qo'shdi.

Markaziy Osiyoning mutfakkirlari bo'lmish Abu Nasr Farobi, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Haldun, Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzo kabi ulug' allomalar ham o'z davri ijtimoiy hayotning turli sohalarini ilmiy asosda tadqiq qilganlar va o'zlarinig ijtimoiy qarashlarini asarlarida yozib qoldirganlar.

Movaraunnahrda tabiat va jamiyatni sotsiologik anglash va o'rghanish ulug' mutafakkir Al-Forobiy tomonidan jiddiy kengaytirildi. U Abu Mansur al-Moturidiy tomonidan ilmiy-teologik jihatdan asoslangan inson erki nazariyasini yanada rivojlantirdi. U o'zining «Fozil odamlar shahri» asarida insondagi insonlik mohiyati o'zlikni anglashdan boshlanishi, fozil shaxs voqeа va xodisalarning mohiyatini idrok eta bilishini, mohiyatga intilish haqni tanish ekanligini, insonga berilgan ruh aqlni rivojlantirishga, unga quvvat bag'ishlashga mas'ul ilohiy kuch ekanligini, aql esa inson tomonidan narsalarni mohiyatan tanlab farqlashga ko'mak berishini asoslab beradi. Farobiy olamni anglashda vorisiylik omilini juda katta kuchga ega ekanligini alohida qayd etadi. Uning fikriga ko'ra, inson barcha haqiqatlarni o'zining qisqa umri davomida anglashga, tabiat va jamiyatning barcha siru-asrorlarini tushunib, idrok eta olishga qodir emas. Shu boisdan u o'zidan oldinga ajdodlari tomonidan bildirilgan fikr-xulosalarni boricha shubhalanmay o'zlashtirishi zarurligi, ilm-ma'rifat bobida etuk donishmandlar fikrlariga ergashishi lozimligini alohida ta'kidlaydi. Farobiy jamiyatning boobro' shaxslari, olimlari, oqil kishilarini ijtimoiy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchlaridir, deb hisoblaydi. Farobiy o'sha paytdayoq ijtimoiy fikrning ahamiyati katta ekanligini chuqur anglab, zamonaviy sotsiologiyada ko'p qo'llanuvchi ekspertlar, ya'ni o'z davrining etuk donishmandlari fikrlariga tayanib

ish tutish zarurligiga urg'u beradi. «Donishmandlarga ishonib, ularga ergashuvchi odamlar o'sha narsalarni donishmandlar bilganday bilib oladilar. Zero, donishmandlarning bilimlari, eng yaxshi bilimlardur».

Abu Rayhon Beruniy o'zining "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", "Minerologiya", "Hindiston" asarlarida ijtimoiy hayot masalalarini yoritgan.

"Mineralogiya" asarining muqaddimasida inson va ijtimoiy adolat to'g'risidagi qimmatli fikrlarni bayon etgan. Beruniy o'z davrining etnosotsiologi ham edi. "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida turli xalqlar: forslar, yunonlar, yahudiylar, xristian molikiylar va xristian nasturiylar, majusiyalar, sobitlar, budparast arablar, musulmon arablar, turklar to'g'risida qimmatli ma'lumotlar yozib qoldirgan. Abu Rayxon Beruniy (973-1048) ham olamni anglashda vorisiylik omili katta kuch ekanligini ta'kidlaydi.

Beruniy ijtimoiy nazariyalar sohasida samarali ijod qilgan. U sotsiologiyada jug'rofiy yo'nalishning tamal toshini qo'ygan olimlardan biri edi. Beruniy sotsial hodisa va jarayonlarni tushuntirishda kishilarning ehtiyojlari omilining ahamiyatini ko'rsatib o'tadi. Xususan odamlarning bir-birini himoya qilish ehtiyoji, muomala ehtiyoji (undan nutq kelib chiqqan), moddiy va ma'naviy ehtiyojlari (ulardan ilmiy dunyoqarash hamda fanlar kelib chiqqanligi)ni ajratib ko'rsatadi.

Abu Ali Ibn Sino falsafiy ilmlarni ikkiga bo'ladi: nazariy va amaliy. Nazariy ilmlarni inson faoliyati bilan bog'liq bo'lмаган predmet va narsalar to'g'risidagi haqiqiy bilim deb ta'riflaydi. Amaliy ilmlarning ob'ekti esa inson faoliyatidir.

Ibn Sino jamiyatda insonlar o'zaro bir-birlariga yordam berish asosida yashashlari kerak deb ta'kidlaydi. Bundan tashqari jamiyat kishilarning o'zaro kelishuvi asosida qabul qilinadigan adolatli qonunlar yordamida boshqarilishi zarur degan ilg'or g'oyani ilgari surgan. Bunda bu jamiyatning hamma a'zolari qonunlarga itoat etishlari shart. Qonunni buzish vaadolatsizlik jazolanishi kerak. Ibn Xaldun (Ibn Xaldun Abdurahmon Abu Zayd (1332-1406)) arab tarixchisi va

mutafakkiri. U o'zining «Sotsiologiya» (arab.ilm al-ijtimo) faniga oid dadil fikrlarini o'rtaga tashlagan va Sharqda haqli ravishda shu fan asoschilaridan biri hisoblanadi. Uning «Kitob ul-Ibar» (1370) asarining muqaddima qismida tarixiy sotsiologik nazariyasi bayon etilgan. Insoniyat ijtimoiy fikri tarixida bиринчи bo'lib, jamiyat, uning ichki rivojlanish qонуниятлари va taraqqiyot an'analari haqidagi fanni yaratgan. Sharqning yetuk sotsiologi bo'lган Ibn Xaldun «Muqaddima» (1381) asarining «Kirish» qismidagi dastlabki bo'limni «Kishilarning umumiy ijtimoiy hayoti to'g'risida» deb nomlangan.

Kishilar mavjud ekan, ularning ehtiyoj va intilishlari o'rtasida farq bo'lishi tabiiy va ayrim aholi guruhlari va shaxslar o'rtasida kelishmovchilik, qarama-qarashliklar sodir bo'ladi. Bu esa tartib o'rnatish va tashkil qilish ishlarini o'rtaga qo'yadiki, buni «hokimiyat» amalga oshiradi. Bu g'oya ham Ibn Xaldun qarashlarining muhim xulosalaridandir. Ibn Xaldun mulkni va mulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi va himoya qiluvchi kuch esa davlatdir, deb yozadi. Noroziliklarning bosh sababchisi hukmron sinf vakillarining adolatsizlik va zo'ravonlikka asoslangan siyosati natijasidir. Uning nazarida shoh 2 toifaga: adolatli va adolatsiz shohga bo'linadi. Yaxshi hukmdor shunday hukmdorki, uning siyosati kuchini xalqi zo'r-bazo'r sezadi va u o'z fuqarolari bilan yumshoq, adolatli muomalada bo'ladi. Chunki o'z siyosatiniadolat asosiga qurgan shohning fuqarolari kuchli va erkin bo'ladi, buning oqibatida ular qudratli yaratuvchi kuchga aylanadilar. Shu bois mutafakkir shohlarga maslahat berib, xalq erkinligini haddan ortiq bo'g'maslikka va erkinlik berishga chaqiradi: «Agar tarbiya kuch ishlatish, qo'rqtish yo'li bilan bo'lar ekan, u xoh o'quvchi, xoh qul, xoh xizmatkor bo'lsin, ularga qo'rqinch tahdid qilib turadi, natijada fuqaro ruhining o'sishiga xalaqit beradi, harakatchanlikni sindiradi va uning o'rniga yalqovlik, aldash, yolg'onchilikni kuchaytiradi. Bu sifatlar aynan shu zo'ravonlik ta'sirida sodir bo'ladi. Ular qalbi befarqlik bilan to'ladi, yaxshi va fazilatli sifatlar o'rnini ahmoqona, yomon sifatlarni qabul qilib, pastlarning eng pastiga aylanadi».

Alisher Navoiyning «Mahbub ul -qulub» asarida bevosita o’z davridagi deyarli barcha ijtimoiy guruh va tabaqalarga tavsif beriladi va ularning qaysi biri yaxshi yoki yomon, qaysi biri insoniylikka, xalqqa, mamlakatga foydali yoki zararli ekanligi bayon etiladi. Ulug’ mutafakkir jamiyatdagi yuzdan ortiqroq ijtimoiy tabaqa xususiyatlarini aniqlab, ularning mamlakat ijtimoiy tizimidagi o’rni va faoliyat imkoniyatlarini ravshan ifodalab beradi. Mazkur sotsiologik tasniflashdan maqsad, ularni ijtimoiy foydalilik darajalarini oshirish ekanligi asarning mazmunini tashkil etadi. Zero, jamiyatdagi tasnifning qanday ekanligini bilish ularning mazmunini yaxshilashga yo’l ochadi. «Shu jihatdan, - deb yozadi Alisher Navoiy, - hamsuhbatlarni va do’styoronlarni bu hollardan ogoh va xabardor qilmoq vojib ko’rindiki, toki ularda har toifani xislati haqida bilimlar va har tabaqaning ahvoli haqida tushunchalari bo’lg’ay».

Zahriddin Muhammad Bobur ham “Boburnoma” asarida o’z davri ijtimoiy hayoti voqeligini, inson shaxsi xususiyatlarini, yaxshi va yomon tomonlarini, Andijondan – Hindistonga qadar bo’lgan ulkan hududda yashagan xalqlarning ijtimoiy jihatlarini shaxsiy kuzatishlari, ilmiy tadqiqotlari asosida o’rgangan va yozib qoldirgan.

Yuqorida nomlari zikr etilgan buyuk mutafakkirlar yashagan davrda sotsiologiya hali mustaqil fan sifatida shakllanmagan edi. Ularning ijtimoiy hayot jarayonlari to’g’risidagi ilmiy tadqiqotlari natijalari esa ijtimoiy – falsafiy qarashlar tarzida namoyon bo’lgan.

G’arb sotsiologiyasi klassiklarining ishlarida sotsiologiyaning ob’ekti va predmeti muammosi. XVIII–XIX asrlardagi ko’pgina evropalik mutafakkirlar, jumladan, Volter, Didro, Kant, Hegel, Gobbs, rasmiy tarzdagi sotsiologiya fani paydo bo’lishidan ancha oldin insonlarning fe’l-atvori, ijtimoiy axloq va an’analari, xalqlarning xarakteri, ijtimoiy tipajlarning xulq-atvori to’g’risida yozishgan.

«Sotsiologiya» atamasi faqat XIX asr boshida – 1838 va 1840 yillar oralig’ida paydo bo’ldi. Uni frantsuz olimi Ogyust Kont (1798–1857) yaratdi. Birinchidan, uni eng kuchli va samarali falsafiy yo’nalishlardan biri, ya’ni pozitivizmning asoschisi sanashadi.

Ikkinchidan, u qudratli empirik fan – sotsiologyaning otasi hisoblanadi. O.Kont unga nom berdi, uning predmeti va metodlarini belgiladi. Fanga sotsiologiya nomini bergen O.Kont o’z ijodida taraqqiyot, siyosiy va iqtisodiy erkinlik ideallariga tayangan holda, u fan va ma’rifat yordamida barcha ijtimoiy muammolarni hal etish mumkinligiga umid qiladi. Nosog’lom jamiyatni qanday davolash mumkin degan savolga Kont shunday javob beradi: «tabiatshunoslik fani qanday bo’lsa, jamiyat haqida ham xuddi shunday aniq va ob’ektiv fanni yaratish kerak». Kontning takidlashicha, jamiyatdagi ijtimoiy muvofiqlik – bu shaxslar va ijtimoiy qatlamlar manfaatlarining bir-biriga mosligidir. Kontning jamiyatni yaxlit organism sifatida tushunishi, mehnatning ijtimoiyadolat asosida taqsimlanishi, ijtimoiy barqarorlik shartlari va omillari, turli guruh va qatlamlar manfaatlarini moslashtirishda davlat va shaxslarning orni tugrisidagi fikrlari bugungi kunda ham muhimdir.

O.Kontning ko’pgina g’oyalari, avvalo tabiat va jamiyat haqidagi fanlarning ijobiy ko’rsatmalaridan sotsiologiyada foydalanish, shuningdek yaxlit sotsial organizm bo’lgan jamiyat haqidagi tasavvurlarini qabul qilib uni rivojlaning mutafakkirlardan biri Gerbert Spenserdir. (1820-1903).

G.Spenser sotsiologiyadagi organizmga oid matabning asoschisi hisoblanadi. U o’zining organizmga oid nazariyasini va sotsial evolyutsiya tushunchasini “Ilmiy, siyosiy va falsafiy tajribalar” asarida atroflicha bayon etgan.

G.Spenser jamiyatni tabiiy, eng avvalo biologik qonunlar asosida rivojlanuvini tirik organizm sifatida qaragan. U jamiyatni jonli biologik organizmga o’xshatadi. Ushbu fikrni asoslash maqsadida u quyidagi dalillarni keltiradi:

1. Jonli organizm sifatida har qanday jamiyat ham o’sish va rivojlanish jarayonida o’z massasidan ortib boradi;
2. U va boshqalari murakkablashadi;
3. Uning qismlarining tobora bir-biriga bog’liqligi kuchayib boradi;

4. Uni tashkil etgan birliklar goho paydo bo'lib va yo'q bo'lib turishiga qaramay, bir butun holda yashashni davom ettiradi.

O.Kontning vatandoshi Emil Dyurkgeymni amaliy sotsiologianing kashfiyotchisi deyishadi. U hozirgacha qo'llanib kelinayotgan funktsional tahlil metodologiyasini yaratgan, o'z joniga qasd qilish muammosini chuqur tahlil qilgan. Uning bu ishlari bugungi kunda ham sotsiologik tadqiqot qanday bo'lishi kerakligiga mukammal misol bo'lib xizmat qilmoqda. Emil Dyurkgeym (1858–1917) O.Kontning pozitivizm metodologiyasini chuqurlashtirdi, ko'p hollarda esa uni qayta yo'naltirdi. Dyurkgeym ijtimoiy faktlarga tayanishni va ularning statistik o'rganishni taklif qiladi: u bir ijtimoiy faktlarni (o'z joniga qasd qilish) boshqa ijtimoiy faktlar (integratsiya) yordamida tushuntiradi. Dyurkgeym zamonaviy sotsiologianing yangi metodologiyasini beradi. Uning metodologik pozitsiyasiga ikkita xususiyat xos: **naturalizm** – jamiyat qonunlarini tabiat qonunlariga o'xshashligi asosida tushunish hamda **sotsiologizm** – ijtimoiy voqelikning o'ziga xosligi va avtonomligini, uning individlardan ustunligini tasdiqlash.

Dyurkgeym ayni paytda ham o'zining dolzarblik qiymatini yo'qotmagan anomiya nazariyasi asosini yaratgan. Uning ijtimoiy mehnat taqsimoti, mexanik va organik hamjihatlik, ijtimoiy fakt mohiyati, kollektiv ong va qadriyatlar, din evolyutsiyasi haqidagi ta'limoti jahon sotsiologiyasining oltin fondiga kirgan.

Nafaqat Frantsiya, balki Germaniya ham jahonni buyuk sotsiologlari – Maks Veber, Georg Zimmel, Ferdinand Tennis bilan lol qoldirgan. Masalan, bugungi kunda Veberning 30 dan ziyod jilddan iborat asarlar to'plami nashr etilgan. Nemis mutafakkiri Maks Veberni (1864–1920) ikkilanmasdan sotsiologianing Leonardo da Vinchisi deyish mumkin. Uning asosiy nazariyalari bugun sotsiologiya fanining poydevorini tashkil etadi: ijtimoiy harakat va motivatsiya, mehnatning ijtimoiy taqsimoti, begonalashuv, kasbga moyillik haqidagi nazariyalar. U din sotsiologiyasi, iqtisodiy sotsiologiya va mehnat sotsiologiyasi, shahar sotsiologiyasi asoslarini, byurokratiya nazariyasini, ijtimoiy

stratifikatsiya va statusli guruhlar kontseptsiyasini, siyosatshunoslik va hokimiyat instituti asoslarini, jamiyatning ijtimoiy tarixi va ratsionalizatsiya haqidagi ta'limotni, kapitalizm evolyutsiyasi va mulkchilik instituti to'g'risidagi ta'limotni ishlab chiqdi. M.Veberning yutuqlari shu qadar ulkanki, ularni sanab tugatib bo'lmaydi. Ideal tiplarning kiritilishi uning metodologiya sohasidagi eng asosiy yutuqlaridan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda M.Veber sotsiologiyasi haqiqiy uyg'onish davrini boshidan kechirmoqda. Uning falsafiy sotsiologik qarashlarining ko'p tomonlari yangidan qayta anglanmoqda. Veberning «Haqiqiy ilm faqat mavjud narsalar haqida fikr yuritadi, taxminiy narsalarni rad etadi» - degan fikrini sotsiologiyaning aniq fanlar qatoriga yaqinlashtirishga bo'lgan harakat sifatida baholashimiz mumkin.

M.Veber hamda uning hamkasblari F.Tennis (1855–1936) va G.Zimmelning (1858–1918) sharofati bilan nemis sotsiologiya maktabi Birinchi jahon urushiga qadar jahon sotsiologiyasida ustunlik qildi. F.Tennis o'zining «Jamoa va jamiyat» (1887) deb nomlanuvchi bosh asarida keyinchalik klassik tipologiyaga aylangan ijtimoiylik tipologiyasini, ya'ni bevosita shaxsiy va qarindoshchilik munosabatlari hukmron bo'lgan jamoa va formal institutlar ustuvor bo'lgan jamiyatni taklif qiladi.

Birinchi bosqichda (XIX asr oxiri – XX asr boshi) uchta mamlakat: Frantsiya, Germaniya, Angliya jahon sotsiologiya fanining markazi hisoblangan. Albatta, boshqa mamlakatlarda ham milliy sotsiologiyaning rivoji uchun ko'p ish qilgan ajoyib mutafakkirlar bo'lgan. Masalan, rossiyalik Pitirim Sorokinni (1889–1968) sotsiologik muammoni qamrashida universalligi, jahon sotsiologiyasiga qo'shgan nazariy va metodologik ahamiyati jihatidan M.Veber bilan tenglashtirish mumkin. Rossiyada tug'ilib, AQShda vafot etgan aynan shu mutafakkir sotsiologiyaning dong'ini yoydi.

XX asrning 20-yillaridan boshlanib, hozirgi kungacha davom etayotgan keyingi bosqichda jahon sotsiologiyasi markazi AQShga ko'chadi va bu erda sotsiologiya faniga davlatdan ancha ko'mak va

ko'pchilik universitetlarning tezda yordami tegadi. Doktorlik darajasini beruvchi dunyodagi birinchi sotsiologiya fakulteti 1892 yili Chikago universitetida paydo bo'ladi. 1910 yilga kelib, Amerika universitetlari va kollejlarining aksariyati talabgorlarga sotsiologiya kurslarini taklif qila boshlaydi.

Sotsiologiya tabiatiga aynan yangicha nazari tufayli Amerika tez orada ilmiy sotsiologiyani yaratish borasida Evropadan o'zib ketadi. Ammo sotsiologlari ko'p bo'lishiga qaramasdan, Amerika dunyoga faqat bitta haqiqiy milliy oqimni – simvolik interaksionizm oqimini va faqat bitta buyuk sotsiologni - Tolkott Parsonsni (1902–1979) bera oldi. U jamiyatning barcha darajalarini va ijtimoiy materiya harakatining barcha shakllarini tushuntirib bera oladigan keng qamrovli sotsiologik nazariyani yaratishga urindi. U kishilik voqeligining xilma-xil ko'rinishlarini qamrab oluvchi mavhum tushunchalarning ulkan deduktiv tizimini yaratishga muvaffaq bo'ldi.

Sotsiologiya bir yarim asrdan ko'proq vaqt davomida mavjud. Bu vaqt ichida unda turli tendentsiyalar, yo'nalishlar va maktablar shakllandi. Ularning har biri o'z predmetlarini aniqladilar va uning doirasida ma'lum yutuqlarga erishdilar. Biroq, hozirgi vaqtida va sotsiologyaning butun taraqqiyoti davomida uning mavzusini chuqurlashtirish va aniqlashning murakkab jarayoni mavjud edi. Buning sababi nimada? Sotsiologiya fani predmeti tadqiqot o'tkazish faoliyati natijasi sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun, sotsiologyaning tarixiy rivojlanish bosqichlari davomida uning predmeti to'g'risidagi tushuncha ham o'zgarib borgan.

Gap shundaki, biz shiddatli va chuqur o'zgarishlar davrida, odamlar o'rtasida yangi sivilizatsiya va yangi munosabatlarning shakllanishi davrida yashayapmiz. Bugungi kunda insoniyat azob bilan ko'plab global savollarga javob izlamoqda: jamiyat nima? bu qanday ishlaydi? Qayerga ketayapmiz? Ularga javoblar faqat aniq, faqat mohiyatiga ko'ra konstruktiv bo'lishi kerak. Bundan tashqari, yagona sotsiologik bilimga ehtiyoj bor, chunki bu butun sivilizatsiya taqdiri haqida.

**Sotsiologiyaning predmeti**, albatta, zamonaviy dunyoning ziddiyatli yaxlitligini nazariy anglash bo'lishi kerak. Ushbu fanning "dramasi" shundan iboratki, u insoniyat holatining mohiyatini o'rganishi va tushuntirishi kerak, aynan shu maqsadda u bugungi kunda paydo bo'lgan va mavjud.

Uning **ob'ekti** zamonaviy jamiyatdir.

Shu bilan birga, ob'ektni (jamiyatni) yaxlit o'rganish uning barcha xususiyatlarini, qirralarini va munosabatlarini qamrab olishga imkon bermaydi. Ertami-kechmi olimlar sotsiologiya fanining predmetini tashkil etadigan faqat uning ayrim jihatlarini o'rganishga e'tibor berishlari kerak, ya'ni. sotsiologiyaning predmeti oddiy odamlarning kundalik hayotidir.<sup>1</sup>

Sotsiologiya predmetiga Vesbsterov lug'atida «...sotsiologiya insonlarning sotsial guruhlarning vakili sifatida, bиргалидаги hayotining tarixi, rivojlanishi, tashkil topishi va muammolarini o'rganuvchi fan», deb berilgan. Turli sotsiologik ta'lilot va yo'naliшlar vakillari sotsiologiya fani predmeti to'g'risida turlicha fikrlar bildirganlar. Jumladan, sotsiologiya fani asoschisi O. Kont sotsiologiyani jamiyat to'g'risidagi pozitiv fan deb hisoblagan. Amerikalik sotsiolog Dj. Smelzer o'zining "Sotsiologiya" darsligida sotsiologiya jamiyat to'g'risidagi fan ekanligini ta'kidlaydi. E. Dyurkeym esa sotsiologiya predmetini ijtimoiy ma'lumotlardan iborat deb bilgan. U sotsiologiya buyuk falsafiy ta'lilotlardan yuzaga kelganligini e'tirof etadi va doimo qandaydir falsafiy yondashuvlarga suyanganligini ta'kidlaydi. **Sotsiologiya** – deb yozadi Dyurkgeym – allaqachon mustaqil fan bo'lib shakllangan, o'z predmetiga ega va shu tufayli o'z ishi bilan shug'ullanishi kerak. Sotsiologiya, sotsial dalillar xaqidagi fan bo'lib, uning ostida siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy va boshqa g'oyalar, qoida va qadriyatlar yotadi, deydi u. Yana Nemis sotsiologi G. Zimmelning ta'rificha, sotsiologiya - xususiy ijtimoiy fanlarning bilish nazariyasidir. Ya'na bir nemis sotsiologi M.

---

<sup>1</sup> Барулин В.С. Социальная философия. – М., 1993.

Veberning fikricha, sotsiologiya ijtimoiy xulq to'g'risidagi fandir. Ijtimoiy xulqni M. Veber insoniy munosabatlardan iborat deb bilgan. Ijtimoiy xulq esa o'z navbatida ijtimoiy mohiyatga egadir.

Mashhur rus sotsiologi P. A. Sorokinning sotsiologiya fani predmeti to'g'risidagi fikri umumiy ma'noga ega bo'lib, u "jamiyat yoki ijtimoiy hodisalardan iborat", deb hisoblagan. Jamiyat esa ruhiy aloqadorlikka ega bo'lgan birliklar majmuidan iborat. Sotsiologiya xuddi shunday o'zaro aloqadorliklardan iborat jamiyat hayotini o'rghanadi.

Yana bir rus sotsiologi V. A. Yadovning fikricha, "sotsiologiya - jamiyatning bir butun organizm ekanligi, ijtimoiy munosabatlarning bir butunligi to'g'risidagi fandir". Mashhur sotsiolog G. B. Osipov o'zining "Sotsiologiya" o'quv qo'llanmasida sotsiologiya - ijtimoiy tizimlarning funktsionallashuvi va rivojlanishi to'g'risidagi, umumiy va o'ziga xos ijtimoiy qonun va qonuniyatları, bu qonun va qonuniyatarning shaxs, ijtimoiy birliklar, sinflar, xalqlar faoliyatidagi yuzaga kelish va amal qilish shakllari to'g'risidagi fan deb, - ta'riflagan.

Yuqorida keltirilgan fanlardan xulosa qilib aytish mumkinki, sotsiologiya ijtimoiy birliklar, tashkilotlar, jarayonlar va munosabatlarning yuzaga kelishi, funktsionallashuvi va rivojlanishi qonuniyatlarini o'rjanuvchi fandir. Shu bilan birga jamiyatning rivojlanib borishi bilan sotsiologiyaning mazmuni ham yanada boyib, rivojlanib boradi, uning o'rjanish ob'ekti qamrovi kengayadi, tadqiqot usullari ham yanada mukammallahib boradi.

Sotsiologiyaning boshqa fanlar bilan munosabati. Sotsiologiya va falsafa. Sotsiologiya falsafa fani bilan uzviy bog'liqdir. Sotsial falsafa qonun va kategoriyalari bevosita umumsotsiologik nazariya va kontseptsiyalarni o'z ichiga oladi. Maxsus sotsiologik nazariyalar uchun esa nazariy va metodologik asos bo'ladi. Umumsotsiologik va maxsus sotsiologik nazariyalarning rivojlanishi o'z navbatida mazkur davr ijtimoiy fikrini shakllantiradi, unga nazariy va amaliy manba bo'lib xizmat qiladi. Sotsiologik tadqiqot empirik ma'lumotlar, eksperimentlar yordamida ijtimoiy falsafiy ta'limotlarning qanchalik

to'g'ri, mazkur ijtimoiy davr mazmuniga mos yoki ularning eskirib, ijtimoiy taraqqiyot talabiga javob bera olmay qolganligini aniqlab berish imkoniyatiga ega. Ammo, sotsiologiya har qanday siyosiy va idealogik tizimdan holi bo'lsagina, uning yuqorida ko'rsatilgan ilmiy qimmati saqlanadi.

Sotsiologiya va tarix. Sotsiologiya va tarix fanlari jamiyat hayotini izchil, sistemali tarzda o'rganadi. O'tmish tariximizni yaratishda mutafakkirlar sotsiologiya usullaridan keng foydalanganlar. Chunonchi, tarixiy ma'lumotlarni, manbalarni to'plash, ularning haqqoniyligini aniqlash, tarixiy shaxslar esdaliklaridan, tarixiy voqealar guvohlarining xotiralaridan keng foydalanilgan. Masalan, At-Termiziyy, Imam Al Buxoriy kabi hadisshunoslar, Abu Rayhon Beruniy, Sharofiddin Ali Yazdiy, Xondamir, Xerman Vamberi kabi buyuk mutafakkir olimlar o'zlarining tarixga oid qimmatli asarlarini yaratishda sotsiologiya usullaridan unumli foydalanganlar. Tarixiy voqealarga boy bo'lgan bugungi kunimiz ertangi kelajagimiz uchun o'tmish sahifalariga aylanadi. Shunday ekan, hayotimizning keng qamrovli sohalarining ilmiy sotsiologik tadqiqotlari va tahlili natijalari tarix fani uchun xizmat qilishi tabiiy.

Yangi iqtisodiy munosabatlarga o'tish kishilardagi o'zini ko'zlash, o'z shaxsiy manfaatini jamiyat, millat manfaatidan ustun ko'rishlik hollari kuchaymoqda. Kishilarda behalovatlik, asabiylik ortmoqda. Odamlardagi asabiylikning ortishi xuddi yuqumli virus kabi tez tarqalib, ijtimoiy muammoga aylanmoqda. Ushbu muammolarni o'rganish va hal etib borishda sotsiologiya bilan psixologiya fanlarining hamkorligi muhimdir.

Sotsiologiyada jamiyat ijtimoiy tarkibiy tuzilishining ijtimoiy-demografik munosabatlari ham muhim o'rinni tutadi. Demografik munosabatlarga mamlakat aholisining barcha qatlamlari mansub. Ijtimoiy-demografik tarkibga statistik jihatdan o'rganiladigan aholi o'rtaida tug'ilish, o'lim, nikoh, oilaviy qo'ydi-chiqdilar, shahar va qishloq aholisining migratsiyasi, hududiy migratsiya kabilari kiradi.

Sotsiologiyaning iqtisodiyot, huquq, estetika, pedagogika kabi fanlar bilan aloqadorligi bozor munosabatlariga o'tish jarayonida yanada ortmoqda.

Iqtisod fanlari bilan sotsiologiyaning dialektik aloqadorligi moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish, taqsimot, ayirboshlash, iste'mol jarayonlarini o'rganishda namoyon bo'ladi. Ayniqsa, hozirda bozor munosabatlariga o'tish, mehnatga yangicha munosabat shakllanishi jarayonida uning ahamiyati juda kattadir. Iqtisodiyot sotsiologiyasi, mehnat sotsiologiyasi kabi sotsiologiyaning maxsus sohalari, iqtisodiyotga bog'liq masalalarni o'rganadi va unga bog'liq bo'lgan barcha muammoni hal etishga xizmat qiladi.

Huquqiy davlatni shakllantirib, uni yanada rivojlanirishda jinoyatchilikka qarshi kurashni kuchaytirish, huquqiy munosabatlarni tartibga solish katta ahamiyatga ega. Huquqiy tashkilotlar faoliyatini yangi davr talablariga mos ravishda tashkil etish, ularning ijtimoiy munosabatlar sohalaridagi ta'sirini takomillashtirishga e'tiborni kuchaytirish maqsadga muvofiqdir. Jinoyatga qarshi kurash va uning oldini olish – davlat ahamiyatidagi masala hisoblanadi. Unga qarshi kurash jinoyat sodir etilgandan so'ng emas, balki unga qadar olib borilmog'i lozim. Jinoyatchilikning oldini olish, uning tub mohiyatini, motivi va keltirib chiqarayotgan sabablarning o'rganishda sotsiologik tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyatga ega. Demak, huquq fanlarining rivojlanishida ham sotsiologiyaning o'rni kattadir.

Jamiyat rivojlanishi bilan kishilarning estetik ehtiyojlari ham o'zgarib, yanada rivojlanib boradi. Kishilardagi bu ehtiyojni o'rganish va ijobjiy sifatlarni shakllantirishda, tarbiyalashda sotsiologik tadqiqotlarning natijalari, xulosa va takliflari o'zining ilmiy qimmatiga ega. Shu jihatdan sotsiologiya fani nafosat estetika fani bilan o'zaro bog'liq.

Bozor munosabatlariga o'tishning dastlabki qadamlari, ayniqsa ta'lim-tarbiya jarayonida juda katta ta'sir ko'rsatmoqda. O'quvchi yoshlar dunyoqarashida keskin o'zgarishlar yuz bermoqda.

Sotsiologiya va tabiiy hamda aniq fanlar. Asrimizning keyingi bosqichida jamiyat bilan tabiat o'rtasidagi munosabatning keskinlashuvi – sotsiologiyaning tabiatshunoslik fanlari bilan aloqadorligini kuchaytiradi. Insonning tabiatiga, tabiiy muhitga ta'siri ortib bormoqda. Ekologik, demografik vaziyatning keskinlashuvi sotsiologiya fanini bevosita ushbu muammolarni hal etishga jalg qiladi.

Sotsiologiya fani statistika fani bilan ayniqsa yaqin aloqada rivojlanadi. Har bir sotsiolog muayyan mavzuda sotsiologik tadqiqot o'tkazishni maqsad qilib qo'yar ekan,u albatta shu sohadagi predmetning konkret holatini, real voqelik manzarasini statistik manbalardangina topa oladi. Keng ko'lAMDAGI konkret sotsiologik tadqiqotlarning sotsiolog tomonidan statistik idoralar xodimlari bilan hamkorlikda o'tkazilishi ijobiy samaralar berishi shubhasizdir.

Hozirgi zamon sotsiologiyasini matematikasiz tasavvur etib bo'lmaydi. Matematik usullarsiz sotsiologiya mavhum bir qarash bo'lib qoladi. Ayniqsa, uning empirik darajadagi tadqiqot o'tkazishdagi o'rni katta.

Hozirgi zamon g'arb sotsiologiyasi kibernetik usullardan, axborot nazariyasi bilan muvaffaqiyatli rivojlantirilgan. Hozirgi zamon ilmiy-texnika taraqqiyoti asrida sotsiologiya va texnika fanlar aloqadorligi tabiiydir. Chunki, "inson – texnika", "jamiyat-texnika", "maishiy turmush – texnika" kabi tizimlarni ilmiy o'rganish ular zimmasiga yagona vazifani yuklaydi. Inson yaratgan barcha texnika faqat inson va jamiyatning ijobiy taraqqiyotiga xizmat qilsin. Ularni o'rganishda esa sotsiologiya fanining roli beqiyosdir.

Sotsiologiyaning fanlar tizimidagi tutgan o'ziga xos o'rni.

Sotsiologiyaning boshqa fanlar bilan uzviy aloqada rivojlanishi, eng avvalo o'sha fanlarga oid ma'lumotlardan u yoki bu tarzda foydalanishi bilan izohlansa, o'z navbatida sotsiologiyaga oid xulosalardan foydalanib boshqa fanlar ham rivojlanadi. Sotsiologiya o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy fandir. Jamiyatning rivojlanishi, kishilar o'rtasidagi munosabatlar yangidan - yangi sifatlar bilan boyib borishi, ishlab chiqarish texnikasi va texnologiyalarining yanada takomillashib

borishi va boshqa ko'pgina faktorlar bugunki kunda sotsiologiyani mavqeini yanada oshirmoqda, ijtimoiy fanlar ichida etakchi o'rinni egallashiga imkon bermoqda. O'z navbatida sotsiologiya fani jamiyat taraqqiyotiga amaliy xulosalari bilan ta'sir etadi. Buni rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ham bilish mumkin. Bu mamlakatlarda sotsiologiya fani ham nazariy, ham amaliy jihatdan yuksak darajada rivojlanib, sotsiologik tadqiqotlar markazlari, mutaxassis kadrlar tayyorlashdagi alohida e'tibor, ishlab chiqarishdagi sotsiologik xizmat zaruratinini yanada oshirdi.

### **Muhokama uchun savollar**

1. "Sotsiologiya" fanini o'rganishdan maqsad nima?
2. Siz «Sotsiologiya» tushunchasining mohiyatini qanday tushunasiz?
3. Sotsiologiya faniga qanday ta'riflar berilgan?
4. Sotsiologyaning ilmiy atamasining ma'nosini ayting?
5. Sotsiologiyada jamiyat qonunlari qanday o'rinni tutadi?
6. Sotsiologyaning ob'yekti va predmetini ta'riflashdagi eng yangi tendensiyalar?
7. Qanday sotsiologik tushunchalarni bilasiz?
8. Fanning qanday vazifalari mavjud?
9. Sotsiologyaning asosiy kategoriylarini sanab o'ting?
10. Sotsiologyaning asosiy yo'nalishlarini sanab o'ting?

### **Mavzu yuzasidan talabalar bilimini baholash uchun testlar**

- 1. «Sotsiologiya» terminini fanga birinchi bo'lib kim joriy etgan olim...**
  - a. Sh.Monteske
  - b. M.Veber
  - v. O.Kont
  - g. P.Sorokin

**2. Sotsiologiya tushunchasiga ta'rif berishga nisbatan qaysi yondashuv to'g'ri:**

- a. jamiyatshunoslikka oid yondashuv
- b. konkret xulq-atvorga oid yondashuv
- v. jamiyatshunoslik va konkret xulq-atvorga oid yondashuv
- g. huquqshunoslikka yondashuv

**3. Sotsiologiya fan sifatida qayerda vujudga kelgan?**

- a. AQSH
- b. G'arbiy evropa
- v. Lotin Amerikasi
- g. Sharqiy evropa

**4. Sotsiologik bilimning qaysi darajalari mavjud:**

- a. nazariy va empirik darajalar
- b. asosiy va o'rta darajalar
- v. yuqori va quyi darajalar
- g. mikro va makro darajalar

**5. Sotsiologyaning fan sifatida shakllanishining ob'yektiv sababi...**

- a. Texnika va ishlab chiqarishning taraqqiyoti
- b. Insonning absolyut ozodlikka intilishi
- v. Ijtimoiy tartibni tashkil etishning zaruriyligi
- g. Ijtimoiy taraqqiyot nazariyasining ishlab chiqish zaruriyati

**6. Quyidagilardan qaysi biri sotsial evolyusiya asoschisi hisoblanadi?**

- a. N.Makovilli
- b. O.Kont
- v. G.Spenser
- g. M.Monten

**7. Pozitivistik Sotsiologyaning g'oyaviy asosi nimada?**

- a. Organizm
- b. Determinizm
- v. Uch bosqich qonuni
- g. Taqlid nazariyasi

**8. Sotsiologiya qaysi fanlarga kiradi:**

- a. Gumanitar fanlarga
- b. Ijtimoiy fanlarga
- v. Ijtimoiy va gumanitar fanlarga
- g. To'g'ri javob keltirilmagan

**9. “Pozitiv falsafa kursi” asarining muallifi:**

- a. K. Marks
- b. O. Kont
- v.M. Veber
- g. G.Spenser

**10. Sotsiologiya oilani qanday o'rghanadi?**

- a.Birlamchi kichik guruh sifatida.
- b. Munosabatlar yig'indisi sifatida
- v. Sotsial institut sifatida
- g. Ijtimoiy-madaniy hodisa

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Karimov I.A. O`zbekistonda demokratik o`zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo`nalishlari. – T.: O`zbekiston, 2002.
2. Karimov I.A. “Yuksak ma'naviyat - enggilmas kuch” T.: “Ma'naviyat”, 2008.
3. Sotsiologiya asoslari. Ma'ruzalar matni. - T., 2000.
4. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. T.9. -T.: O`zbekiston, 2001.
5. Aliqoriev N.S. va boshqalar. Umumiy sotsiologiya. - T.: ToshDU, 1999.

Foydalanilgan internet saytlari:

1. <https://fayllar.org/>
2. <https://hozir.org/>
3. <https://works.doklad.ru/>

## **2-MAVZU. SOTSILOGIYA STRUKTURASI. SOTSILOGIYA FANLAR TIZIMIDA**

**Reja:**

- 1. Sotsiologiya fani strukturasining tarkibiy qismlari**
- 2. Fundamental va amaliy sotsiologiya. Nazariy va empirik tadqiqotlar. Mahsus va tarmoq yo‘nalishlar**
- 3. Makrosotsiologiya va mikrosotsiologiya sotsiologiya**

**Tayanch tushunchalar:** Harakatlar Strategiyasi struktura, sotsiologiya yo‘nalishlari: fundamental, amaliysotsiologiya, nazariya, mahsus, tarmoq empirik, dunyoqarash, metodologik, integratsiyalashtiruvchi, evristik.

Sotsiologiya fani boshqa fanlar kabi o‘zining strukturasiga, ya’ni ichki tuzilishiga ega. **Fanning strukturasi deyilganida, fandagi asosiy elementlarning o‘zaro aloqadorlikda joylashishi, munosabati va tartibi tushuniladi.** Fanning rivojlanganlik darajasi uning strukturasi holatini hamda mukammalligini belgilab beradi. **Fan o‘zining umumiylashtiruvchi, kategoriya va tushunchalari, bilishning turli darajalari va shakllarini ishlab chiqib, ularning o‘rtasida qat’iy mantiqiy bog‘lanish va muvofiqlikka erishsa, bir yaxlit sistema<sup>2</sup> sifatida qaror topgan va o‘z strukturasiga ega bo‘lgan hisoblanadi.**

Sotsiologiya fani boshqa ijtimoiy fanlarga nisbatan kech yuzaga kelgani uchun bugungi kunda xali o‘zining tugal va mukammal strukturasiga ega emas. U yosh fan sifatida turli xil rivojlanish yo‘nalishlari va ilmiy tizimlarning to‘plami sifatida namoyon bo‘lmoqda.

**Bugungi kunda sotsiologiyaning fanining o‘rganish predmeti va mazkur predmet asoslangan ilmiy konsepsiylar sotsiologik bilimning strukturasini belgilab bermoqda.** Shuning asosida sotsiologiya o‘zining bilim darajasiga ko‘ra, nazariy va

**empirik** sotsiologiya; tashkil etuvchi sotsiologik bilim vazifalariga ko‘ra, fundamental va amaliy sotsiologiya; tadqiqot ob’yekti (butun jamiyat yoki uning ma'lum qismi)ga ko‘ra, umumiylar va tarmoq sotsiologiyasi (makrosotsiologiya va mikrosotsiologiya); tuzilish sohasiga ko‘ra, mahsus va tarmoq yo‘nalishlar sotsiologiyasiga bo‘linadi. Sotsiologiya fanining mazkur tarkibiy qismlari o‘zaro uzviy bog‘liqlikda bo‘lib, ayrim hollarda bir-birlariga qo‘silib ketadi, boshqa hollarda esa bir-birlarini inkor qiladi.

Sotsiologiya strukturasida bilim olish darajasiga ko‘ra fundamental va amaliy sotsiologiyaga ajratiladi.

**Fundamental sotsiologiya** o‘z doirasida o‘rganayotgan muammolarning ko‘lami kengligi bilan ajralib turadi. U sotsial olamning mavjudligi va tarqqiyoti uchun zarur bo‘lgan umumiylar sotsial qonun va qonuniyatlarni izlash asosida shakllangan.

Fundamental va amaliy sotsiologiya nazariy va empirik sotsiologik bilimlarni qabul qilish va jamiyatni tahlil qilish darajasi bilan bir – biridan farq qiladi.

**Amerikalik sotsiolog J.Terner** fundamental sotsiologiyaga nisbatan shunday fikr bildirgan: “nazariylashtirish orqali fan o‘zining uchta asosiy maqsadini amalga oshiradi: olamda shakllanayotgan voqealarning sabablarini o‘rganish natijasida ularni tasniflash orqali ularning istiqboldagi holatini bashorat qila bilish; bo‘lib o‘tgan voqealarning sabablarini aniqlash va tushuntirish orqali kelajakda bo‘ladigan voqealarni oldindan ko‘ra bilish; voqealarning nima uchun va qaytarzda bo‘lib o‘tishini intuitiv ravishda taklif qilish.

**P.Sorokinning fikricha**, fundamental sotsiologiya mavjud holat yuzasidan insonlarning o‘zaro harakatini o‘rganadi. U sotsial borliq borasidagi bilimlarni shakllantirish, sotsial rivojlanish jarayonlarini tushunish va tushuntirish, sotsiologiyaning konseptual apparatini ishlab chiqish kabi ilmiy-nazariy vazifalarni hal etadi. U “nima o‘rganilayapti?” va “qanday o‘rganiladi?” savollariga javob beradi. Fundamental sotsiologiya o‘z ichiga sotsiologiya fanining asosini ijodiy izlash bilan band bo‘lgan ko‘plab sotsial maktablar va

yo‘nalishlarni qamrab oladi. U sotsiologiyaning asosini tashkil etuvchi bilimlarni yaratishda uchta aspektga tayanadi.

**Ontologik aspekt** orqali sotsiologiya fanining ob'yektini, uning faoliyat ko‘rsatish shakllarini tahlil qilib o‘rganish davomida sotsial voqye’likning mohiyatini ochib beruvchi qonun va qonuniyatlarni yaratadi. Sotsial olamning **dinamik xarakteri**, doimiy o‘zgaruvchanligi va turli qatlamlardan tashkil topgani sotsiologiyada ikkinchi jahon urushidan so‘ng ontologiya muammosining ko‘tarilishiga sabab bo‘ldi. So‘nggi yillarda esa mazkur muammo yanada keng ko‘lamda o‘rganildi. Chunki mazkur davrda “pozitivistik” inqiroz jarayoni, ya’ni an’anaviy sotsiologik metodlarning, jumladan, statistik ma'lumotlarga tayangan sotsiologiyaning kutilgan ilmiy natijalarni bermagani olimlar tomonidan yangi yo‘llarni va yondashuvlarni qidirishga sabab bo‘ldi. Natijada sotsiologiya fani doirasida bilishning shakl va metodlarini qayta ko‘rib chiqish ehtiyoji paydo bo‘ldi. Shu bilan birga sotsiologiya ob'yektining mohiyati, bilishning darajalari va mezonlarini qayta ko‘rib chiqish talabi paydo bo‘ldi. Ontologik muammo masalarini sotsiologiyadagi barcha yo‘nalish vakillari o‘z qarashlaridan kelib chiqqan holda hal qilishga intilgan. Ular orasida ekzistensial, fenomenologik va realistik maktab vakillarining ontologik izlanishlari e’tiborga loyiq. Fundamental sotsiologiya fanning nazariy asoslarini ishlab chiqish barobarida bilishning umumsotsiologik fundamental tamoyillarini ham keng ma’noda ishlab chiqadi. Shuning uchun sotsiologik bilishning mohiyati va vazifalari, bilimlarning ob'yekтивлиги, u yoki bu tamoyilni vaziyatdan kelib chiqqan holda qo‘llash kabilar fundamental sotsiologiyaning ob'yekti sanaladi.

Sotsiologiya fanida turli nazariya va konsepsiylar asosida “sistemalilik”, “funksional yondashuv”, “sababiyat”, “tushunuvchi” yo‘nalish kabi fundamental tamoyillar ishlab chiqildi.

Sotsiologiya yildan – yilga rivojlanib, mukammallashib bormoqda. Uning doirasida turli sotsial muammolar zamon va makon o‘zgarishi sharoitida o‘rganib kelinmoqda. Garchi insoniyat jamiyati

yildan – yilga o‘zgarib, taraqqiy etayotgan bo‘lsada, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy vaziyat kundan-kunga o‘zining o‘ziga xos xususiyatlarini namoyon qilayotgan bo‘lsada, fundamental sotsiologiya o‘z ichiga olgan asosiy qonun va qonuniyatlar, umumiy tamoyillar (sotsiologyaning oby'ekti va predmeti, sotsial reallikning mohiyati, uning rivojlanish qonunlari, sotsial olamda inson o‘rni, shaxs ongi va tafakkuri kabilalar) o‘z qiymatini yo‘qotmagan. Ular sotsiologiya faning rivoji va faoliyatida asosiy bazani tashkil etadi.

**Fudamental sotsiologyaning maqsadi** – sotsial olamning to‘liq tasvirini yaratish, mazkur sotsial olamning taraqqiyot manbai va shakllarini aniqlash.

**Fundamental nazariyalar o‘zining shakllanishini boshlagan davrda tabiiy fanlar, jumladan, biologiya va fizika yutuqlaridan keng foydalangan.** XIX asrning ikkinchi yarmidagi yo‘nalishlar – pozitivizm, naturalizm va psixologizm **sotsial hayotning** doimiy harakatlantiruvchi mexanizmini kashf etish, sotsiologiyada empirik metodni yaratish uchun o‘z kuchlarini birlashtirdilar. Buning natijasida ular tabiiy fanlarning tushunchalarini, umumilmiy metod va yo‘nalishlardan foydalanadilar. Ammo XX asrning boshlariga kelib sotsiologiya tabiiy fanlar tizimidan ajralib chiqa boshlaydi.

Pozitivizmning o‘rniga kelgan struktur-funksionalizm yo‘nalishi sotsiologyaning empirik ko‘rinishda shakllanishida katta hissa qo‘shdi. Ammo empirizm fundamental nazariya ahamiyatini va mazkur nazariyaning o‘zini inkor qila boshladi. Natijada sotsiologyaning nazariy va amaliy bilim qismlari o‘zining yaxlitligini yo‘qota boshladi. Mazkur holat XX asrning ikkinchi yarmiga qadar davom etib, jamiyatdagi sotsial muammolarni o‘rganish faqatgina empirik metodlar vositasida tugal amalga oshirilmasligi, bashorat qilish paytida nazariy bazaning muhim ekanligining namoyon bo‘lishi sotsiologiyadagi nazariy va amaliy bilimlarning integratsiyalashuviga olib keldi. Fanda metodologik tadqiqotlarning ahamiyati ortib bordi. Sotsiologlar orasida nrazariy bilimlarni boyitish maqsadida falsafaga yuzlanish holati sotsiologiyada ekzestensial va fenomenologik yo‘nalishlarni paydo

qildi. Ular sotsiologiyaning metanazariyasini, ya'ni asosini yaratishga harakat qilishgan. Hozirgi kunda mazkur yo'nalishdagi harakatlar kuchaymoqda.

Shunday qilib, **fundamental sotsiologiya** – bu nazariya, u fanning strukturasi, mazmuni, kategoriya va tushunchalari, metodlarini o'rGANADIGAN umumsotsiologik muammoni tadqiq qiladi. Shuning uchun fundamental sotsiologiya tadqiqotlarining roli beqiyos, bajaruvchi funksiyalari esa xilma-xil. Uning quyidagi funksiyalarini alohida ko'rsatish mumkin: dunyoqarash, metodologik, integratsiyalashtiruvchi, evristik va h.k.

Fundamental sotsiologiya **dunyoqarash funksiyasi** orqali bevosita borliq va ong, insonning mohiyati kabi dolzarb muammolarning yechimini topishga harakat qiladi. Chunki bu muammolar sotsiologiyaning ob'yekti va predmeti mohiyatini ochib beradi. Bu muammolarni hal etish barobarida sotsiologiya falsafa bilan uzviy aloqada ish olib borib, sotsial olam haqida ilmiy tasavvur yaratiladi.

Umumsotsiologik nazariya negizida sotsiologiyaning umumiyligi metodologiyasi ishlab chiqiladi.

**Integratsiyalashtiruvchi funksiya** fundamental sotsiologiya nazariyasini boshqa fanlar bilan bog'laydi. Mazkur yaxlit yondashuv natijasida yangi sotsial muammolarni hal qilish, ijtimoy hayotning xali yaxshi o'rGANilmagan tomonlarini chuqur ilmiy tahlil qilishga imkon yaratadi.

**Amaliy sotsiologiya** fundamental sotsiologiyadan o'zining strukturasi, mazmuni, maqsadi va metodlari bilan farqlanadi. U nazariy va amaliy tadqiqotlarning natijalarini qanday qilib tahlil qilish, qanday uslub va vositalar orqali ularni tushuntirish yo'llarini ishlab chiqadi.

Amaliy sotsiologiya jamiyat hayotida bevosita sodir bo'layotgan dolzarb sotsial muammolarni tadqiq etuvchi metodlar, metodologiyalar va metodikalarni o'z ichiga oladi va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan bo'ladi. U XX asr boshlarida empirik tadqiqotlar asosida shakllandi. Bu davrda empirik tadqiqotlar sotsial amaliyotga olib

chiqadigan vosita hisoblangan. Ammo amaliy sotsiologiyani bu yo'sinda tushunish u qadar to'g'ri emas. Empirik tadqiqotlar jonli faoliyatning bevosita shakllanishini o'rgansada, u o'zgartiruvchanlik faoliyati emas.

Amaliy sotsiologiya tizimida ham nazariy, ham empirik bilimlar mavjud bo'lib, ular ijtimoiy hayotning turli sohalari faoliyatini takomillashtirish maqsadida amaliy tadqiqotlarning natijalari asosida amaliy tavsiyanomalar ishlab chiqadi. Boshqaruv tizimining elementi sifatida amaliy tadqiqotlar fanning ijtimoiy funksiyalarini bajarib, uning natija va yutuqlarini amaliy faoliyatga aylantiradi. O'zining amaliy yo'nalishiga qarab ayrim hollarda amaliy tadqiqotlar ilmiy tadqiqotlar bilan qarama-qarshilikka boradi.

Mashhur sotsiolog olim **M.Veber** fanda ilmiylik va foydalilik bir-biri bilan ziddiyatga kirishmasligi uchun tadqiqotchi olimlar haqiqatni ochishga intilishi zarur, ya'ni ilmiy bilimlardan to'g'ri foydalanish uchun jamiyatdagi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy elementlarning tizimi mavjud bo'lishi lozim.

Amaliy sotsiologiya "nima uchun o'r ganilayapti?", degan savolga javob beradi. M.Veber tomonidan amaliy sotsiologiyaning vazifalari aniq ko'rsatib berilgan. Uning fikricha, amaliy sotsiologiya quyidagi holatlarni aniq ochib, ko'rsatib berishi kerak:

- Amaliyot uchun zarur bo'lgan vositalarni;
- Amalga oshirilgan harakatlarning aniq salbiy oqibatlarini;
- Tahlil natijasida o'r ganilayotgan hodisa yuzasidan uning bir necha xil rivojlanish variantini ko'rsatib, ularga mos ravishda takliflar ishlab chiqish.

**P.Sorokin** amaliy tadqiqotlarni amaliy meditsina faoliyatiga qiyoslagan. Uning fikricha, sotsiologiyaning mazkur qismida "sotsial kasalliklarni yengish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni ko'rsatuvchi yo'llar" ishlab chiqiladi. Olim ko'rsatkichlar, statistik ma'lumotlar, anketa javoblari va so'rov natijalari amaliy hamda empirik sotsiologiyaning vositalari bo'lib, ular asosidagina o'r ganilayotgan muammo borasida fikr bildirish noto'g'ri, deb hisoblaydi. Tadqiqot

tugal bo‘lishi uchun nazariy asosga ega bo‘lishi lozim. Shu o‘rinda fundamental va amaliy sotsiologiyaning o‘zaro aloqadorligi va ko‘magi sotsiologiya fanining rivojlanish istiqbolini belgilaydi.

Shunday qilib amaliy sotsiologiya nafaqat tayyor bilimlarni ishlataladi, balki yangi nazariy, metodologik bilimlarni shakllantiradi. Amaliy sotsiologiya fundamental sotsiologiyaning amaliy samaradorligi masalalarini hal qilish, yangi muammolarni o‘rtaga qo‘yish orqali fundamental tadqiqotlarning rivojiga turki beradi. **Amaliy sotsiologiya doirasida nazariy va metodologik muammolar bilan birgalikda, protsedura va metodik muammolar o‘rganiladi.** Bugungi kunda metodologiya va metodika muammolari orasida koneptualizatsiya, formalizatsiya va operatsionalizatsiya masalalari dolzarb sanaladi. Bu muammolar sotsial qurilish va sotsial muhandislikning muammolarini hal etishda muhim o‘rin tutadi.

**Sotsial muhandislik** amaliy tadqiqotlarning negizida shaklangan faoliyatning bir turi. U sotsial strukturani (iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ma’naviy) ma'lum maqsadga yo‘naltirish yoki tubdan o‘zgartirish vositasida eng samarador holatga keltirishni nazarda tutadi. Amaliy sotsiologiyaning sotsial muhandislikdan tashqari sotsial texnologiya qismi ham mavjud. U maqsadga erishishni ta'minlaydigan metodlar va vositalarning yig‘indisidan iborat.

Amaliy sotsiologiyaning taraqqiyotini belgilab beruvchi asosiy omil **jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy holat**. Chunki amaliy sotsiologiyaning muammolarini aniqlab, ularni o‘rganish va hal etish yo‘llarini ishlab chiqish uchun buyurtmani zamon va makon belgilab beradi. Turli mamlakatlarda turli tarixiy davrlarda ijtimoiy-siyosiy holatning xusuiyatidan kelib chiqqan holda har xil muammolarni o‘rganish ehtiyojini shakllantiradi. Ilk bor ishlab chiqarishni tashkil etish, shaxsning ijtimoiylashuvi, deviant xulq-atvor, urbanizatsiya va jamiyatni barqarorlashtirish muammolarini yechish uchun sotsial buyurtmalar (jamiyat talabi) kerak.

## **Nazariy va empirik tadqiqotlar**

Sotsiologiyada sotsiologik tadqiqotlar shartli ravishda nazariy va amaliy turlarga ajratiladi. Chunki ular o'rtasida qat'iy chegarani o'tkazish mushkul. Zero har qanday fundamental sotsiologiya nazariyidir, empirik tadqiqotlar esa nazariya bilan jipslashgan holda amalga oshiriladi. Ammo ular o'rtasida farq mavjud.

Sotsiologiyada nazariy tadqiqotlar natijasida nazariya<sup>3</sup>ning turli darajasini ajratib ko'rsatish mumkin: umumsotsiologik nazariyalar, mahsus nazariyalar, xususiy nazariyalar.

**Umumsotsiologik** nazariyalar jamiyatni yaxlit qamrab oladigan muammolarni hal etadi. Masalan, jamiyatning rivojlanish davrlari va strukturasi, uning faoliyat qonunlari va hk.

Maxsus nazariyalar sotsiologiya ob'yektingimuhim tomonlarini o'rghanadi. Sotsial struktura nazariyasi, institular nazariyasi sotsiologiyada maxsus sohalar sifatida shakllandi. **Maxsus nazariyalar** mavhum tushunchalardan foydalanadilar, ammo ular ko'pincha faktlarga asoslanadilar

**Xususiy nazariyalar** ko'proq empirik tadqiqotlarga tayangan holda quyi darajadagi sotsial jarayonlarni o'rghanadi. Misol uchun referent guruhlar nazariyasi, kichik guruhlar nazariyasi va hk. Bu nazariyalar inson fe'l atvorining mustahkam mexanizmlarining har xil sharoit va holatlardagi ko'rinishini aniqlashga harakat qiladi.

**Empirik tadqiqotlar.** Dastlabki empirik tadqiqotlar XVII asrdayoq o'tkazilgan bo'lsada, XX asrning birinchi yarmida AQShda ommalashdi. **Empirik tadqiqotlar deyilganida, bilimlarni tajriba orqali olish tushuniladi.** Empirik sotsiologik tadqiqotlarning ob'yekti – ijtimoiy hayotning mikrojaaryonlari, insonlarning harakatlari, tafakkur tarzi, fikri va munosabatlari. Ularning asosiy maqsadi sotsial guruhlar, individlar, tashkilotlar muammolarini, ya'ni jonli sotsial muammolarni bevosita o'rghanishdan iborat.

Empirik tadqiqotlarni sotsiologiyaning muhim qismi sifatida empirizm konsepsiysi bilan solishtirish mumkin emas, chunki empirizm konsepsiya sifatida nazariy bilimlarni butkul inkor qiladi.

Hissiy idrokning bevositaligi empirizm konsepsiyasida fanning asosini tashkiil etadi.

**Empirik tadqiqotlarning ob'yekti** mikrojarayonlar, predmeti esa individlar, sotsial guruhlar, sotsial tashkilotlar, mehnat faoliyatining sermahsulligi, shaxs xususiyatlari va hk. Ularning vazifasi kuzatish, eksperiment, hujjatlarni o'rganish va so'rov metodlari orqali sotsial jarayonlar borasida faktlar va ma'lumotlar yig'ishdan iborat. Empirik tadqiqotlar natijalarini ham amaliy, ham nazariy maqsadlarda ishlatish mumkin.

Tarixiy rivojlanishga nazar tashlasak, empirik tadqiqotlarni o'tkazish chog'ida ko'plab metodologik xarakterga ega bo'lgan muammolar: sotsial faktning mohiyati, nazariy bilimning empirik ma'lumotlar bilan o'zaro munosabatlari, so'rov, kuzatish va ma'lumotlarni qayta ishslash jarayonida sub'ektiv omilning roli kabilar paydo bo'ldi.

**Empirik tadqiqot usullari amaliy sotsiologiya doirasida shakllanib, mukammallahdi. Bular: so'rov, kuzatish, hujjatlarni tahlil qilish va eksperimet usullari.** Amaliy sotsiologiya doirasida qaysi metod qay tarzda va qay vaziyatda qo'llanilishi kerakligi, metodlarning yutuq va kamchiliklari o'rganib, ishlab chiqilgan. Misol uchun eng keng tarqalgan so'rov metodi insonlarning ichki dunyosini, sub'ektiv fikrini o'ragnishga yo'naltirilgan.

Amaliy sotsiologyaning oldida bugungi kunda sotsiologik tadqiqotlar davomida olinayotgan empirik axborotlarning haqqoniyligini va ob'yektivligini ta'minlashga hizmat qiluvchi optimal tamoyillarni ishlab chiqish muammosi dolzarbligicha qolmoqda.

Amaliy sotsiologiya tarkibiga empirik metodlar bilan bir qatorda metodologiya, ma'lumotlar tizimi va empirik ma'lumotlarni qayta ishslash tizimi kiradi. Shuning uchun odatda empirik tadqiqotlar turli xil mutaxassislar tmomnidan ham olib borilishi mumkin.

Empirik tadqiqotlar asosan statistika ma'lumotlarga tayangan holda amalga oshiriladi. Rivojlangan mamlakatlarda axborot ta'minoti empirik tadqiqotning muhim manbasi hisoblanadi. Mazkur

tadqiqotlarni amalga oshirishda texnikaning rivojlanganlik darajasi muhim ahamiyatga ega. Chunki empirik ma'lumotlar qayta ishlanishi zarur. So'rov, kuzatish, eksperiment metodlari vositasida empirik tadqiqotlar o'tkazilganida ma'lum ma'noda moddiy va texnik vositalar talab qilinadi. Ushuning uchun empirik tadqiqotlar anchagini qimmat tadbir sanaladi.

### **Sotsiologiyada maxsus va tarmoq yo'nalishlar**

Sotsiologiya fanning tarixiy rivojlanishi davomida unda maxsus va tarmoq yo'nalishlar paydo bo'ldi.

Sotsiologiyada bugungi kunda maxsus yo'nalishlar qatoriga kiruvchi ayrim nazariyalar sotsiologiya asoschilari tomonidan ishlab chiqilgan bo'lsada, maxsus yo'nalishlar XX asrning birinchi yarmida neopozitivizm asosida shakllandi va keyinchalik bir qancha nazariy yo'nalishlar tufayli rivojlandi.

Sotsiologiya hodisalarini yaxlit ijtimoiy struktura elementi sifatida qabul qiladi. Jamiyat taraqqiyotiga taalluqli bo'lgan sotsial institutlar, boshqaruv shakllari, sotsial munorsabatlar va sotsial harakatlar, guruh xarakteri va tafakkuri kabi masalalarni chuqurroq o'rghanish ehtiyoji oqibatida sotsiologiyada maxsus yo'nalishlar paydo bo'ldi. Ularning qatoriga bugungi kunda institutsional sotsiologiya, shaxs sotsiologiyasi, sotsial harakat va sotsial munosabatlar sotsiologiyasi, taraqqiyot sotsiologiyasi, o'zaro harakat sotsiologiyasi, sotsial struktura sotsiologiyasi.

O'z navbatida yuqoridagi masalalarni o'rghanish davomida sotsiologiya boshqa fanlarning yutuqlariga tayanishi kerak. Misol uchun siyosiy sotsiologiya va siyosatshunoslik.

Maxsus yo'nalishlardan tashqari sotsiologiyada tarmoq yo'nalishlari mavjud. **Tarmoq** yo'nalishlarning eng rivojlanganlari qatoriga **sanoat sotsiologiyasi, deviant xulq-atvor sotsiologiyasi va jamoatchilik fikri sotsiologiyasi kabilar kiradi**. Bu yo'nalishlar **XIX** asr oxiri va **XX** asr boshlarida vujudga kelgan.

Tarmoq sotsiologiyasi amaliy tadqiqotlar uchun asos hisoblanadi. Ular ijtimoiy hayotning turli tomonlarini tadqiq qilish orqali xususiy va

maxsus nazariyalarning rivojiga yordam beradi, fundamental sotsiologiya rivojiga ta'sir ko'rsatadi. Mazkur yo'nalishlar asosida ayrboshlash nazariyasi, referent guruh nazariyasi, yetakchilik nazariyasi kabilar yaratildi. Tarmoq yo'nalishlarining shakllanishi natijasida fundamental sotsiologiya oldiga jamiyatning yaxlit strukturasida turli xil ijtimoiy tizimlarning roli va ularning o'zaro harakat turlari, taraqqiyoti asoslari kabi muammolarni qo'ydi.

Tarmoq sotsiologiyasining maqsadi ijtimoiy strukturadagi moddiylik va ma'naviylik holati, mehnatning sermahsulligini oshirish tamoyillari, ishlab chiqarish va oilaviy munosabatlar kabilarning o'zaro faoliyat ko'rsatishi hamda rivojlanish qonuniyatlarini yaratishdan iborat.

### **3. Makrosotsiologiya, o'rta darajadagi sotsiologiya va mikrosotsiologiya**

Sotsiologiya fani jamiyat istiqboli xususida sotsial utopiyaga asoslangan nazariyaga suyanmasdan, balki jamiyat taraqqiyotining bugungi ijtimoiy-iqtisodiy holatini atroflicha o'rganish asosida yaqin kelajakda bu taraqqiyot tarkibi va mazmunidagi tadrijiy o'zgarishlar manzarasini ilmiy asoslab beradi.

**Ogyust Kontning** fikricha, sotsiologiya ijtimoiy hayot jarayonlarini uch bosqichda o'rganadi: aniq-empirik, xususiy (maxsus), umumiy. Shunga muvoffiq bugungi kunda ham sotsiologiya empirik, maxsus va umumsotsiologik tadqiqot jarayonlarini o'z ichiga oladi.

- Umumsotsiologik nazariyalarni bevosita tadqiq etishga mo'ljallangan yo'nalish - makrosotsiologiya.
- Maxsus (xususiy) sotsiologik nazariyalar asosiga quriluvchi tadqiqot yo'nalishi – o'rta darajadagi sotsiologiya.
- Bevosita empirik sotsiologik tadqiqotlar bilan shug'ullanuvchi mikrosotsiologiya.

Makrosotsiologiya jamiyatni yaxlit tixzim sifatida tushunishga ko'maklashuvchi xulq-atvor modellariga e'tibor qaratadi. Mazkur modellar yoki strukturalar deyilganida, oila, ta'lim va din kabi ijtimoiy institutlarni tushunishimiz mumkin. Inosn tug'ilishidan boshlab

jamiyatdagi mazkur sotsial strukturalarning tarkibida bo‘ladi va sotsial institutlarning ta’sirini sezadi. Makrosotsiologiyaning asosiy vazifasi jamiyatdagi turli elementlarning o‘zaro munosabatlarini va mazkur munosabatlarning o‘zgarish tendensiyalarini tadqiq etishdir. Makrosotsiologik darajada tadqiqotlarini olib boruvchi olimlar, ikki raqobatdosh nazariyalar: funksionalizm va konflikt nazariyasidan biriga asoslanib o‘z sotsiologik bilimlarini shakllantiradi. Funksionalizm nazariyasining tarafдорлари sifatida Gerbert Spenser, Emil Dyurkgeym, Talkott Parsons, Robert Mertonni ko‘rsatish mumkin. Konflikt nazariyasi esa Karl Marks, Ralf Darendorf kabi olimlar tomonidan rivojlantirilgan, qo‘llangan.

Sotsiologiya strukturasining tarixiy rivojlanishiga nazar tashlasak, avvalboshdan makro va mikrosotsiologiya o‘rtasida aniq chegara bo‘lmagan.

**P.Lazarfeld** mikrosotsiologik tadqiqot deganda, “zamonaviy sharoitda shaxsning bevosita hulq-atvorini miqdoriy metodlar va sifatiy protseduralarning keng qo‘llanilishi asosida o‘rganuvchi tadqiqotlar”ni tushungan. Makrosotsiologik tadqiqotlar esa “shunday umumiylar qonunlarni ochib berishga qaratilganki, ular ijtimoiy rivojlanishning o‘tmish va kelajakdagi trendensiyalarini belgilab beradi”.

**R.Merton** mikrosotsiologik muammolar sifatida “kichik guruahlarni o‘rganish davomida ochib beriladigan muammolar”ni, makrosotsiologik muammolar deyilganida esa “sotsial mobillik, formal tashkilotlarning qiyosiy tadqiq etish va sotsial institularning o‘zaro bir-biriga bog‘liqligi muammolari”ni ko‘rstan. Barcha olimlar uchun bu ikki bilim sohasini bir-biridan ajratuvchi shart sifatida mikrosotsiologik darajada empirik tadqiqotlarning o‘tkazilishi, makrosotsiologik darajada esa umumiylar nazariya sohasiga tegishli tadqiqotlarning o‘tkazilishi namoyon bo‘ldi.

**O.Kont tomonidan sotsiologiyaga asos solingan davrdan boshlab XX asrning 20 yillariga qadar sotsiologiyada makrosotsiologik tadqiqotlar ustuvor bo‘lgan.** Bu davrda yaratilgan barcha sotsiologik bilim umumnazariy bilimlardan iborat

bo‘lgan. **Mikrosotsiologik yo‘nalishning shakllanishi tahminan XX asrning 30yillaridan boshlangan.** Bu shartli ravishda mazkur asrning 20-30 yillarida AQShda boshlangan ijtimoiy jarayonlar bilan bog‘liq edi. Iqtisodiy inqiroz, buyuk depressiya, yirik shaharlarda gettoning paydo bo‘lishi, ko‘p sonli sotsial anomaliyalarning paydo bo‘lishi (alkogolizm, tilamchilik, jinoyatchilik) kabilar mikrosotsiologik tadqiqotlar, ya’ni empirik tadqiqotlarning rivojiga sabab bo‘ldi. Mikrosotsiologiyaning paydo bo‘lishidan so‘ng sotsiologlarning aksariyati jamiyatda kuzatilayotgan sotsial muammolarni o‘rganish davomida ularni makro darajadagi bilimlar, ya’ni umumiy nazariyalar nuqtai nazaridan birgalikda o‘rganmay qo‘ydi. O‘tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar asosan mikro darajada amalga oshirilib, pragmatik yo‘nalishda, ya’ni tor doiradagi aniq sotsial muammoni yechishga qaratilgan bo‘lgan.

Ammo makrosotsiologiya ham avvalgi shijoati bilan bo‘lmasada o‘zining rivojlanishida davom etgan. P.Sorokin va T. Parsonsning ijod namunalari bunga misol bo‘ladi.

**XX asrning 60 yillari so‘ngida strukturaviy – funksionalizmning makro va mikro darajadagi sotsiologik bilimlarni bir yaxlit tizimga birlashtira olmaganligi ularning qat’iy ravishda bir-biridan ajralishiga olib keldi.** Fanda yuzaga kelgan mazkur holat butun dunyo olimlarining makro va mikrosotsiologiyaning integratsiyasi masalasida izlanishlar olib borishga rag‘batlantirdi.

R.Mertonning mazkur yo‘nalishda olib borgan izlanishlari taqsinga sazovor. U o‘zining ustozlaridan (P.Sorokin, T.Parsons) farqli ravishda Evropa nazariy sotsiologiyasining AQShda tarqalishiga o‘z hissasini qo‘shgan. Uning fikricha, **Evropaning nazariy sotsiologiyasi va AQShning amaliy tadqiqotlari birlashishi sotsiologiyaning mukammallashuviga olib keladi.** U nazariya va amaliyotning integratsiyasi tarafdori bo‘lgan. Shu maqsadda **Merton “o‘rta daraja nazariyasi”**ni yaratgan. Olimning “o‘rta daraja nazariyasi” kundalik hayotdagi sotsial muammolarni tadqiq etish davomida yuzaga keluvchi kichik ishchi gipotezalar bilan umumsotsiologik nazariyalar o‘rtasidagi

oraliq bo‘g‘inni tashkil etishi kerak bo‘lgan. Shunday qilib, **Merton** “**o‘rta darajadagi sotsiologiya**”ni yaratdi hamda makro va mikrosotsiologiyani o‘zaro uzviy bog‘ladi.

Bugungi kunda maxsus sotsiologik nazariyalar yoki o‘rta darajadagi nazariyalar amaliy tadqiqotlar asosida shakllantirilib, umumsotsiologik nazariyalarni to‘ldirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birgalikda reallik bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan empirik sotsiologiyani rivojlantirishga o‘z hissasini qo‘shmoqda.

**Mikrosotsiologiya insonlarning kundalik hayotidagi o‘zaro sotsial muloqotlarini (interaksiya, o‘zaro munosabatlar) o‘rganadi.** Mazkur yo‘nalish tarafdorlari sotsial hodisalarning mazmunini mazkur hodisalarga insonlarning o‘zaro munosabatlarga kirishganidan so‘ng bergen ma’nolarini o‘rganib tushunish mumkin, deb hisoblashadi. Ularning asosiy e’tibori individlarning xulq-atvori, qilmishlari va motivlariga qaratilgan. Chunki insonlarning xulq-atvori, motiv va xattiharakatlari jamiyatdagi shaxslararo o‘zaro harakatga ta’sir ko‘rsatib, jamiyatning barqarorligi va unda kechuvchi o‘zgarishlarda o‘z aksini topadi.

Sotsiologiyada ayriboshlash nazariyasi (Dj.Xomans), etno-metodologiya nazariyasi (G.Garfinkel), belgili interaksionizm nazariyasi (G.Blyumer) namoyondalari mikrosotsiologik tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlashgan.

**A.M.Rumyansev va G.V.Osipov** 60yillar so‘ngida sotsiologiya strukturasini tahlil qilish natijasida sotsilogik bilimlarni umumsotsiologik nazariya; jamiyat sotsial strukturasi nazariyasi; turli sotsial tizimlar nazariyalari; empirik darajalarga ajratgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, XX asr 70 yillari oxiri – 80 yillar boshlaridan boshlab butun dunyo olimlari orasida sotsiologiyaning uch darajali strukturasi konsepsiysi (makro, mikro va o‘rta darajadagi sotsiologiya) keng tarqaldi.

Sotsiologiya fani strukturasi deyilganida, fandagi asosiy elementlarning o‘zaro aloqadorlikda joylashishi, munosabati va tartibi

tushuniladi. Sotsiologiya fani boshqa ijtimoiy fanlarga nisbatan kech yuzaga kelgani uchun bugungi kunda xali o‘zining tugal va mukammal strukturasiga ega emas.

Bugungi kunda sotsiologiyaning fanining strukturasi: bilim darajasiga ko‘ra, nazariy va empirik sotsiologiya; tashkil etuvchi sotsiologik bilim vazifalariga ko‘ra, fundamental va amaliy sotsiologiya; tadqiqot ob’yektiga ko‘ra, umumiy va tarmoq sotsiologiyasi (makrosotsiologiya va mikrosotsiologiya); tuzilish sohasiga ko‘ra, mahsus va tarmoq yo‘nalishlar sotsiologiyasiga bo‘linadi.

**Fundamental sotsiologiya** sotsial olamning mavjudligi va tarqqiyoti uchun zarur bo‘lgan umumiy sotsial qonun va qonuniyatlarni izlash asosida shakllangan. Fundamental sotsiologiyaning maqsadi – sotsial olamning to‘liq tasvirini yaratish, mazkur sotsial olamning taraqqiyot manbai va shakllarini aniqlash. Fundamental nazariyalar o‘zining shakllanishini boshlagan davrda tabiiy fanlar, jumladan, biologiya va fizika yutuqlaridan keng foydalangan. XIX asrning ikkinchi yarmidagi yo‘nalishlar – pozitivizm, naturalizm va psixologizm sotsial hayotning doimiy harakatlantiruvchi mexanizmini kashf etish, sotsiologiyada empirik metodni yaratish uchun o‘z kuchlarini birlashtirdilar. Buning natijasida ular tabiiy fanlarning tushunchalarini, umumilmiy metod va yo‘nalishlardan foydalanadilar. Ammo XX asrning boshlariga kelib sotsiologiya tabiiy fanlar tizimidan ajralib chiqa boshlaydi. Pozitivizmning o‘rniga kelgan struktur-funksionalizm yo‘nalishi sotsiologiyaning empirik ko‘rinishda shakllanishida katta hissa qo‘shdi.

**Amaliy sotsiologiya** nazariy va amaliy tadqiqotlarning natijalarini qanday qilib tahlil qilish, qanday uslub va vositalar orqali ularni tushuntirish yo‘llarini ishlab chiqadi. Amaliy sotsiologiya jamiyat hayotida bevosita sodir bo‘layotgan dolzarb sotsial muammolarni tadqiq etuvchi metodlar, metodologiyalar va metodikalarni o‘z ichiga oladi va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga

qaratilgan bo‘ladi. U XX asr boshlarida empirik tadqiqotlar asosida shakllandi.

Amaliy sotsiologiya tizimida ham nazariy, ham empirik bilimlar mavjud bo‘lib, ular ijtimoiy hayotning turli sohalari faoliyatini takomillashtirish maqsadida amaliy tadqiqotlarning natijalari asosida amaliy tavsiyanomalar ishlab chiqadi. U nafaqat tayyor bilimlarni ishlatadi, balki yangi nazariy, metodologik bilimlarni shakllantiradi. Amaliy sotsiologiya fundamental sotsiologiyaning amaliy samaradorligi masalalarini hal qilish, yangi muammolarni o‘rtaga qo‘yish orqali fundamental tadqiqotlarning rivojiga turki beradi.

Sotsiologiyada sotsiologik tadqiqotlar shartli ravishda nazariy va amaliy turlarga ajratiladi. Sotsiologiyada nazariy tadqiqotlar natijasida nazariyaning turli darajasini ajratib ko‘rsatish mumkin: umumsotsiologik nazariyalar, mahsus nazariyalar, xususiy nazariyalar.

Empirik tadqiqotlar deyilganida, bilimlarni tajriba orqali olish tushuniladi. Empirik sotsiologik tadqiqotlarning ob’yekti – ijtimoiy hayotning mikrojaaryonlari, insonlarning harakatlari, tafakkur tarzi, fikri va munosabatlari. Ularning asosiy maqsadi sotsial guruhlar, individlar, tashkilotlar muammolarini, ya’ni jonli sotsial muammolarni bevosita o‘rganishdan iborat.

### **Sotsiologiyada maxsus va tarmoq yo‘nalishlar**

Sotsiologiya faning tarixiy rivojlanishi davomida unda maxsus va tarmoq yo‘nalishlar paydo bo‘ldi.

Sotsiologiyada bugungi kunda maxsus yo‘nalishlar qatoriga kiruvchi ayrim nazariyalar sotsiologiya asoschilari tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lsada, maxsus yo‘nalishlar XX asrning birinchi yarmida neopozitivizm asosida shakllandi. Jamiyat taraqqiyotiga taalluqli bo‘lgan sotsial institutlar, boshqaruv shakllari, sotsial munorsabatlar va sotsial harakatlar, gruh xarakteri va tafakkuri kabi masalalarni chuqurroq o‘rganish ehtiyoji oqibatida sotsiologiyada maxsus yo‘nalishlar paydo bo‘ldi. Ularning qatoriga bugungi kunda institutsional sotsiologiya, shaxs sotsiologiyasi, sotsial harakat va

sotsial munosabatlar sotsiologiyasi, taraqqiyot sotsiologiyasi, o‘zaro harakat sotsiologiyasi, sotsial struktura sotsiologiyasi.

Tarmoq yo‘nalishlarning eng rivojlanganlari qatoriga sanoat sotsiologiyasi, deviant xulq-atvor sotsiologiyasi va jamoatchilik fikri sotsiologiyasi kabilar kiradi. Tarmoq sotsiologiyasi amaliy tadqiqotlar uchun asos hisoblanadi. Ular ijtimoiy hayotning turli tomonlarini tadqiq qilish orqali xususiy va maxsus nazariyalarning rivojiga yordam beradi, fundamental sotsiologiya rivojiga ta’sir ko‘rsatadi.

Bugungi kunda sotsiologiyada umumsotsiologik nazariyalarni bevosita tadqiq etishga mo‘ljallangan yo‘nalish – makrosotsiologiya; maxsus (xususiy) sotsiologik nazariyalar asosiga quriluvchi tadqiqot yo‘nalishi – o‘rta darajadagi sotsiologiya; byevosita empirik sotsiologik tadqiqotlar bilan shug‘ullanuvchi mikrosotsiologiya bo‘limlari mavjud.

### **Sotsiologiya ijtimoiy fanlar tizimida**

**Sotsiologiya** - bu jamiyat hayotini, davlat institutlari faoliyatini va odamlarning xulq-atvorini o‘rganadigan ko‘plab ijtimoiy fanlardan biridir. Sotsiologiya predmeti boshqa ijtimoiy fanlar sub'ektlaridan farq qilsa ham, ular bilan faol aloqada bo‘lib, ularga ta’sir qiladi va o‘zaro ta’sirni boshdan kechiradi. Ijtimoiy va gumanitar fanlar tizimida sotsiologiya deyarli barcha boshqa fanlar bilan o‘zaro aloqada bo‘lib, ularni o‘zlarining aniq izlanishlari natijalari bilan boyitadi va kerakli ma'lumotlar bilan almashadi. Ushbu jarayonda o‘zaro boyitish, ham sotsiologiyaning, ham tegishli fanlarning rivojlanishi sodir bo‘ladi.

Sotsiologiyaning ilmiy dunyoda paydo bo‘lishidan buyon sotsiologiyaning ijtimoiy falsafa bilan o‘zaro ta’siri haqida munozaralar boshlandi. Birinchi nuqtai nazarga ko‘ra, sotsiologiya ijtimoiy falsafa bilan aniqlanadi, ya’ni sotsiologiya jamiyat rivojlanishining eng keng tarqalgan qonunlari fani sifatida tushuniladi. Biroq, bu holda, aniq, ampirik mikro-sotsiologik tadqiqotlar holati aniq emas.

Ikkinci nuqtai nazarga ko‘ra, amaliy (o‘ziga xos ijtimoiy) tadqiqotlar mutlaqo yo‘q qilinadi. Bu erda 1960-1970-larda vaziyat murakkablashdi. bir qator mahalliy mualliflar ijtimoiy fanlarni boshqarish bo‘yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish vazifasi bo‘lgan

amaliy fan sifatida sotsiologiyaga qarashdi. Endi vaziyat o'zgarib bormoqda, ammo sotsiologiya funktsiyalarini falsafa va boshqa fanlarga xizmat ko'rsatishga kamaytirishga urinishlar mavjud.

Uchinchi nuqtai nazar (zamonaviy sotsiologiyani tavsiflash uchun eng munosib) bu fanlarning o'zaro ta'sirining yanada murakkab rasmini aks ettiradi: sotsiologiya umumiy ijtimoiy nazariyadan tashqari, o'ziga xos ijtimoiy tadqiqotlar va turli ijtimoiy jamoalarni o'rganishni ham o'z ichiga oladi.

Iqtisodiyot naqd resurslarni ishlab chiqarish, taqsimlash, almashish va iste'mol qilishni o'rganish bilan shug'ullanadi. Iqtisodchilar ijtimoiy olimlar, jumladan, iqtisodiy inqirozlar, ishsizlik, inflyatsiya, xalqaro savdo va boshqalar bilan bog'liq ko'plab muammolarni o'rganishmoqda. Sotsiologiya iqtisodiy fanlarni ishlab chiqarishda inson omilining rolini, uning mehnat unumdarligini oshirishga ta'siri, mahsulot sifati, zamonaviy ishlab chiqarishning texnik, texnologik, boshqaruv muammolarini hal qilishda yordam beradi.

Siyosiy o'rgimchak jamiyatda hokimiyatni sotib olish, undan foydalanish va tarqatish masalalarini o'rganadi. Siyosatshunoslar asosan hukumatlar, siyosiy partiyalar, umumiy manfaatlar bilan bog'liq guruhlar va saylovchilarning xulq-atvorining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadilar. Sotsiologlar, siyosatshunoslar bilan bir qatorda, ba'zan ularni oldinga surib, jamiyatdagi har qanday hodisalarga tezda javob berishga qodir: aerobatika tadqiqotlarini olib borishda ular qisqa vaqt ichida hukumat, parlament yoki prezidentning yangi qonunni qabul qilish yoki yangi vazirni tayinlash to'g'risidagi qaroriga jamoatchilik ongini javob berish haqidagi ma'lumot to'plashlari mumkin. bugungi kunda sotsiologiya va siyosatshunoslikning "siyosat sotsiologiyasi" yoki "siyosiy sotsiologiya" ning simbiozi yaratilgani tasodif emas.

Sotsiologiya ma'naviy madaniyatni shakllantirish, jamiyatda ijobjiy axloqiy muhitni yaratish, qadriyatlar, axloqiy me'yorlar, estetik ta'mni ishlab chiqish, shuningdek, odamlarni tarbiyalashda muhim rol o'yashi mumkin. Sotsiologiya, xususan, buyuk ma'naviy madaniyat,

diniy, axloqiy, estetik va moddiy qadriyatlarni saqlab qolish zarurligini eslatib, qayta tiklash va yana ma'naviy qadriyatlarni topish, uzoq o'tish davlat Rossiya jamiyatiga yordam berish uchun mo'ljallangan. Bu, ayniqsa, globallashuv jarayonlari dunyoning ko'plab xalqlarining madaniy va ijtimoiy identifikatsiyasini "bulg'ovchi" sharoitda muhimdir.

Oiladagi, jamoada, jamiyatdagi axloqiy holatdagi munosabatlar faqat muayyan ijtimoiy uslublar yordamida" volumetrik " baholanishi mumkin. Ma'naviy madaniyat sotsiologiya, madaniyat sotsiologiyasi, axloq sotsiologiyasi, san'at sotsiologiyasi, fan sotsiologiyasi, ta'lif sotsiologiyasi, din sotsiologiyasi va boshqalar kabi sotsiologiya va ijtimoiy fanlar bo'limlarini o'rganish markazida.

Huquqiy fanlar, shuningdek, huquqiy madaniyatni shakllantirish jarayonida yurisprudensiyani takomillashtirish, qonun hujjatlarini qo'llash, qonun normalariga rioya qilish uchun ijtimoiy ma'lumotlardan foydalanishning boy tajribasini jamladi. Sotsiologiyasiz huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati, demokratiyani rivojlantirish, qonun va tartibni mustahkamlash, nizolarni tartibga solish yo'llarini aniqlash qiyin. Xususan, sotsiologiyaning o'ziga xos usullari mavjud ob'ektiv axborot bilan birgalikda Rossiya qonuniyligini, davlatchilikni takomillashtirish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, ularning huquqiy madaniyati darajasini baholash imkonini beradi. Sotsiologiya va huquqiy fanlar birlashmasida qonun sotsiologiyasi kabi intizom paydo bo'ldi va jadal rivojlanmoqda.

Tarix fani ham sotsiologiya bilan o'zaro aloqada bo'lib, oxirgi tarixiy tadqiqot usulini boyitadi. Shu sababli, sotsiologlar ampirik tadqiqotlarda retrospektiv tahvilni keng qo'llashadi, bu esa o'z navbatida ijtimoiy ong evolyutsiyasi muammolarini o'rganishda tarixiy ilmga ta'sir qiladi, uni miqdoriy va boshqa usullar bilan qurollantiradi. Sotsiologiya va tarixning birlashmasida tarixiy sotsiologiya deb ataladigan intizom mavjud.

Sotsiologiya va tibbiyot fanlarining aholi salomatligini o'rganish sohasidagi yaqin hamkorligi ijtimoiy tibbiyot va sog'liqni saqlash sotsiologiyasi kabi fanlarning tug'ilishi va rivojlanishiga olib keldi.

Sotsiologiyada tobora ko'proq ulush ekoliya manfaatlari sohasi bilan kesishgan muammolar majmuasini egallaydi. Tabiatni muhofaza qilish, jamiyat va atrof-muhit o'rtasidagi munosabatlar masalalarini ijtimoiy tadqiqotlar yordamida tahlil qilinmasdan to'liq baholash mumkin emas. Ekoliya va sotsiologiya birlashmasida hozirgi vaqtida ijtimoiy ekoliya deb ataladigan intizom shakllanmoqda, uning mavzusi jamiyatning atrof-muhit bilan o'zaro ta'siri va tabiatni muhofaza qilish bilan bog'liq jamiyat ichidagi munosabatlar.

So'nggi paytlarda empirik tadqiqotlarning ijtimoiy ma'lumotlari kompyuter dasturlari (masalan, SPSS to'plami) yordamida ishlab chiqilgan bo'lib, ulardan foydalanish, ishlab chiqish va samarali foydalanish uchun matematika fanlari sohasidagi maxsus bilimlar faol qo'llanilmoqda. Zamonaviy sotsiologiyada, shuningdek, shaxslararo munosabatlarni o'lchash uchun maxsus empirik usullarni matematik ma'lumotlarni qayta ishlash algoritmlari bilan birlashtiradigan soyometriya usullari ham faol qo'llaniladi.

Shunday qilib, sotsiologiyada fanlararo aloqalar nafaqat ilm-fanni emas, balki butun zamonaviy hayotni rivojlantirish uchun rag'bat sifatida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ilmiy xodimlar turli fanlar orasidagi ko'priklarni qurish orqali eng katta muvaffaqiyatlarga erishishlari mumkin. Kelajakda talab yuqori sifatli ta'lim olishni istagan zamonaviy talabalar nafaqat "o'zlarining" xususiyatlarini, balki "begonalar" (va hatto majburiy bo'limgan) fanlarning so'nggi yutuqlarini ham hisobga olishlari kerak.

## **Nazorat savollari**

1. Platon, Aristotel va Abu Nasr Forobiy asarlarida ijtimoiy muammolar tahlili.

2. XIXasrda G‘arbiy Evropadaga ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyat.
3. Fransuz sotsial-utopistlari ta’limotlarini shakllanishi.
4. Sotsiologiyani mustaqil fan sifatida paydo bo‘lishining sotsial-iqtisodiy, g‘oyaviy-nazariy va amaliy zaminlari.
5. Germaniyada sotsiologik qarashlarning shakllanishi va rivojlanishi.
6. G. Spenser – mo‘mtoz ingliz sotsiologi.
7. Italiyada sotsiologik tafakkurning xususiyatlari.
8. AQSH da sotsiologik bilimning rivojlanishi.

### **TEST SAVOLLARI**

#### **1. Sotsiologiya strukturasida bilim olish darajasiga ko‘ra qanday qismlarga ajratiladi?**

- a) fundamental va amaliy sotsiologiya
- b) nazariy va amaliy
- v) mahsus va yo‘nalish
- g) nazariy va empiric

#### **2. Fudamental sotsiologiyaning maqsadi?**

- a) sotsial olamning to‘liq tasvirini yaratish, mazkur sotsial olamning taraqqiyot manbai va shakllarini aniqlash.
- b) nazariy va amaliy tadqiqotlarning natijalarini qanday qilib tahlil qilish, qanday uslub va vositalar orqali ularni tushuntirish yo‘llarini ishlab chiqish
- v) ko‘proq empirik tadqiqotlarga tayangan holda quyi darajadagi sotsial jarayonlarni o‘rganish
- g) Antik davrda jamiyat to‘g‘risidagi dastlabki to‘liq tasavvurlar ijtimoiy falsafa doirasida o‘rganish

#### **3. Fundamental sotsiologiyada XIX asrning ikkinchi yarmidan qanday yo‘nalishlar paydo bo‘ldi?**

- a) pozitivizm, naturalizm va psixologizm

- b) bixevoirizm, naturalizm, struktur-funksionalizm
- v) neobixevoirizm, psixologizm, pozitivizm
- g) pozitivizm, neobixevoirizm, psixologizm

**4. Sotsiologiya tabiiy fanlar tizimidan qachon butkul ajralib chiqa boshlaydi?**

- a) XX asrning boshlariga kelib
- b) XX asrning o‘rtalariga kelib
- v) XIX asrning so‘nggi choragidan
- g) XIX asrning o‘rtalaridan

**5. Pozitivizmning o‘rniga kelgan qaysi yo‘nalish sotsiologyaning empirik ko‘rinishda shakllanishida katta hissa qo‘shdi?**

- a) Bixevoirizm
- b) Konfliktologik paradigma
- v) Struktur funktsionalizm
- g) Psixologizm

**6. Amaliy tadqiqotlarni amaliy meditsina faoliyatiga qiyoslagan olim?**

- a) Sh.Monteske
- b) E. Dyurkgeym
- v) R. Merton
- g) P.Sorokin

**7. XX asrning ikkinchi yarmidan sotsiologlar orasida nazariy bilimlarni boyitish maqsadida falsafaga yuzlanish holati sodir bo‘lib, sotsiologiyada qanday yo‘nalishlar paydo bo‘ldi?**

- a) struktur-funksionalizm, sotsiologizm
- b) ekzestensial va fenomenologik yo‘nalishlar
- v) naturfalsa, nepozitivizm
- g) bixevoirizm, ekzestensial yo‘nalish

## **8. Amaliy sotsiologyaning tadqiqot doirasi?**

- a) sotsiologik metodlarni ishlab chiqadi
- b) sotsial muammolarni tadqiq etuvchi metodlar, metodologiyalar va metodikalarni o‘z ichiga oladi va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan bo‘ladi
- v) sotsiologik texnika va protseduralarni ishlab chiqadi va ularni qo‘llash yo‘llarini ko‘rsatadi, empirik metodlar vositasida sotsial hayotni o‘rganadi va tavsiyalar ishlab chiqadi
- g) fanda metodologik tadqiqotning ahamiyati ortib boradi va fenomenologik yo‘nalishlar paydo bo‘ladi

## **9. Amaliy sotsiologiya qachon paydo bo‘ldi?**

- a) XX asr boshlarida
- b) XIX asr oxirlarida
- v) XX asr o‘rtalarida
- g) XIX asr so‘ngida

## **10. Mashhur sotsiolog olim M.Veber fanda ilmiylik va foydalilik bir-biri bilan ziddiyatga kirishmasligi uchun tadqiqotchi olimlar tadqiqot davomida nimaga e'tibor berishi kerakligini ta'kidlangan?**

- a) ijtimoiy hayotning ma’lum tomonlarini tadqiq qilishga
- b) lozim nazariy va amaliy tadqiqotlarning natijalarini qanday qilib tahlil qilish, qanday uslub va vositalar orqali ularni tushuntirish yo‘llarini ishlab chiqish
- v) xolislik bilan yondashuv, ideal tiplarni yaratish lozim
- g) ilmiy bilimlardan to‘g‘ri foydalanish uchun jamiyatdagi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma’nnaviy elementlar tizimi mavjud bo‘lishi lozim

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Aliev B., Rafiqov G', Sultonov T., Mullajonova M., Rahmonov B. va boshqalar. *Sosiologiya. (O'quv qo'llanma)*. –Toshkent: TDYUI nashriyoti. 2006.
2. *Sosiologiya //o'quv qo'llanma*. Ubaydullaeva R.A., Bekmurodov M.B., Ota-Mirzaev O.B. va boshq. –Toshkent: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi, 2002.
3. *Sosiologiya. Ma'ruzalar kursi*. Aliqoriev N.S, Bekmurodov M.B., Ota - Mirzaev O.B., va boshq. – Toshkent, 2001
4. *Umumiy sosiologiya. (Aliqoriev N.S va Ubaydullaeva R.T tahriri ostida) – Toshkent: 1999.5. Гараджа. В.И. Социология религии. – М., 2005.*
6. Гиддингс Э. Социология. – Тошкент, 2002
7. Кравченко А.И. Социология. – М., 2006.
8. Современная западная социология. Словарь. – М.: Прогресс, 1990.
9. Социология религии. В.И.Гараджа. – М., 2005.
10. Социология //Учебное пособие. Под редакц. д.ф.н. Мухамедовой З.М., – Ташкент: Sanat, 2010

#### **Internet saytlari:**

1. http: www.lib.socio.msu.ru
2. http: www.socioline.ru
3. http://www.grandars.ru/
4. http: [www.sociologos.narod.ru](http://www.sociologos.narod.ru)

### **3- MAVZU. SHAXS SOTSIAL MUNOSABATLAR MAHSULI SIFATIDA. SOTSIALIZATSIYA JARAYONLARI**

#### **REJA:**

- 1. Shaxs tushunchasi. Shaxs tushunchasini turli fanlardagi talqini. Shaxs, inson, individ tushunchalari.**
- 2. Shaxs ijtimoiy munosabatlarning mahsuli sifatida. Shaxs to‘g‘risidagi asosiy sotsiologik nazariyalar**

### **3. Deviant xulq-atvor (og‘ma xulq-atvor) tushunchasi va uning turlari.**

**Tayanch so‘z va iboralar:** Shaxs, deviant xulq-atvor (og‘ma xulq-atvor), deviant xulq-atvor turlari: qonunni buzish, o‘z-o‘zini o‘ldirish, giyohvandlik, alkogolizm va boshqalar. sotsial me’yor, anomiya, sotsial nazorat, sanksiya, ichki va tashqi nazorat, o‘z- o‘zini nazorat qilish, jamoatchilik fikri.

Har qanday ijtimoiy tizimning bo‘laklari odamlar hisoblanadi. Odamlarning jamiyatga kirishligi turli birliklar orqali amalga oshiriladi. Har bir aniq shaxs sotsial guruqlar, sotsial institutlar, sotsial tashkilotlar jamiyatda qabul qilingan qoida va qadriyatlar tizimi, ya`ni madaniyat orqali gavdalananadi. Shunga muvofiq inson ko‘p sotsial tizimlarga tortilgan bo‘lib, ularning har biri unga shakllantiruvchi ta`sir ko’rsatadi. Shunday qilib, odam faqat sotsial tizimning bo‘lagi bo‘libgina qolmay, uning o‘zi ham murakkab tuzilmali tizimda aks etadi. Sotsiologiya shaxsni barcha xilma-xillikdagi majmuida emas, ya`ni tabiat mahsuli sifatida emas, balki ijtimoiy munosabatlar yig‘indisi, jamiyat mahsuli sifatida qarab chiqadi. «Jamiyatni isloh qilish va yangilash bo‘yicha ko‘p qirrali faoliyatimiz markazida inson, suveren O‘zbekistonning fuqarosi turadi. Islohotlarning mazmuni ayni har bir fuqaro o‘z qobiliyatini, o‘z iste`dodini namoyon etishiga, shaxs sifatida o‘zini ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lishiga qaratilgan».

Saxs sotsial o‘zaro ta’sir va munosabatlarning birlamchi omili bo‘lib hisoblanadi. Avvalo, «odam»,«inson», «individ», «shaxs» tushunchalarini bir-biridan farqlab olish kerak.

**1. Odam tushunchasi. Odam** – barcha jonzotlarning eng yuqori pog‘onasida turadigan mavjudot, ijtimoiy jarayonlar sub’yekti. Odam ijtimoiy mehnat asosida shakllangan tafakkur va nutqqa ega bo‘lishi, mehnat qurollarini yasash va atrof-muhitga faol ta’sir ko‘rsata olish bilan boshqa tirik mavjudodlardan farq qiladi. Boshqacha aytganda, odam - fikrlash, so‘zlash va mehnat qilish qobiliyatiga ega bo‘lgan, shu

tufayli boshqa hamma maxluqotdan ustun turuvchi jonli zot, kishi, inson. Odam Ato, Odam alayhissalom diniy afsonalarga ko‘ra yer yuzida birinchi yaratilgan erkak. Moma Havoning jufti. Odam – Yerdagi tirik organizmlar taraqqiyotining oliy bosqichi, ijtimoiy-tarixiy faoliyati va madaniyati sub’yekti. Odamni antropologiya fani o‘rganadi. Odam o‘zini-o‘zi anglab, insonga aylanishning quyidagi shakllari mavjud:

- 1) O‘z-o‘zini his etish, sezish.
- 2) Idrok etish (fahmlash).
- 3) Odam muayyan madaniyat va ijtimoiy guruhga o‘zi mansubligini anglashi.
- 4) Odam o‘z «men» iga ega bo‘lishi («men» uchun namuna kerak).

2. **«Inson» tushunchasi:** Inson – o‘zini anglagan, jamiyatda yashash qobiliyatiga ega bo‘lgan ulug‘ zotdir. Inson atamasi umumiyligi, hamma uchun xos bo‘lgan sifat va qobiliyatni izohlash uchun qo‘llaniladi. Bu tushuncha dunyoda mavjud bo‘lgan, tarixan o‘ziga xos shunday rivojlanayotgan birlikki, insoniyatni anglatib, u boshqa hamma moddiy tizimlardan farqli o‘laroq o‘ziga xos ijtimoiy faoliyat usullari bilan farq qiladi. Ushbu hayotiy faoliyat usuli tufayli inson tarixiy rivojlanishning hamma bosqichlarida, dunyoning barcha nuqtalarida o‘ziga o‘xshash bo‘lgan antologiyaga oid holatni saqlab qoladi.

Inson tushunchasi bioijtimoiy-ruxiy mavjudlikni ifodalaydigan tushuncha. Unda insonning zohiriy va botiniy sifatlari o‘z aksini topadi. Insonning umumiyligi sifatlari uning aniq holat va murakkab hayot sharoitlari namoyon bo‘ladigan xilma-xil kayfiyat, ruxiyat va munosabatlarning yig‘indisidir. Har bir insondagi alohida bu xususiyatlar betakror, o‘ziga xos holatlarda namoyon bo‘lishi mumkin. Inson ongi ijodiy xususiyatini aniqlash mezoni quyidagilar tashkil etadi:

- 1) Ongning muayyan ijtimoiy yo‘nalishi.
- 2) Voqelikni anglab olish darajasi.
- 3) Mustaqil fikrlash qobiliyatining holati.

4) Inson tabiatda noyob va universaldir (noyob qobiliyat sohibi, nozik did, ulug‘vorlik, yaratuvchi).

5) Inson ichki va tashqi olam mujassamlashgan zot (mehnat, muloqat, badiiy ijod, xulq-atvor).

6) Inson juda ko‘p qismlardan tashkil topgan yaxlit birlik (tabiiylik, ijtimoiylik, aqlilik, hissiy, axloqiylik mujassam).

7) Inson tarixiy mavjudot (kelajagini yaratadi, ertangi kunga tashvish bilan qaraydi, chunki inqirozlar, omadsizliklar, ta`qiblar mavjud).

8) Inson mas’uliyat hissidan qochib qutilmaydi (u gumanistik pozitsiya va individuallikni uyg‘unlashtirish orqali shunday vaziyatdan chiqadi).

Demak, insoniyat o‘ziga xos moddiy voqelik sifatida mavjud bo‘ladi. Ammo, insoniyat o‘z holicha mustaqil mavjud bo‘lmaydi.

Aniq insonlar yashaydilar va harakat qiladilar. Insoniyat alohida vakillarining mavjud bo‘lishi «**individ**» tushunchasi bilan ifodalanadi.

3) **Individ** (lot. yagona, bo‘linmaC) - bu insoniyat zotining yakka vakili, insoniyatning hamma sotsial va ruxiy jihatlarini idrokiy irodasi, ehtiyojlari, manfaatlari va hokazolarning sohibi hisoblanadi. Boshqacha aytganda, alohida insonning o‘ziga xos tabiiy-biologik va ijtimoiy ehtiyojlari, manfaatlari, aqli, irodasi va hokazolar yig‘indisi ekanligi nazarda tutilib, «**individ**» tushunchasi qo‘llaniladi. Individ «mohir odam» turiga mansub yaxlitlikni o‘zida gavdalantirgan alohida insondir. «**Individ**» tushunchasi bu vaziyatda «aniq inson» sifatida foydalaniladi.

«**Individ**» tushunchasini ayrim olimlar insonning tarixi ibtidoiy jamoa tuzumi davriga to‘g‘ri kelishini bayon etgan. Ikkinci xil fikrga ko‘ra, **individ** sifatida inson o‘zining jismoniy mavjudligini ta`minlashni birinchi o‘ringa qo‘yadi. Masalaning bunday qo‘yilishida turli biologik omillar (yosh jihatlari, jinsiy mijozlarining o‘ziga xos tomonlari), shuningdek, inson hayotiy faoliyatining sotsial sharoitlaridagi tafovutlar belgilamaydi.

Har qanday inson individi o‘ziga xos salohiyati bilan dunyoga keladi. Hamma gap bu salohiyatni qay tarzda ro‘yobga chiqarishdan

iboratdir. Inson rivojlanishining individ bosqichi eng uzoq davom etadigan, izchillikni taqozo qiladigan davrdir. Bu bosqichda uning astasekin shaxsga aylanish jarayoni boshlanadi. Individning shaxsga aylanishida, boshqacha aytganda, insonning individ bosqichidan shaxs bosqichiga o‘tish jarayonida sotsiumning u yoki bu darajasida olingan jamoa a`zosi sifatida uning imkoniyatlari, ijtimoiy-ahamiyatli belgilari qat’iy tizim shaklida qaror topadi. Ya’ni fe’l-atvori shakllanadi.

**4. Individuallik tushunchasi. Individuallik** – «Individ» atamasidan yasalgan bo‘lib, insonning noyob xususiyatlarini ifodalaydigan tushuncha.

Insonni turli darajada: yakka tarzda va tarixiy rivojlanishining aniq-tarixiy o‘ziga xosligini aks ettirishda «individ» tushunchasi bilan bir qatorda «shaxs» tushunchasi ham qo‘llaniladi. «Shaxs» bir qator gumanitar fanlarning falsafa, ruxshunoslik, pedagogika va sotsiologiyani o‘rganish ob’yekti hisoblanadi.

**5. «Shaxs»** – odamning ijtimoiy xususiyatlarining yaxlit majmui bo‘lib, ijtimoiy taraqqiyot va individning faol xatti-harakati hamda muomalasi vositasida ijtimoiy munosabatlar tizimiga qo‘shilishining mahsuli hisoblanadi.

Falsafa shaxsni faoliyat sub’yekti, ong va ijodiyot sifatida tutgan o‘rni, nuqtai-nazaridan qarab chiqadi. Ruxshunoslik - shaxsni ruxiy jarayonlar, xususiyat, qobiliyat, iroda sifatlari va boshqa jihatlardan barqaror yaxlit holda o‘rganadi.

Sotsiologik yondashuv shaxsning sotsial-tipik jihatini ajratadi. Shaxs sotsiologik nazariyasining asosiy masalasi shaxsning shakllanish jarayoni va uning ehtiyojlarini qondirish, sotsial birlikda rivojlanishi va amal qilishi, jamiyat bilan shaxs aloqalari, shaxs va guruqlar, shaxsning sotsial fe’l-atvorini, tartibga solish qonuniyatlarini o‘rganish bilan chambarchas bog‘langan. Bu yerda, sotsiologiyada shaxsni o‘rganishga ayrim umumiy tamoyilar nuqtai-nazaridan yondashuv ifodalangan.

Sotsiologiya shaxsga oid ko‘pgina nazariyalarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, ular bir-birlaridan qat’iy metodologik ko‘rsatmalar orqali farq qiladilar. Insonning qaysi jihat shaxs tushunchasida nomoyon bo‘ladi?

Insonning ikki xil ehtiyoji mavjud: tabiiy va ijtimoiy. Tabiiy - bu barcha biologik ehtiyojlar. Ijtimoiy - mehnat faoliyati, ijtimoiy faollik, ma'naviyat va boshqalar. Shaxs bu insonning jismoniy tabiatini emas, balki uning ijtimoiy sifatidir. Shaxs ehtiyojlari uning manfaatlari orqali nomoyon bo'ladi. Manfaatlар esa uni maqsadli faoliyatga yo'llaydi. Kishilarning ijtimoiy munosabatlari ularning xulqlarida, eng avvalo, manfaatlар tarzida nomoyon bo'ladi. Bu esa o'z navbatida shaxs faoliyatining maqsadini, mazmunini va mohiyatini ifodalaydi. Manfaatlarning maqsadga aylanishi shaxs faoliyati motivining oliy darajasidir.

### **Shaxs ijtimoiy munosabatlarning mahsuli sifatida. Shaxs to‘g‘risidagi asosiy sotsiologik nazariyalar**

Sotsiologiya tarixida o‘zining metodologik qurilmasi jihatidan farq qiluvchi shaxs to‘g‘risidagi nazariyalarishlab chiqilgan2.

Karl Marks va F. Engels tomonidan asos solingan shaxs ijtimoiy faoliyat va munosabat sub'yekti va ob'yekti to‘g‘risidagi nazariyasi, Ch.Kuli, R.Darendorf, R.Milton, R.Mertonlarning shaxs roli nazariyasi va boshqa shu kabilar.

1. Shaxs ijtimoiy faoliyat, munosabat sub'yekti va ‘yekti to‘g‘risidagi marksistik nazariyada asosiy e'tibor shaxs va jamiyatning o'zaro munosabatiga qaratilgan. Marksistik sotsiologiyada shaxsning moddiy faoliyati jarayonida yuzaga keluvchi va ongingin muayyan xususiyatlarini aks ettiruvchi sub'yektiv jihatlari ko‘proq tadqiq qilingan.

2. Amerika sotsiologlari: T.Znanetskiy va Ch.Tomaslar asos solgan shaxs ijtimoiy xulqini o‘z-o‘zini boshqarishining dispozitsion nazariyasida shaxs hayotidagi dunyoqarashlik va qadriyatli - normativ omillarga ko‘proq ahamiyat beriladi. Bu nazariyaga ko‘ra, shaxs ongi uning hayotiy o‘rnini belgilaydi. Shaxs dunyoqarashi, ijtimoiy qadriyati, g‘oyaviy va ma'naviy normalar uning faoliyatini belgilovchi asosiy omillardir. Ko‘rinib turibdiki, shaxs to‘g‘risidagi bu nazariyada shaxsning sotsiologik va ijtimoiy psixologik xususiyatlari bir qilib olingan.

3. Sotsiologiyada Amerikalik D.J.Mid va G.R.Mintonlar tomonidan asos solingan shaxsning roli nazariyasi ham diqqatga sazovordir. Keyinchalik bu nazariya G.Merton va T.Parsons, G‘arbiy Germaniya sotsiologi G.Darendorflar tomonidan yanada rivojlantirilgan. Bu nazariya ikki asosiy tushunchalar: shaxsning ijtimoiy mavqeyi va ijtimoiy roli orqali tushuntiriladi. Unga ko‘ra, har bir inson muayyan ijtimoiy tizimda bir necha o‘rinni egallashi mumkin. Har bir egallangan o‘rin ijtimoiy mavqe deb ataladi. Shaxs o‘z hayoti davomida bir necha ijtimoiy mavqega ega bo‘lishi mumkin. Binobarin, bu o‘rinlardan qaysi biridir uning asosiy ijtimoiy mavqeyini belgilaydi. Bosh mavqe shaxsning egallab turgan mansabi (masalan, direktor, rais, professor kabi) bilan belgilanadi. Shaxs ijtimoiy mavqeyi uning tashqi xulqida, tashqi qiyofasida, yurish-turishida va hatto muomalasida ham o‘z ifodasini topadi.

Shaxsning ijtimoiy rol nazariyasida belgilangan va erishilgan ijtimoiy mavqelari o‘zaro farqlanadi. Belgilangan mavqe – bu shaxs xizmati va xatti-harakatidan qat’iy nazar, jamiyat tomonidan belgilab qo‘yiladi. Shaxsning etnik kelib chiqishi, tug‘ilgan joyi, oilasi, jinsi va boshqalar shular jumlasidandir.

Erishilgan mavqe deganda, shaxsning o‘z xatti-harakati, qobiliyati bilan erishgan mavqeyi tushuniladi. Masalan, yozuvchi, firma boshlig‘i, direktor, professor va shu kabilar. Bulardan tashqari, yana shaxsning tabiiy va kasbiy lavozim mavqeい ham o‘rganiladi. Shaxsning erkak va ayol, bolalik, o‘smirlilik, yoshlik, o‘rta yosh, keksalik davrlarini bildirsa, kasbiy lavozim mavqeи shaxsning ijtimoiy - iqtisodiy va ishlab chiqarish - texnik holati (muhandis, temirchi, haydovchi va boshqalar)ni bildiradi.

Ijtimoiy mavqe shaxsning muayyan ijtimoiy tizimida egallagan konkret o‘rnini ifodalaydi. Ijtimoiy rol esa shaxsning ijtimoiy tizimida egallagan mavqe bilan bajaradigan faoliyati majmuini ifodalaydi. Ma`muriy-buyruqbozlikka asoslangan tizim buyruqboz shaxslar tipini shakllantirib qo‘yadi. Bunday shaxs tipiga «yuqori»ga ko‘r-ko‘rona, so‘zsiz bo‘ysunish, dunyoqarashi tor, bir tomonlama, o‘z mansabini

saqlab qolish va yuqori mansablarga erishish yo‘lida har qanday qabihlikdan qaytmaydigan, munofiqlik kabi xususiyatlarga ega bo‘lganlar kiritildi. Bunday kishilarning shaxs xususiyatlari ular bajaradigan vazifasiga o‘z o‘rnini bo’shatib beradi. Shaxs tipining bunday ko’rinishi hozirda ham ba’zan jamiyat hayotini yangi sharoitda erkin rivojlanishiga to’sqinlik qilmoqda.

**«Shaxs»** - odamning ijtimoiy xususiyatlarining yaxlit majmui bo‘lib, ijtimoiy taraqqiyot va individning faol xatti-harakati hamda muomalasi vositasida ijtimoiy munosabatlar tizimiga qo‘shilishining maxsuli hisoblanadi. Shaxs tushunchasi ijtimoiy munosabatlar va ongli faoliyat sub’yekti sifatidagi individni ham ifodalanadi.

«Shaxs» tushunchasida uning atrof-muhitga munosabatini bildiradigan ijtimoiy-ruxiy sifatlarning ichki muayyan yaxlitligi ifodalanadi. Shaxs bo‘lish degani, birinchi navbatda, o‘zining ichki qadriyatardunyosini shakllantirishni, tevarak-atrofga, eng avvalo, ijtimoiy hodisalarни anglash, uning mohiyatini tushunish orqali qadriyatiy-tanqidiy munosabatga ega bo‘lishni bildiradi.

Insonning shaxs sifatidagi qadriyati uning o‘zligidan, fiziologik mavjudligidan ajratib olingan tarzda mavjud emas. Shu bilan birga, aytish mumkinki, istagan inson shaxs bo‘lolmaydi, lekin har qanday shaxs- insondir. U tashqi muhitga faqat biologik moslashuv natijasi sifatida shakllana olmaydi. Balki sotsiumda, aniqrog‘i, uning turli darajalarida qaror topadi va unga ma’lum darajada bog‘liq bo‘ladi. Ya’ni shaxsning kelib chiqishi va uning imkoniyatlarining ro’yobga chiqishi kishilik jamiyati tomonidan ta`minlanadi. Demak, shaxsda insonning jamiyatda tutgan o‘rni va bajaradigan vazifalari ifodalanadi. Shunga ko‘ra, sotsiumning turli darajalarini o‘rganadigan barcha fanlar doirasiga shaxs masalasi ham kiradi. Xususan, inson tanasi tuzilishi va faoliyatini o‘rganadigan biologiya va boshqa fanlardan farqli o‘laroq, jamiyatshunoslik, ruxshunoslik, ta`limshunoslik kabi qator fanlar shaxs masalasini o‘rganishga ehtiyoj sezadi.

Muayyan ma`noda shaxs yaxlit sotsiumning ajralmas bo`lagidir. Unda dastavval kishilar o`rtasidagi mavjud munosabatlar jamuljam bo`ladi. Lekin bu o`inda shaxs bilan sotsium aynanligi to`g`risida gapirishga asos yo`q. Ibtidoiy tuzumning sodda jamoachiligi inqirozga yuz tutishi tufayli kishilar bir-biridan «ichki» dunyosi va manfaatlari bilan o`zaro farqlanib, shaxs bosqichiga ko`tarilib boradilar. Buning natijasida esa shaxs bilan sotsium manfaatlari nisbati masalasi kun tartibiga qo`yiladi.

Shaxsning sotsium bilan munosabatlari o`ziga xos jihatlarga ega. Shaxsning o`zligi, dastavval, uning muayyan darajadagi mustaqilligidir. U shu holati bilan sotsium hayotining barcha sohalarida ishtirok etadi. Albatta, gap bu borada ko`proqyetuk shaxs to`g`risida boradi. Lekin yangi tug`ilgan insonningshaxs bo`lish imkoniyati faqat sotsiumda vujudga keladi. Demak, shaxsni sotsiumning turli darajalaridagi tashkiliy sifatlari voyaga etkazadi.

Inson bilan sotsium aloqadorligi jihatidan uning shaxs sifatlari shakllanishini aniqlab olish muhim. Shaxs shakllanishiga qaysi omillar ta`sir ko`rsatadi va konkret shaxs boshqa oddiy insondan nimasi bilan farqlanadi,- degan savol qo`yilsa, unga javob berish xiyla qiyin. Negaki, shaxs shakllanishida juda ko`p omillar ishtirok etadi. Ularning ichida ijtimoiy muhit katta mavqega ega.

Individ sifatida namoyon bo`lgan mavjudot, ijtimoiy muhit ta`sirida shaxs sifatida shakllanadi. Individning jamiyat bilan o`zaro munosabati uni ma'lum bir sotsial jamoa vakiliga aylantiruvchi turli guruhlardir. Bu munosabatni amalga oshirishda muloqat asosiy rol o`ynaydi, sotsial guruhlar orqali amalga oshadi. Chunki muloqat shaxsning asosiy ijtimoiy munosabatlar sistemasida nazariy va amaliy bilimlarni egallashida uning shu sistemadagi o`zining maqomiga ega bo`lishida, faoliyat jarayonida va kundalik turmush tarzida asos sifatida xizmat qiladi, Shu bilan birga shaxs muloqot orqali o`zining shaxs sifatida shakllanganligini va boshqa shaxslarning ijtimoiy muhitining haqiqiy sub`yekti yoki uning ijrochisi sifatida shakllangani to`g`risida tushunchaga ega bo`lishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli

shaxs jamiyatdagi barcha munosabatlarning shakllanishi va sotsial dinamik harakterini belgilashda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Demak, shaxs kishining hayot kechirish sharoitlarida sotsial guruhlar, sotsial institutlar, sotsial tashkilotlar ta’sirida faoliyatjarayonida shakllanadi. Shaxsning shakllanishida guruhlar va jamoalar yetakchi rol o‘ynaydi.

Umuman, shaxs – o‘ziga xos intellektual, emotsiional, irodaviy-shaxsiy belgi va sifatlarga ega bo‘lgan sub’yekt. Bu belgi va sifatlar muayyan sotsial-iqtisodiy formatsiyaning mahsulidir. Shaxs o‘tmish tarixiytajribani, o‘tmishdagi madaniy boyliklarni o‘zida to‘playdi. «Shaxs – barcha ijtimoiy munosabatlarning yig‘indisidir». Jamiyatdan tashqaridagi shaxs norealdir.

Shaxsning shakllanishida:

- 1) Shaxsning rivojlanishdavriva uning natijasi.
- 2) Shaxsni maqsadga yo‘naltirilgan tarzda tarbiyalanishi katta ahamiyat kasb etadi.

Shaxsning rivojlanishini uning faoliyatida o‘zgarib turuvchi ehtiyojlari bilan ularni qondirishning imkoniyatlari o‘rtasidagi ziddiyatlarda aniqlanadi.

Hozirgi sharoitda insonga ijtimoiy muhit ko‘rsatayogan ta’sirini quyidagicha tasnif etish mumkin:

Birinchidan, har bir insonga bo‘lgan global ta’sir, ya’ni radio, televideniya, matbuot, kino va hokazolar orqali axborot almashinuvi.

Ikkinchidan, mamalakat va mintaqqa miqyosidagi ijtimoiy ta’sir insonni mavjud shart-sharoitlar doirasida inson dunyoga kelishidan to hayotdan ko‘z yumgunigacha o‘z orbitasida tutib turadi.

Uchinchidan, insonni avval boshidan o‘rab turgan mikromuhit – oila, mакtab, ko‘cha va hokazolar o‘z ta’siriga oladi.

Ana shu nuqtai nazardan aytish mumkinki, inson shaxsning shakllanishidagi birinchi bosqich – **oiladir**. Oila bioijtimoiy sifatga ega bo‘lgan tuzilma sifatida jamiyatning barqaror va dastlabki bo‘g‘inidir. Oilada go‘dak ilk bor ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni anglamagan holda o‘zlashtiradi va ular zamirida faolligini asta-sekinlik bilan oshirib

boradi. Maktab, turli ijitmoiy guruhlar (masalan, tengdoshlar, sport uyushmalari va boshqalar) bilan muloqat davomida madaniy ideallik qaror topa borib, shaxs shakllanishining muhim manbaiga aylanadi.

Hozirgi davr sotsiologiyasida «inson» deganda Yerda yashayotgan mavjudot turlaridan biri tushuniladi. Inson alohida olingan tur (Homo sapienC) vakilini ifodolovchi umumiyligi tushunchadir. Inson, umuman inson zotining yig'iq obrazni sifatida bioijtimoiy mavjudot bo'lib, u bir vaqtning o'zida ham tabiatga, ham ijtimoiy hayotga mansubdir. Gegel ta'biri bilan aytganda, «insonning o'zida bevosita mavjudligi qandaydir tabiiydir, bu uning o'z tushunchasiga binoan tashqidir; faqat o'ziga tegishli tana va ruhini takomillashtirish vositasida, mohiyatan o'zini-o'zi anglashi sababli ham u o'zini erkin tutadi, u o'ziga o'zi egalik qilishga kirishadi va ham o'ziga, ham boshqalarga nisbatan bo'lgan munosabatlarda o'ziga o'zi egalik qiladi. Bu o'ziga o'zi egalik qilishga kirishish, shuningdek, bu holatni voqelik deb bilish shuni ko'rsatadiki, inson o'z tushunchasiga binoan (imkoniyat, qobiliyat, moyillik), endi o'zini o'ziniki deb bilishi, o'zini xuddi predmetdek hisoblashi – oddiy o'zini o'zi anglashdan farq qilib, u haqiqatda narsa (buyuk) shaklida namoyon bo'la olish qobiliyatiga erishadi».

Mustaqil O'zbekistonning buyuk kelajagini barpo qiladigan, unga munosib shaxs bo'la oladigan kishini tarbiya qilib yetishtirish hozirgi davrning asosiy vazifasi ekanligi shaxs sotsiologiyasida o'r ganiladi. Gegel

Hozirgi davrda jamiyatimizda shaxsning quyidagi belgilarimavjud:

1. Birinchi gruppa shaxs belgisi: jamiyatga, siyosatga munosabati bilan bog'liq (Vatanga sadoqat, o'lka boyligi xo'jayini ekanligini anglash, optimizm, maqsadsariintilish, intizomlilik, uyushqoqlilik, aktiv hayotiy pozitsiya va boshqa).

2. Ikkinci gruppa shaxs belgisi: uning o'z faoliyatiga bo'lgan munosabati bilan harakterlanadi (Mehnat qilish, so'z bilan ish birligi,

bilim olishga intilish, madaniyatga intilish, mehnatda tashabbuskorligi va boshqa).

3. Uchinchi grupper shaxs belgisi: uning boshqa kishilarga bo‘lgan munosabati bilan bog‘liq (Kishilarni hurmat qilish, qardoshlik, to‘g‘rilik, axloqiylik).

### **Shaxsning asosiy xislatlari, bular:**

- onglilik;
- ma’naviy boylik;
- ijtimoiy munosabatlar;
- jamiyatga nisbatan nisbiy mustaqillik;
- javobgarlik.

### **Insonning ijtimoiy sifatlarini belgilovchi omillar:**

- 1) ijtimoiy maqsadi:
  - a) egallab turgan maqomi;
  - b) bajarayotan ijtimoiy roli;
- v) normalar va qadriyatlar:
  - madaniyat;
  - inson foydalanadigan belgilar tizimi;
  - bilimlar;
  - bilim va maxsus tayyorgarlik darajasi;
  - ijtimoiy-psixologik o‘ziga xosliklar;
  - yechimni qabul qiladigan mustaqillik;
  - faollik.

Jamiyat va individning integratsiyalashuv jarayoni va ijtimoiy birliklarining turli tiplari ham mavjud bo‘lib, bular:

- 1) guruh;
- 2) ijtimoiy institutlar;
- 3) ijtimoiy tashkilotlar va boshqalardan iborat.

Shaxsning asosiy sotsial sifatlari konkret sotsial guruhlar, jamoalar faoliyati va munosabatidan tarkib topadi. Shu sababli shaxsning sotsial sifatlari 3 ta kichik tizimdan iboratdir:

1. Shaxsning individualligi.
2. Shaxslararo munosabatlari.

### 3. Munosabatlar sub`yekti.

1. Shaxsning individualligi undagi harakter, iroda, dunyoqarash, faoliyat jarayonidagi ba'zi bir xususiyatlar bilan belgilanadi. Undagi individual xususiyatlaruning amaliy faoliyatida namoyon bo'ladi.

2. Shaxsning shaxslararo munosabati, avvalo shu munosabatlar sistemasi elementlaridan biri ekanligini bildiradi. Shaxslararo munosabat shaxs rivojlanishining, uning komil inson sifatida tarkib topishining asosi sifatida xizmat qiladi, shu sababli shaxsning shaxslararo munosabatlar shaxsda insoniylik, poklik, rostgo'ylik, samimiylilik kabi xislatlarning shakllanishida va takomillashuvida alohida o'ringa ega.

3. Munosabatlar sub'yekti. Shaxsning ijtimoiy munosabatlar sub'yekti sifatida mavjud bo'lishi uning shu munosabatlarda sub'yekt sifatidagi maqomini belgilaydi.

Shaxs ma'lum sotsial xususiyatli hodisalarning oqibatigina emas, balki sababchisi hamdir. Har bir shaxsning sotsial sifatlari uning amaliy faoliyatining mazmun va harakterini belgilaydi. Aynan faoliyat jarayonida kishi atrofdagi muhitning o'ziga xos xususiyatlarini ishlab chiqadi. Sotsial xususiyatlar shaxsning ichki holat ta'sirida uning faoliyatida o'rab turgan voqelikka shaxsiy munosabat sifatida namoyon bo'ladi. Sotsial xususiyatlar bu ma'lum sotsial muhit sharoitlarida individlar orasidagi o'zaro ta'sirlar jarayonida yuzaga kelgan aloqalar tizimidir. Shaxsning sotsial xususiyati kishining faoliyati, xatti-harakatida, uning sotsial sifati shaklida ko'rindi. Shaxsning sotsial sifatlarini tashkil etuvchi elementlarga (shaxs sotsial maqsadi):

- o'z faoliyati jarayonida amal qiluvchi norma va qadriyatlar;
- foydalanadigan belgilar tizimi;
- o'z rolini bajarish va tashqi dunyoga nisbatan erkin harakat qilish uchun yordam beruvchi bilimlar majmuasi: bilim va qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi kiradi.

Shaxs sotsiologiyasida shaxs manfaati alohida o'ringa ega. Shaxs manfaati – bu individ faoliyatining u yoki bu ehtiyojini qondirish bilan bog'liq yo'nalganligidir. Manfaatlar asosida kishilarning ehtiyojlari

yotadi. Ular sotsial qonunlar talablarini ifodalaydi, buning natijasida manfaat ehtiyojini anglashda muhim rol o‘ynaydi. Manfaatning 4 turi mavjud:

1. **Munosabat manfaati**: - shaxs faoliyatida u yoki bu ob’yektdagi voqeja va hodisalarga nisbatan qiziquvchanligini anglatadi. Munosabat manfaati 2 ko‘rinishda kechadi:

a) asosiy munosabat manfaati – bu shaxsning hayotida maqsad va vazifasini, harakatlarini o‘z ichiga oladi;

b) yordamchi yoki ikkinchi darajali munosabat manfaatdir. Bu shaxs faoliyatining maqsad va vazifalaridan tashqari uning boshqa vogelikka qiziqishini bildiradi.

2. **Harakat manfaati**: – shaxsning u yoki bu faoliyatida qatnashishida ko‘rinadi. Aktiv yo passivligini bildiradi. Harakat manfaati: a) maqsadli va b) maqsadsiz bo‘lishi mumkin (boshlang‘ich faoliyati bilan cheklanib qolgan, tor doiradagi harakat).

3. **Tayanch manfati**: – shaxsning boshqa shaxslar, guruhlar bilan uzoq sotsial ta’sirlashuvida shakllangan va turli vaziyatlarda o‘z yo‘nalishinisaqlab qolgan manfaatdir. Shaxslararo va guruhlararo munosabatlarda shakllanadi.

4. **Yo‘nalish manfaati**: – bu yo‘nalish manfaatlar ichida juda murakkab bo‘lib, u shaxs manfaatlaridan birini tanlashi bilan bog‘liq. Demak, shaxsning tipi u yashaydigan jamiyatning ijtimoiy tuzilishiga bog‘liq. Shaxsning shakllanishini belgilovchi omillar quyidagilardan iborat:

- 1) Ijtimoiy siyosiy tizim.
- 2) Tarbiya va maorif tizimi.
- 3) Turmush.
- 4) Mehnat faoliyati.
- 5) Ijtimoiy faoliyat.
- 6) Oila va boshqalardir.

Shaxs shakllanishida uni o‘rab turgan muhit va u intiladigan madaniy-ijtimoiy ideallar hamda bajarilishi lozim bo‘lgan vazifalarning ham ahamiyati kattadir. Bunday hodisani fanda insonning

ijtimoiylashuvi yoki sotsializatsiya yo‘li bilan shaxsga o‘tishi, deb atash qabul qilingan. Buni izohlaydigan ko‘pgina qarashlar mavjud.

Shaxsning ijtimoiylashuvi deb, shaxsning jamiyatga, sotsial jamoalarning turli tiplariga madaniyat elementlari, sotsial norma va qadriyatlarni o‘zlashtirish orqali sodir bo‘ladigan jarayonga aytildi. Shaxsning (individning) sotsial tashkilot elementi bo‘lishi 2 muhim jihatga bog‘liq: 1) sotsial tashkilotning shaxsga ta`sir etishi bilan qobiliyatining shakllanishiga va 2) shaxsning boshqa odamlar ta`siriga berilishi bilan qibiliyatining shakllanishiga bog‘liq.

### **Shaxs ijtimoiylashuvning 2 fazasi mavjud:**

1. **Sotsial adaptatsiya (moslashish).** Bunda individning sotsial sharoitlarga, funktsiyalarga, sotsial normalarga, sotsial guruhlarga, tashkilot vainstitutlarga, ya’ni muhitga moslashishdir. Sotsial adaptatsiya jarayoni, asosan oilada boshlanadi va shakllanadi. Oiladagihar qanday munosabatlar shaxsning ijtimoiylashuvida o‘z aksini topadi. Shu boisdan individning shaxs sifatida shakllanishida oila asosiy rol o‘ynaydi.

2. Sotsial interiorizatsiya, ya’ni sotsial norma va qadriyatlarning individ ichki dunyosiga kirishish jarayonidir. Shaxs sotsial muhitga qorishib ketmaydi, balki unga mustaqil birlik sifatida kiradi. Ko‘pgina nazariyalarda shaxsning ijtimoiylashuvi, tashqi ta`sir ob’yekti sifatidagina qaraladi. Bu nazariyalarda asos qilib faqatgina ijtimoiylashuv yordamida sotsial o‘zgaradigan insonning tabiiy mohiyati olinadi; shaxsning aktivligi va unga beriladigan biologik xususiyatlar hisobga olinmaydi.

Ijtimoiylashuv shunga asoslanadiki, odam ijtimoiy faoliyati sifatida o‘zi ham ijtimoiy hayotining hamma sharoit va vaziyatlarini belgilovchi omildir. Shaxs sotsial ta`sirlanishning ob’yekti va sub’yektidir. Ijtimoiylashuv jarayonida belgilar tizimi muhim ahamiyatga ega. Belgilar yordamida jamiyat individlar faoliyatini boshqaradi. Individ sotsial faoliyat ko‘rsatish uchun sotsial jamoada qabul qilingan belgilar va ularni ishlatish usullarini o‘zlashtirgan bo‘lishi kerak.

Individ faoliyat qiluvchi mavjudotdir. U tashqi muhitga shunchaki javob bermaydi, balki amaliy faoliyat jarayonida ham insonsifatidagi o‘zining taraqqiyot va faoliyati qonuniyatlarni anglaydi va anglash asosida o‘zining sotsial faoliyatini belgilaydi. Shaxs tomonidan o‘z faoliyatini boshqarish faqat ob’yektiv va sub’yektiv qonuniyatatlarni bilishgina emas, balki shu qonuniyatatlarni, uning elementlarini, xususiyatlarini ham bilishni taqozo etadi.

Shaxslarning sotsial faoliyati va sotsial harakatining boshlang‘ich nuqtasi ma’lum ehtiyoj va manfaatlarni yuzaga keltiruvchi ob’yektiv hayot sharoitlaridir. Faoliyat turlari ko‘p, lekin eng muhimi ularning barchasi shaxsning moddiy va ma’naviy asosini tashkil qiluvchi, ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan, ehtiyojlar shaxsning tashqi muhitga ob’yektiv bog‘liqligini bildiradi. Shu sababli shaxsning amaliy faoliyat ehtiyojlarini qondirish shakli sifatida qaralishi ob’yektiv sharoitlarning in’ikosi va ularni qondirishning real imkoniyatlarini anglash sifatida qaralishi mumkin.

### **Ehtiyojlarning 2 ko‘rinishi mavjud: 1) tabiiy va 2) jamiyat tomonidan paydo qilingan ehtiyojlar.**

- 1) Tabiiy ehtiyojlar sifatida kishilarning kundalik ehtiyojlari: ovqat, kiyim, turar-joy va boshqalar tushuniladi.
- 2) Sotsial ehtiyojlar esa odamning mehnat qilish ehtiyoji, sotsial faolligi, ruhiy madaniyati, ya’ni nima ijtimoiy hayotmahsuliga bo‘lgan ehtiyojdir. Tabiiy ehtiyojlar asosiy bo‘lib, ularda sotsial ehtiyojlar paydo bo‘ladi, rivojlanadi va qoniqtiriladi.

Shaxsning ijtimoiylashuv davri quyidagilar asosida kechadi:

- 1) Bolalik:
  - agentlar va ijtimoiylashuv turlari.
- 2) Ota-onalik:
  - otalar va bolalar: ikki dunyo;
  - «otalar va bolalar» munosabatlarining mutanosibligi.
- 3) O‘sprinlik:
  - qadriyatlarning parallel tizimi.
- 4) Balog‘at yoshi:

- voyaga yetgan inson maqomining asosiy mezonlari;
- voyaga yetganlar - shaxs ijtimoiylashuvining faol payti.

### 5) Keksalik:

- ijtimoiylashuv ushbu davr maqomi va muammolari.

Ijtimoiy faoliyatva ijtimoiy fe'l-atvor mexanizmlari:

O‘z-o‘zini anglash: o‘z-o‘zini anglashda iqtisodiy, siyosiy, huquqiy axloqiy va madaniy muhitning ta’siri katta. O‘z-o‘zini anglash millatlar uchun siyosiy onglilikning oshishigina emas, shu millat bilan birga milliy mustaqillik va milliy ozodlik hamdir. O‘z-o‘zini anglash jahon tarixida ozodlik harakatlarining kuchayishiga, sotsializm va imperializmning yemirilishiga, parchalanishiga olib keldi. Portugaliya, Ispaniya, Gollandiya, Angliya, Fransiya kabi imperiya davlatlari o‘z mustamlakalaridan mahrum bo‘ldi. O‘zbek millatining o‘z-o‘zini anglashi moddiy kuch sifatida millat sha’ni, qadr-qimmati, obro‘-e’tibori, or-nomusi tiklanishiga olib keldi. O‘z-o ‘zini anglash millatning moddiy va ma’naviy manfaatlarini himoya qilishdir. Mustaqillik sharoitida o‘zbek xalqining o‘z-o‘zini anglashini rivojlantirish davlat siyosati darajasigacha ko‘tarildi.

**Sotsializatsiya** (Ijtimoiylashtirish) tushunchasi asosan sotsiologiya, ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy falsafada qo'llaniladi. Sotsializm nazariyasi va tadqiqotlari juda muhim tarixga ega. "Sotsializatsiya" kontseptsiyasining paydo bo'lishi sotsiologyaning ilm-fan sifatida paydo bo'lishi va insonni ijtimoiy shaxs sifatida tan olish bilan bog'liq edi. Sotsiologyaning asoschisi O. Kont jamiyatning ijtimoiy organizm ekanligini ta'kidladi. U rivojlanish va takomillashtirish, mustahkamlik, uyg'unlik, konsensusga ega. Ijtimoiy statikada konsensus muvozanat prinsipi sifatida mavjud bo'lib, ijtimoiy dinamikada hamkorlik uchun tabiiy sharoitda, hamjihatlikda namoyon bo'ladi. Kont ijtimoiy o'z-o'zidan, o'z-o'zidan paydo bo'lgan tabiatni ta'kidlaydi. Biroq, jamiyatning rivojlanishi haqida gap ketganda, oqilona va axloqiy nuqtai nazarlar hukmronlik qiladi va jamiyat barcha qismlari bir-biriga bog'langan va faqat birlikda tushunilishi mumkin bo'lgan organik butun bo'lib xizmat qiladi. Bu qismlarning oldindan

kelishilgan harakati emas, balki odamlarning barqaror o'zaro bog'liqligi – "konsensus" va hamjihatlik shakllanadigan son-sanoqsiz ta'sirlar. Jamiyat tuzilishini belgilaydigan printsiplarni o'rganish, uyg'unlik va tartibni ta'minlash O. Kont tomonidan ushbu tamoyillarni amalga oshiradigan ijtimoiy siyosat bilan uzviy bog'liqdir. U birinchi navbatda ijtimoiy institutlarni (oila, davlat, din) ijtimoiy vazifalari, ijtimoiy integratsiyadagi roli nuqtai nazaridan ko'rib chiqdi. O'zgarish va konsensusni uyg'unlashtirishga imkon beradigan elementlarning eng yaqin o'zaro bog'liqligi, ya'ni. kelishilgan harakat O. Kont, oila bilan tavsiflanadi. Bu "jamiyatning boshlanishi", ijtimoiy tuzumning haqiqiy elementi," haqiqiy ijtimoiy birlik","ijtimoiy hujayra". Oilada inson ijtimoiylashadi, insoniyatga muvaffaqiyatli xizmat qilish uchun zarur bo'lgan fazilatlarga ega bo'ladi, tabiiy bireysellikni rivojlantiradi, "boshqalar uchun yashashni"o'rganadi. Oilaviy hayot-jamoatchilikning "abadiy maktabi" va uning namunasi.

Ijtimoiy-antropologik muammolarni va sotsializmni talqin qilish uchun ijtimoiy yondashuvni antimetafizik talqin qilishning birinchi tashabbuskorlaridan biri K. Marks edi. Marksning insonning o'z-o'zini anglashi kontseptsiysi muhim ahamiyatga ega edi, unda shaxsning faoliyati, ya'ni uning insoniy fazilatlarini amalga oshirish jarayoni, shuningdek, jamiyatning harakatlantiruvchi kuchlari nazariyasi, ijtimoiy mavzu sifatida talqin qilingan; uning asosi dunyodagi o'zgarish va o'zgaruvchanlik zarurligi haqidagi tezisdir. Jamiyatning rivojlanishi va o'zgarishi bilan shaxs rivojlanadi va o'zgaradi. Bu ijtimoiy va tabiiy sharoitlar bilan faol muloqot jarayonida o'zgaradi. Inson hayoti va tarixining mohiyati, ma'nosi odamlarning madaniy va ijtimoiy ijodkorligi sharoitida shakllanadi. Insonning barcha ijtimoiy munosabatlarning tashuvchisi ekanligi haqidagi fikr, marksizm insonning sotsializmini hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi – insonning erkin, madaniy ijodkorligi uchun eng muhim shart sifatida. "Ishlab chiqarish kuchlari, kapital va ijtimoiy aloqa shakllarining yig'indisi – Marks va Engels yozgan-har bir inson va har bir avlod berilgan narsa deb topilsa, faylasuflarning "modda" shaklida

va "insonning mohiyati" shaklida tasavvur qilishning haqiqiy asosi bor. ular tanigan va ular bilan kurashgan...».

Marksizm tizimidagi inson, ijtimoiy hodisalarini tahlil qilish tarixni materialistik tushunish asosida amalga oshirildi. Ijtimoiy hayotning o'zi jamiyatning moddiy sharoitlari asosida hayot deb qaraldi. Shunday qilib, 1845 yilda K. Marks tomonidan shakllantirilgan insonning eng muhim xususiyati aniq bo'ladi: "... insonning mohiyati alohida shaxsga xos bo'lgan mavhum emas. Aslida, u barcha ijtimoiy munosabatlarning jamiyatni ".

Psixologiya insonning mohiyatiga, jamiyatga bo'lgan munosabatiga, rivojlanish qonunlarini va jamiyatning ishlashini tushunishga yangi nuqtai nazarni keltirdi. Ushbu yo'naliishga oid bir qator olimlar L. Ward, F. Giddings, G. Tard, Jeyms va Z. Freyd.

Freydning psixoanalizining markazida insonni shakllantirish va rivojlantirish muammosi, uning ijtimoiylashuvi, bu faqat bolalik davri bilan cheklangan. Z. Freydning shaxsiyat modeli bir – biri bilan muayyan bo'ysunishdagi uchta elementning kombinatsiyasi sifatida namoyon bo'ladi: "bu" – ongsiz istaklarning chuqur qatlami, psixologik "o'ziga xoslik"; "men"-ongli soha; "super – men" - shaxsiy vijdon, jamiyatning nuqtai nazarini ifodalovchi misol. Boshqa" aqliy kuchlar "bilan birgalikda ular" aqliy tizim" ni tashkil qiladi. Insonning motivatsion xatti-harakatining asosi behush istaklardir va behush Z. Freydning harakatlantiruvchi kuchi bilan "asosiy drayvlar" ning asosi sifatida jinsiy istakni qabul qildi. Z. Freyd, insonning turli madaniyatlarda o'zini namoyon qila oladigan universal bir jonzot ekanligi haqidagi taxmindan kelib chiqdi va inson tuzilishi u haqida barcha holatlar uchun mos bo'lgan va empirik tarzda tekshirilishi mumkin bo'lgan bunday qarorlarni ifodalashi mumkin. Z. tomonidan yaratilgan "inson tabiat modeli" asosida. Freud, nafaqat nevrozlar, ehtiyojlar, inson imkoniyatlarini tushunish va tushuntirish mumkin. Inson irratsional kuchlar tomonidan boshqariladi – libido, ego-uning aqli va irodasi ham kuchsiz emas. Aqlning kuchi, birinchi navbatda, uning irratsionalligini tushunishdir. Inson tabiatining modeli " nima? Z.

Freyd uchun inson ikki kuch ishlata digan yopiq tizimdir: jinsiy instinkt ikki bosqichga mos keladigan kimyoviy va fiziologik jarayonlarga asoslangan o'z-o'zini himoya qilish instinkti va jinsiy instinkt. Birinchi bosqichda norozilik va kuchlanish hissi paydo bo'ladi, ikkinchi kuchlanish hal qilinadi va sub'ektiv zavq hissi paydo bo'ladi.

Inson-shaxs, birinchi navbatda, alohida, balki ijtimoiy va inson asosiy manfaatlari-uning Ego va uning libido ehtiyojlarini optimal qondirish, lekin faqat odamlar bilan o'zaro mumkin, uning libido va o'z-o'zini saqlash instinkt odam jalb qondirish uchun – U odamlarga muhtoj. Bolaga onaga muhtoj, kattalar bir-biriga fiziologik jihatdan aniqlangan haydovchilarni qondirish vositasi sifatida muhtoj, lekin asosan, bir kishi boshqasiga g'amxo'rlik qilmaydi.

Z. Freydning jalb qilish nazariyasi inson modelini qurishda asosiy hissa bo'lib, garchi nazariya libido va noto'g'ri bo'lsa-da, lekin juda muhim naqsh aniqlangan bo'lsa-da, insoniy xatti-harakatlar har doim amalga oshirilmaydigan kuchlarning natijasi bo'lib, inson faoliyatining sababi bo'lib qoladi.

Sotsiologik yo'nali shning so'zsiz ahamiyatini tan olgan va sotsializmning insonning barcha fazilatlarini shakllantirishiga ishonadigan yo'nali sh vakili, sotsiologiyaning asoschilaridan biri bo'lgan E. Dyurkgeym. U tabiatning bir qismi sifatida jamiyatni tushunadi – tashqarida va dividend haqiqati va inson tabiatini uning uchun ikkiyuzlamachilikdir. Demak, insonning nomuvofiqligi, biologik tabiatning ziddiyatlari – jamiyat tomonidan yaratilgan ehtiroslar, qobiliyatlar va ijtimoiy tabiat. Jamiyatning me'yorlari va qadriyatlarini tarbiyalash, o'qitish, assimilyatsiya qilish jarayonida insonning ijtimoiy tabiatini yaratiladi.

Interaktivlikning bir qismi sifatida inson o'zining haqiqatini faol ravishda ishlab chiqadi. Uning xatti-harakati faqat unga ta'sir qiladigan ijtimoiy kuchlarning aksi emas, balki faqat subkulturalarning ta'siriga yoki jamiyatning ijtimoiy tuzilmalarining bosimiga munosabat emas, balki ijtimoiy tizim tomonidan qo'llanilganidan ko'ra, odamlar tomonidan yaratilgan qadriyatlar va ma'nolar bilan belgilanadi.

J. Piaj, L. Vigotskiy bilan bahs-munozarada, Piaj bolaning fikrlash va rivojlanishini noto'g'ri tarzda "ongning sof muloqotidan" olib chiqadi degan fikrni aniq ko'rsatdi. Bolaning ijtimoiy amaliyotini hisobga olmagan holda, haqiqatni egallahsga qaratilgan". Piaj rivojlanishning bir bosqichidan ikkinchisiga o'tishda hal qiluvchi rol o'ynaydigan tajriba va ijtimoiy o'zaro ta'sirlarga qarab, shaxsning bilim tuzilmalarini rivojlantirishga va keyinchalik qayta qurishga e'tibor beradi. Vigotskiy ichki aqliy jarayonlarni tushunish uchun da'vo qilgan bo'lsa, tanadan tashqariga chiqish va ijtimoiy munosabatlarda tushuntirish kerak. Ijtimoiy tajriba aqliy jarayonlarning mazmunini o'zgartiradi va faqat insonga xos bo'lgan ruhiy jarayonlarning yangi shakllarini yaratadi, ular hayvonlarda yo'q. Inson psixikasini rivojlantirish va ijtimoiylashtirishning asosiy mexanizmi-bu faoliyatning ijtimoiy-tarixiy shakllarini assimilyatsiya qilish mexanizmi. "Bolaning rivojlanishida asbob va belgi" monografiyasida L. S. Vigotskiy shunday deb yozadi: "bola o'z faoliyatini boshqa shaxs bilan bo'lishib, amaliy fikrlashni ijtimoiylashtirib, hamkorlik yo'liga kiradi. amaliy aqlning ijtimoiylashuvi nafaqat ob'ektlarni emas, balki ularning harakatlarini ham ijtimoiylashtirishga olib keladi". L.S. Vigotskiyning faoliyatini tushunish imo-ishora g'oyasi va tilning psixologik rolini aniq talqin qilish bilan bog'liq. U birinchi bo'lib psixologik tushunchani yaratgan, bu erda belgi( so'z), jamiyat (muloqot) va faoliyat nazariy birlikda paydo bo'lgan. L. Bilan. Vigotskiyning bolaning aqliy rivojlanishida ijtimoiy va jamoaviy faoliyatning roli eng muhimi. Har bir ruhiy funktsiya sahnada ikki marta paydo bo'ladi. Birinchidan, kollektiv-ijtimoiy faoliyat, keyin esa bolaning ichki fikrlash usuli sifatida. Bu ikki "chiqish" o'rtasida interiorizatsiya jarayoni yotadi, yoki L. S. Vigotskiy aytganidek, "aylanish" funktsiyaning ichki qismi va uning shaxsiyati "eng yuqori funktsiyalar bilan yaratilgan asosiy narsa" va bu funktsiyalarning o'zi "shaxsga ko'chirilgan – ijtimoiy tartibning ichki munosabatlari, shaxsning ijtimoiy tuzilishining asosi". Fikrlar L. Vigotskiy, uning ruhiy rivojlanishining madaniy va tarixiy kontseptsiyasi butun dunyoda eng

katta qiziqish uyg'otmoqda va juda mashhur. Ular ijtimoiy psixologiyaning asosini tashkil etdi va sotsializmning mohiyatini to'liq tushunish imkonini berdi.

Madaniyat tarixi shuni ko'rsatadiki, individuallik insonga xos bo'lgan narsa emas. Haqiqatan ham, agar siz individuallikni "super tizim" sifati deb tushunsangiz ham, shaxsiyat aloqa sohasi, turli manfaatlar, qadriyatlar va qoidalarni o'zaro bog'lash va muvofiqlashtirish va ijtimoiy tuzilmalarni rivojlantirishni nazarda tutadi. Individuallik jamoatchilik yoki ijtimoiy rivojlanish tomonlaridan biri sifatida shakllanayotganini ta'kidlash qonuniydir. Inson va jamiyatning ichki aloqasi shundan iboratki, uning yordamida ham o'ziga xoslik, ham intersubektiv qoidalari va aloqa va aloqa normalari shakllanadi. Shaxsni individuallashtirish jamiyatda ijtimoiylashuv jarayonida yuzaga keladi.

Sotsializmning inson mavjud bo'lgan va sodir bo'ladigan jamiyat turlarining shart-sharoitlari aniq. Jamiyat hayotning turli sohalarida inson hayotining umumiy yo'nalishini belgilaydi, ularni jamiyatning ustuvor qadriyatlariga, ijtimoiy me'yorlarga va umuman, ijtimoiymadaniy an'analarga yo'naltiradi. Jamiyatning turli turlarida jamiyatning turiga mos keladigan ijtimoiylashuv turi ustunlik qiladi, ya'ni. bolalarning ijtimoiylashuvi-qoidalari, xulq-atvor modellari, ushbu jamiyatning madaniyatiga qo'shilish, til-bu bir xillikka olib keladi. Shuning uchun, yapon boshqa yapon kabi o'zini tutadi va rus tili boshqa rus tiliga o'xshash tarzda javob beradi. Ular bir ildiz, ba'zi manbalar bilan birlashtirilgan.

Biroq, bundan tashqari, har bir jamiyatda jamiyatning ijtimoiylashuvining boshqa turlari ham mavjud bo'lib, u insonning ijtimoiylashadigan muhitining o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq. Ijtimoiylashuv jarayoni individualdir va inson hayoti davomida amalga oshiriladi va moslashuvdan iborat – sotsializm va interiorizatsiya tashqi tomoni – ichki tomon. Shunday qilib, shaxsning ijtimoiylashuvi jamiyatda sodir bo'ladi va bu muayyan ma'noda murakkab ziddiyatli jarayondir. Bir tomondan, inson doimo jamiyat ta'siri ostida, bu

ta'sirlarni interviyorizatsiya qiladi, boshqa tomondan, u faol va ularda muayyan o'zgarishlarni amalga oshiradi, ularga shaxsiy ma'no beradi. Jamiyat yoki to'g'ridan-to'g'ri, yoki birinchi navbatda asosiy guruhlar orqali, so'ngra ijtimoiy tajriba uzatuvchi va ijtimoiylashuv institutlari deb ataladigan turli ijtimoiy guruhlar va jamoalar orqali shaxsga ta'sir ko'rsatadi. Tug'ilishdan o'limgacha har bir kishi o'z shaxsini shakllantiradigan ko'plab guruhlarning bir qismidir. Odamlar tomonidan assimilyatsiya qilingan guruhlarda, ularning talablari, insonning bir yo'nalishda yoki boshqa yo'nalishda ijtimoiylashuvi mavjud.

Ijtimoiylashtirish institutlari ma'lum. Bolalik davrida-bu oilaboshlang'ich guruh, maktabgacha ta'lim muassasalari, maktab, keyinchalik universitet, mehnat jamoasi, siyosiy partiyalar va kasaba uyushmalari, cherkov va boshqalar ko'p mamlakatlarda sotsializm instituti sifatida ko'pincha birinchi navbatda oila bilan birga. Yuqorida bir necha bor oilaning bolasini — asosiy guruhni ijtimoiylashtirishda hal qiluvchi rol o'ynadi. Bolaning dastlabki ijtimoiylashuvida oilaning ahamiyati katta emas, lekin yana bir bor ta'kidlashni istardimki, hozirgi, o'tmish va kelajak o'rtaida uzlusizlik mavjud bo'lganda sotsializm ayniqsa samarali bo'lib, oila bu aloqani ta'minlashi kerak. Faqat oilada atmosfera yaratiladi, "har bir inson hamma uchun maqsad bo'lsa, ajralmas narsa bor". "Oila jamiyatning psixologik vositachisi", dedi E. Fromm. Bolalarni tarbiyalash amaliyoti har xil va bu xilma-xillik ota-onalarning yashash sharoitlari, ularning ta'lim, din va jamiyatda duch keladigan bosim turlari bilan bog'liq. Va, albatta, bu omillarni (farzandlarining ota-onalarini tarbiyalash usullarini) e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi, chunki biz bir avloddag'i ijtimoiy keskinlik keyingi o'zgarishlarga olib keladi. Zamonaviy G'arb mamlakatlarida va mamlakatimizda oila va oilaviy munosabatlarni o'zgartirish juda bezovta qiluvchi hodisa. Ko'plab to'liq bo'limgan oilalar va ota-onalar mavjud bo'lishlari kerak bo'lgan va tarbiya hamshira yoki maktabgacha ta'lim muassasalariga beriladi. Keyingi avlodda bu jarayon takrorlanadi va yanada murakkablashadi degan fikr bor. Bugungi kunda jamiyat,

davlat keyingi avlodni yo'qotmaslik uchun bu jarayonga aralashishi kerak.

Insonning g'ayritabiyy xatti-harakati rivojlanayotgan shaxsning yo'nalishini belgilaydigan erta sotsializmning (yoki ijjobiy yoki salbiy) tabiatiga bog'liq. Shaxsni ijtimoiylashtirish uchun turli funktsiyalarini bajaradigan mehnat jamoasi va ijtimoiy jamoalar kabi ijtimoiylashuv institutlari muhim ahamiyatga ega va ularning eng muhimi ijtimoiy tajribani etkazishdir. Biz ijtimoiy aloqalar va inson munosabatlari turli va juda qimmatli ekanini ta'kidladik. U etnos, millat, sinf a'zosi, siyosiy partiya va boshqalar bo'lishi mumkin. Ushbu jamoalarning insonga ta'siri ijjobiy bo'lishi mumkin, ammo salbiy bo'lishi mumkin. Jamiyatda shaxsning ijtimoiylashuvi jamiyat, urf-odatlar, retseptlar va hokazolarning madaniy va qiymat yo'nalishlarini o'zlashtirishda namoyon bo'ladi.jamoatchilik a'zosi bo'lib, inson katta guruh odamlar bilan bog'lanadi, qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy himoya, barqarorlikni his qiladi. Ammo bularning barchasi jamiyatning turiga, uning talablari va ko'rsatmalariga bog'liq bo'lib, ularning ba'zilari "yopiq" jamoa yoki hayotiy faoliyatni qat'iy tartibga soluvchi jamoa bo'lsa, shaxsga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Hozirgi vaqtida "siyosiy sotsializm" va "huquqiy ijtimoiylashuv" tushunchalari keng tarqalgan. Siyosiy sotsializm birinchi marta 1959 yilda maxsus nazariy tadqiqotlar mavzusiga aylandi. Mahalliy ilmfanda siyosiy sotsializm insonning siyosiy rivojlanishi insonning mafkuraviy va siyosiy qadriyatlari va normalarini faol assimilyatsiya qilish va ularni jamiyatning siyosiy tizimidagi pozitsiyalar va xatti-harakatlarni belgilaydigan ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning ongli tizimiga aylantirish jarayoni sifatida tushuniladi.

Siyosatlashtirish erta bolalik davrida ota-onada hokimiyatiga qo'shimcha ravishda, oiladan tashqarida bo'lgan yana bir narsa borligini anglash. Ba'zi mualliflar uchun G'arb sosyologiyasida siyosiy sotsializm "fuqarolik" kursini o'zlashtirishdir, boshqalari uchun bu maktabda olingan "barcha siyosiy tadqiqotlar" yoki bu hokimiyatga munosabatdir.

Va nihoyat, huquqiy ijtimoiylashuv. Bu atama XX asrning 60-yillarida Amerika huquqiy psixologiya maktabining tadqiqotlari doirasida paydo bo'ldi. G'arbda psixologiya, siyosatshunoslik, falsafa va boshqa huquqiy sotsializmning eng yangi ma'lumotlarini hisobga olgan holda huquqiy sotsializmni o'rganish metodologiyasi ishlab chiqilgan bo'lib, u insonning huquqiy bilimlari va huquqiy muloqot tajribasini olishdir, bu jamiyatdagi ijtimoiy – iqtisodiy sharoitlarni, siyosiy tizimning tabiatini, davlat mafkurasi, axloqiy muhit va boshqalarni aks ettiruvchi huquqiy ta'lmdir. Insonning huquqiy ijtimoiylashuvi demokratik jamiyatda juda muhimdir, chunki qonun, agar u buzilmasa, har doim fuqaroni himoya qiladi.

Insonning hozirgi holati bugungi kunda insonning tabiat va jamiyat bilan aloqasi muammosi qanchalik muhimligini ko'rsatadi va ayni paytda ijtimoiylashuv insonning rivojlanishi va shakllanishining universal va zarur shakli bo'lib xizmat qiladi. Jamiyatning barcha ijtimoiy institutlarining maqsadli o'zaro hamkorligi jamiyatning barqarorligini, uning muvaffaqiyatli ishlashini va rivojlanishini ta'minlaydigan shaxsni shakllantirishi mumkin, ammo buning uchun inson jamiyatning eng yuqori qiymati bo'lishi kerak.

### **Nazorat savollari**

1. Falsafa va sotsiologiya o'rta sidagi o'zaro munosabat.
2. Sotsiologiya boshqa fanlar bilan.
3. Sotsiologiya strukturasi
4. Makrosotsiologiya
5. Mikrosotsiologiya
6. Sotsiologiya va sotsial psixologiya

### **Mavzu yuzasidan talabalar bilimini baholash uchun testlar**

#### **1. Shaxs atamasi dastlab nima degan ma'noni anglatgan?**

- a. Niqob
- b. Mavqe
- v. Individ

g. Obro‘

**2. Sotsiologiya fanini maxsus va tarmoq yo‘nalishlarga ajratib turuvchi “o‘rtacha daraja” nazariyasining asoschisi kim?**

- a. R. Merton
- b. T. Parsons
- v. P. Sorokin
- g. Adorno

**3. Shaxs sotsiologiyasini o‘rganishdagi yirik mutaxasislar kimlar.**

- a. T. Parsons, R. Lipton, M. Kon, Ch. Kuli
- b. L. Uord Tard, Giddings
- v. Darendorf, Aron, Rostou
- g. Kont, Spenser, Veber

**4. Ko‘pchilik sotsiologlar shaxsning birlamchi ijtimoiylashuvini qaerda boshlanadi deb hisoblaydilar?**

- a. Oila
- b. Maktab
- v. Do‘srlar davrasida
- g. Ish kollektivida

**5. Ijtimoiylashuv individ hayotining qaysi davrlarida faoliyat ko‘rsatadi?**

- a. Yoshlik
- b. Butun hayot davomida
- v. Bolalik
- g. Mehnat davrida

**6. Ijtimoiylashuv tushunchasini izohlab bering?**

- a. O‘zlashtirish
- b. Ulg‘ayish

v. O'rgatish

g. Barchasi

**7. Shaxs sotsializatsiyasi (ijtimoiy lashuvi) qanday bosqichlarga bo'linadi?**

a. Birlamchi va ikkilamchi birlamchi

b. Ikkilamchi

v. Maishiy xizmat qilish jarayoni rivoji

g. Bosqichlari yo'q

**8. Sotsiometriya usuli orqali qanday munosabatlar o'r ganiladi.**

a. Shaxslararo munosabatlar

b. Iqtisodiy munosabatlar

v. Faqat siyosiy munosabatlar

g. Yoshlarga oid munosabatlar

**9. Ijtimoiy betinchlik bu....?**

a. Ko'plab kishilarning ichki keskinligi, tarangligi bo'lib, u faoliyatining tartibsizligi va muvofiqlashtirilmaganligida ifodalanadi

b. Tashkil etilmagan guruhlarda, olomon ichida odamlarning faoliyati jamiyatning shakllangan tartibiga zid turadi

v. Ijtimoiy o'zaro ta'sirning bu shaklida kishilar bir-birlarining kayfiyati, xis-hayajonini ifodalaydi

g. Xulq-atvorning tartibsiz xarakteri

**10. Ijtimoiy o'zaro ta'sirning tiplari kim tomonidan ajratib ko'rsatilgan?**

a. P.Sorokin

b. Darendorf

v. Muso CHalabiy

g) Ioan IV Paleolog

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. B.Aliev va boshqalar «Sotsiologiya» Darslik. T. 2011 y, 134-b.
2. Jo‘raev N., Azizov Sh.Ijtimoiyat asoslari.-T.: «Ma’rifat-madadkor», 2003.-62-6.
3. Umumiysotsiologiya.Toshkent: ToshDU, 1999, 42-bet.
4. G.V. Filosofiya prava. Moskva, «Mo’sl», 1990, s.113.
5. S.Nosirxo‘jaev, T. Sultonov, S.Tursunova. «Sotsiologiya». Darslik. -T.: 2009. –B.145.
6. Поликанова Е. П. Социализация личност Философия и общество. Выпуск №2(31)/2003
7. <https://hozir.org/>
8. <https://www.socionauki.ru>

## **4-MAVZU. SOTSIAL STATUS VA ROLLAR. SOTSIAL HARAKAT VA SOTSIAL O'ZARO-TA'SIR**

**Reja:**

- 1. Sotsial status to‘g‘risida tushuncha**
- 2. Belgilanadigan va erishiladigan statuslar**
- 3. Sotsial me’yorlar va sotsial rollar**
- 4. Sotsial harakatning motivatsiyalari**
- 5. Ijtimoiy o‘zaro ta’sir va uning darajalari**
- 6. Badiiy adabiyotlarda sotsial status va rollar masalalari**

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy maqom; ijtimoiy rol; qasddan jinoiy xatti-harakatlar mexanizmi; motivatsiya; jinoyatchining shaxsiyati; hayotning o'ziga xos holati.

Bunday guruhdagi hissiy xususiyatlar fonga tushib qoladi va muayyan funktsiyalarni bajarish va umumiylar maqsadga erishish qobiliyati birinchi o'ringa chiqadi. Ikkilamchi guruhni tashqi bog'lanish bilan bog'langan ijtimoiy jamoalar deb atash mumkin, bu esa, ularning xatti-harakatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Kichik guruhlarni tasniflashda referent guruhlar ham ajratiladi. Ma'lumotnomalar guruhi - Real yoki xayoliy guruh bo'lib, u bilan shaxs

o'zini standart sifatida va uning xulq-atvori va o'z-o'zini hurmat qilishda boshqaradigan me'yorlari, maqsadlari, qadriyatlari bilan bog'liq. Ushbu ijtimoiy hodisaning rivojlanishi amerikalik sotsiolog G. Hyman tomonidan amalga oshirildi. Tadqiqot davomida, u har bir kishi bir vaqtning o'zida bir necha ma'lumot guruhlarini o'z ichiga oladi, deb topildi, bular rasmiy ularga tegishli emas-da. Kichik ijtimoiy guruhlarni hisobga olganda, shaxs aslida mansub bo'lgan a'zolik guruhlarni – guruhlarni ajratish ham odatiy tusiga kiradi. Kundalik hayotda a'zolik guruhlari va referent guruhlar o'rtasida qiymat mojarosi paydo bo'lishi odatiy hol emas. Buning natijasi ijtimoiy guruhni yo'q qilish bilan tahdid soluvchi shaxslararo munosabatlarda uzilish bo'lishi mumkin. Zamonaviy jamiyatda bunday hodisalar muhim miqyosga ega.

Avvalo, bu axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan bog'liq. Rasmiy axloq, agar u ommaviy axborot vositalarida qo'llab-quvvatlanmasa, ijtimoiylashuv jarayonida rad etiladi.

### **Olomonning ijtimoiy hodisasi. Olomon ichidagi odamlarning xulq-atvor xususiyatlari.**

Ijtimoiy guruhlarning bu turlaridan tashqari, sotsiologiya bexosdan paydo bo'lgan va tabiatda tasodifiy bo'lgan guruhlarni ham aniqlaydi. Bunday spontan beqaror guruhlar kvazigrouplar deb ataladi. **Kvazigroup**-qandaydir qisqa muddatli o'zaro ta'sirga ega bo'lgan spontan (beqaror) shakldir.

Olomonning ijtimoiy tuzilishiga odatda oddiy-rahbarlar va boshqa barcha ishtirokchilar kiradi.

Jismoniy cheklanganlik kosmik ijtimoiy hamkorlikni olib keladi, bir olomon odamlar aro aloqani oldini olish uchun harakat bo'lsa ham.

Olomonning xulq-atvori va shakllanishi xarakteriga qarab bir necha turlarga bo'lish mumkin.

**Tasodifiy olomon** eng noaniq tuzilishga ega. Masalan, yo'l-transport hodisasiga yaqin ko'chada odamlar uchrashuvi. Bu shaklda, odamlar olomon ahamiyatsiz gol.

Jismoniy shaxslar tasodifiy olomon zaif hissiy jalb qilingan va erkin undan o'zlarini ajratish mumkin. Biroq, sharoitning ma'lum o'zgarishi bilan bunday olomon tezda mitingga tushishi va umumiyl tuzilishga ega bo'lishi mumkin.

**Shartli olomon**-oldindan rejalshtirilgan va nisbatan tuzilgan odamlar Assambleyasi. Masalan, futbol uchrashuvini tomosha qilish uchun stadionga yig'ilgan olomon. Bunday holda, olomon o'z a'zolarining xatti-harakatlariga muayyan oldindan belgilangan ijtimoiy me'yorlar ta'sir qiladi degan ma'noda "shartlangan".

**Ifodali olomon**-bu, odatda, odamlar faol bo'lsa, o'z a'zolarining shaxsiy zavqi uchun tashkil qilinadigan, o'zi maqsad va natija bo'lgan ijtimoiy yemish-guruhdır. Misol uchun, bir Rok festivalida odamlar yig'ish.

**Hozirgi olomon.** "Bajaruvchi" atamasi olomonning butun harakatlari majmuini anglatadi. Faol olomonning eng muhim shakllaridan biri – zo'ravon harakatlarga moyil bo'lgan hissiy hayajonli olomon. Yig'inlar aggressiv niyatlarida bir tomonlama bo'lgan va barcha a'zolardan qat'iy muvofiqlikni talab qiladigan rahbarlarga ega bo'lishadi.

Yig'ish harakatlari muayyan ob'ektga qaratilgan va tabiatda qisqa muddatli bo'ladi. Shundan so'ng, yig'ilish odatda buziladi.

Yig'ishning umumiyl misoli juda tor markazga ega bo'lgan va maqsadga erishgandan so'ng tezda parchalanib ketadigan shodiyona olomon. Faol olomonning yana bir shakli-isyonkor olomon.

Bu zo'ravon va zararli jamoaviy portlash. Bunday olomon to'planishdan shu bilan farq qiladiki, qo'zg'olonlarda xatti-harakatlar kamroq tuzilgan, kamroq maqsadli va beqaror.

**Isyonkor olomon** o'z maqsadlarini ko'zlagan turli guruhlardan iborat bo'lishi mumkin, ammo tanqidiy paytda shunga o'xshash harakat qiladi. Olomonning bu turi tashqaridan turli tasodifiy hodisalarga eng kam moyil bo'ladi, uning harakatlari ko'p hollarda oldindan aytib bo'lmaydi.

Olomonni belgi va xatti harakatidagi farqiga qaramay, har qanday odamlarni xatti-harakatiga xos bo'lgan umumiyl xususiyatlarini ajratish mumkin:

**1)Ishontirishlilik.** Bir olomon odamlar ko'proq ishonuvchan bo'ladi. Ular ko'pchilikning fikrlarini, his-tuyg'ularini va harakatlarini qabul qilishi ehtimoli ko'proq;

**2)Anonimlik.** Shaxs olomon ichida o'zini tanib bo'lmas qilib ko'rsatadi. Bu olomon ko'pincha bir butun sifatida harakat qiladi va uning individual a'zolari idrok yoki shaxslar sifatida ajralib turmaydi;

**3)Tarqoqlilik.** Bu olomonni tashkil qilgan odamlar ular odatda ko'proq o'z-o'zidan muomala moyil bo'ladi. Odatda, ular o'z xatti-harakatlari haqida o'ylamaydilar va ularning harakatlari faqat olomonda mavjud bo'lgan his-tuyg'ular bilan belgilanadi;

**4)Daxlsizlik.** Olomonni tashkil etuvchi odamlar anonim bo'lgani uchun, ular o'zlarini ijtimoiy nazoratda his qila boshlaydilar. Masalan, futbol ishqibozlari tomonidan vandalizm akti amalga oshirilganda, aksiyada ishtirok etuvchilarning har biri bir butun sifatida bиргаликда harakat qilib, mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi.

Olomon ichida "normal" sharoitda faoliyat ko'rsatadigan individual va maqom farqlari, ijtimoiy normalar va tabular o'z ahamiyatini yo'qotadi. Olomon shaxslarni xuddi shu tarzda harakat qilishga va amokni boshqarishga majbur qiladi, qarshilik yoki shubhada har qanday urinishni ezadi.

Shiddatli oqim, loy oqimi va boshqalar bilan aniq o'xshashliklar mavjud. Lekin bular faqat o'xshatishlar: eng zo'r olomonning xatti-harakati o'z mantig'iga ega va bu ijtimoiy harakat mantiqidir, uning ishtirokchilari ijtimoiy mavjudot sifatida harakat qiladilar.

U ma'lum bir an'anaviy xulq-atvor stereotipiga (diniy yoki etnik ksenofobiya, qon adovati, "Linch qonuni" va boshqalarga asoslanadi.) va rol mexanizmi (masalan, instigatorlar, faollar, ssreamers va boshqalar.)da boshqariladib. Shunga o'xshash narsa bo'lingan, vahimaga tushgan olomon ("o'zingni o'zing saqla" stereotipi va rollarning tegishli taqsimlanishi) vaziyatida mavjud.

## **Etnik jamoalar sotsiologiyasi.**

Ilmiy adabiyotlarda etnik jamoa odatda, odatda etnik guruh, Rossiya, Fransiya, Hindiston va boshqalar nomi bilan ifodalanadigan o'z ongiga ega bo'lgan til, shu jumladan, o'ziga xos madaniyatga ega bo'lgan, qoida tariqasida, shu hududda yashovchi barqaror odamlar majmui sifatida tushuniladi.

Mavjud jamoaning integrativ ko'rsatkichi - etnik o'zlikni anglash-muayyan etnik guruhga mansublik, uning birligini anglash va boshqa etnik guruhlardan farq qilish tuyg'usi.

Etnik o'zlikning rivojlanishida kelib chiqishi, hududi, an'analari, urf-odatlari va boshqalar jamoa haqidagi g'oyalar muhim rol o'ynaydi., ya'ni madaniyatning shunday elementlari avloddan-avlodga o'tib, o'ziga xos etnik madaniyatni shakllantiradi.

Etnik guruhlarni tadqiq etish masalasi sotsiologiya uchun juda muhimdir, chunki u eng barqaror ijtimoiy hamjamiyatni ifodalovchi etnik guruhlardir.

Bugungi kunda etnik guruhlarning eng rivojlangan kontsepsiyasini L. N. Gumilyov tomonidan yaratilgan va etnogenez tushunchasi kiritilgan. Tadqiqotchi o'zining "Etnogenез va yer biosferasi" kitobida "passionarlik" nazariyasini ishlab chiqqan.

Gumilyov etnosning tabiiy-biologik xarakterini sayyoramiz bio-organik dunyosining ajralmas qismi ekanligi, ma'lum geografik va iqlim sharoitlarida ro'y berishida ko'radi.

Har qanday etnik guruh insonning tabiiy-geografik sharoitga moslashish jarayonining natijasidir. Etnos-bu madaniyat emas, balki biosfera hodisasi bo'lib, uning paydo bo'lishi ikkilamchi.

Gumilev o'z nazariyasida ba'zi etnik guruhlarning o'limi va boshqalarning tug'ilishi sabablarini ochib berishga harakat qilgan, uning fikricha, etnosning madaniy tushunchasi tushuntirilmagan.

Etnik jamoalarning tug'ilishi va rivojlanishining asosiy sababi "passionariylar" – eng baquvvat, qobiliyatli va rivojlangan odamlar va "sub passionariylar" ning qarama-qarshi fazilatlarga ega bo'lishidir.

Bu toifadagi kishilardan "mas'uliyasizlik va epchillik" bilan ajralib turadigan illatlar, jinoyatchilar shakllanadi.

Passionariylar va sub-passionariylarning paydo bo'lishi populyasiyada genetik mutasiyalar jarayonidir.

Mutantlar o'rtacha 1200 yil yashaydi, etnik guruhning hayoti, uning moddiy va ma'naviy madaniyatining gullab-yashnashi, baquvvat passionistlar faoliyati orqali yaratilgan.

Passionariylar sonining kamayishi va sub-passionariylar sonining ko'payishi etnik guruhning o'limiga olib keladi.

Tabiiy-iqlim sharoiti juda muhim rol o'ynaydi, chunki ularning ta'siri ostida bu etnik jamoaga xos xulq-atvorning muayyan stereotipi rivojlangan. Sotsiologiyada etnik guruhlarning umumiy qabul qilingan tasnifi sifatida ularning uch turi mavjud: qabila, millat va ularning rivojlanish darajasi bilan farq qiluvchi millat.

**Qabila**-asosan ibtidoiy va konsanguinli birlikka asoslangan etnik jamoa turi. Qabila bitta ajdoddan umumiy kelib chiqqan bir necha generallar va klanlar asosida tashkil topgan. Bu jamoada odamlar umumiy ibtidoiy diniy e'tiqodlar bilan birlashtirilgan (fetishizm, totemizm), siyosiy hokimiyatning boshlanishi (oqsoqollar Kengashi, boshliqlar), umumiy og'zaki dialektning mavjudligi bilan. Rivojlanish jarayonida qabilalar birlashib, birgalikda ko'chib yurish va fathlarni amalga oshiruvchi ittifoqlar tuzadilar, bu esa xalqlarning shakllanishiga olib keladi.

**Millatchilik**-qabila tashkilotining parchalanishi davrida paydo bo'lgan va balki qonga asoslangan emas, balki hududiy birlikka asoslangan etnik jamoa turi.

Millat qabilaviy tashkilotdan iqtisodiy rivojlanishning yuqori darajasi, mif, ertak va negiz shaklidagi madaniyatning mavjudligi bilan farq qiladi. Millat yaxshi shakllangan til, o'ziga xos hayot tarzi, diniy ong, hokimiyat institatlari va o'z-o'zini anglash.

Millatlilik - tarixan etnik jamoaning eng yuqori turi bo'lib, u hududning birligi, iqtisodiy hayoti, madaniyati va milliy o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Etnosning eng rivojlangan shakli sifatida millatni yaratish jarayoni oxirgi davlat shakllanishi, iqtisodiy munosabatlarning

keng rivojlanishi, umumiy psixologiya, maxsus madaniyat, til va boshqalar davrida yuz beradi.

Hozirgi davrning yaqqol xususiyati-ko'pgina xalqlarning milliy-etnik tiklanishiga moyillik, o'z mavjudlik muammolarini mustaqil hal etishga intilishidir. Xalqlarning milliy tiklanishining asosiy sabablari va ularning siyosiy faoliyati quyidagilardan iborat:

1) xalqlarning sobiq mustamlakachi imperiyalarda va ba'zi zamonaviy Federal davlatlarda o'z huquqlari va rivojlanish imkoniyatlariga cheklashlarga olib keladigan ijtimoiy adolatning barcha elementlarini mustahkamlash istagi;

2) ko'plab etnik guruhlarning zamonaviy texnologik tsivilizasiya, urbanizasiya va madaniyat deb ataladigan, barcha xalqlarning turmush sharoitini tekislash va ularning milliy o'zligini yo'qotishiga olib keladigan jarayonlarga munosabati;

3) xalqlarning o'z hududida joylashgan tabiiy resurslardan mustaqil foydalanishga va hayotiy ehtiyojlarini qondirishda rol o'ynashga intilishi.

Etnik tiklanish maqsadiga erishish uchun millat o'zining haqiqiy manfaatlarini, shuningdek, boshqa millatlarning manfaatlarini anglashga va umumiy zamin topishga tayyor bo'lishi kerak.

### **Tashkilot sosiologyaning o'rghanish ob'ekti sifatida.**

"Tashkilot" tushunchasi bir necha ma'noda ishlatiladi:

1)ob'ektni buyurtma qilish deb; u holda tashkilot qismlarni bir butunga birlashtirish usuli sifatida ma'lum tuzilmalar, struktura va bog'lanishlar turi tushuniladi;

2)faoliyat turi sifatida; tashkilot-funksiyalarning taqsimlanishini, barqaror munosabatlarni o'rnatishni, muvofiqlashtirishni o'z ichiga olgan jarayon;

3)har qanday muammolarni hal qilish uchun odamlarning sun'iy birlashmasi sifatida.

G'arb sotsiologik tafakkurida tashkilot ish jarayonida Birlashgan, tashkilotning har bir a'zosiga butun tashkilotning eng samarali faoliyati

uchun muayyan funktsiyani tarqatadigan va tayinlaydigan kishilarning o'zboshimchalik bilan kelishuvi sifatida namoyon bo'ladi.

**Ijtimoiy tashkilotning o'ziga xos xususiyatlari**-bu shaxslar ijtimoiy munosabatlarining muayyan tuzilishi va ular tomonidan tarqatilgan e'tiqodlar va motivasiya yo'nalishlari tizimidir.

**Tashkilotni aniqlash uchun to'rtta yondashuv mavjud:**

1) tashkilot-jamiyatda eng keng tarqalgan va Markaziy muvofiqlashtirish tizimini o'z ichiga olgan o'zaro aloqada bo'lgan insonlar jamoasi tashkilotni murakkab biologik organizmga o'xshatadi (D. mart va g. Simon);

2) tashkilot-boshqa ijtimoiy guruhlardan onglilik, prognozlilik va maqsadga muvofiqlik bilan farq qiluvchi odamlarning hamkorlik turi (K. Barnard);

3) muayyan ijtimoiy maqsadlarga erishish uchun tashkilot rasmiylashtirilgan bo'lishi kerak, rasmiy tuzilishga ega (P. Blau, W. Scott);

4) tashkilot-muayyan maqsadlar uchun ongli ravishda qurilgan va rekonstruktsiya qilingan ijtimoiy uyushma (inson guruhlari) (A. Etzioni).

G'arb sosiologiyasida tashkilotlarni tahlil qilishda bir qancha asosiy yondashuvlar mavjud.

**Ratsional yondashuv.** Bunday yondashuvda tashkilot aniq belgilangan maqsadlarga erishishning oqilona vositasi" vositasi "sifatida fikr yuritiladi.

Bu holda tashkilot tizim yaxlitligini buzmasdan, bir-birini o'zgartirishi va almashtirishi mumkin bo'lgan alohida mustaqil qismlar majmui sifatida qaraladi.

M. Veber tomonidan taqdim etilgan ushbu yondashuv tarafдорлари tashkilot a'zolari o'rtasidagi norasmiy munosabatlarga ahamiyat bermaydilar.

**Tabiiy modeli.** Tashkilot-organik o'sish, uning mavjudligini davom ettirish va tizimning muvozanatini saqlab qolish istagi bilan ajralib turadigan organizmdir. Ushbu modelga ko'ra, tashkilot o'z

maqsadlariga muvaffaqiyatli erishganidan keyin ham o'z faoliyatini davom ettirishi mumkin. Ushbu yo'nalish vakillari uchun asosiy vazifa tashkilot balansini saqlab qolishdir.

Tashkilotdagi norasmiy munosabatlarga katta e'tibor beriladi.

Fransuz muhandisi va tadqiqotchisi A. Fayol tomonidan ishlab chiqilgan "tashkilot-mashina" tushunchasi tashkilotning nomunosibligini va ishchilar o'rtasidagi rasmiy oqilona munosabatlarni va boshqaruvning aniq ierarxiyasini qayd etadi. Shu bilan birga, tashkilotning vazifasi tashkilotning turli qismlari ishini kuzatish, muvofiqlashtirish va rejalashtirishdan iborat. Shunday qilib, odam boshqarish tizimida elementar hujayra sifatida qaraladi.

Interaktsionistik model ijtimoiy o'zaro ta'sir va muloqotni har qanday tashkilotning fundamental jarayonlari deb hisoblaydi.

Ushbu modelning ijobiy tomoni shundaki, inson shaxslari o'z manfaatlari, ehtiyojlari va qadriyatlari bilan ishlaydigan qat'iy oqilona va rasmiy tashkilotni yaratish mumkin emas, bu ularning funktsiyalarini bajarish jarayoniga ta'sir qila olmaydi. Shuning uchun ratsional modelning cheklanishlarini va inson xulq-atvorini to'la rasmiylashtirishning mumkin emasligini qabul qilish lozim. Shunday qilib, tashkilotning ko'plab ta'riflari mavjud bo'lib, ulardan odatda maqsadlarga erishishga qaratilgan oqilona tizim sifatida tashkilot tushunchasi ajralib turadi. Tashkilotdagi ijtimoiy o'zaro munosabatlar umuman jamiyatdagi ijtimoiy o'zaro munosabatlar umumiylarayonining ajralmas qismidir va shuning uchun a'zoni jamiyatdan ajratib bo'lmaydi, uni o'z manfaatlari va ehtiyojlari bilan inson shaxs sifatida ko'rish kerak.

Ijtimoiy sotsiologiyadagi tashkilotlarni o'rganishga hukmron mafkura ta'sir ko'rsatdi. Uzoq vaqt davomida rus sotsiologlari tashkilotni boshqarish sohasida tadqiqot olib bormasdan, asosan, mehnat sotsiologiyasi, kichik guruhlar va ijtimoiy rejalashtirish sotsiologiyasini o'rgandilar. Faqat XX asrning 80-90-yillarda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar boshlanishi bilan tashkilotlarning boshqaruvchilik xususiyatini o'rganish zarurati tug'ildi.

Tashkilotning ijtimoiy mohiyati shaxsiy maqsadlarga erishish orqali o'z maqsadlarini amalga oshirishda namoyon bo'ladi. Butun va elementlar o'rtasidagi bu ittifoqsiz, tizim sifatida tashkilot yo'q. Odamlar birlashadilar va tashkilotda faqat ularning har biriga kerak bo'lgan narsalarni, ya'ni daromad, ta'lim, o'z qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish, kasbiy targ'ibotni qo'lga kiritgandagina ishlaydilar.

Shunday qilib, biz ijtimoiy tizim sifatida tashkilot haqida gapirishimiz mumkin, uning elementlari odamlar, guruhlar, kollektivlardir.

Biroq, har qanday tashkilot o'zi ijtimoiy tizimning elementidir. Kompaniya o'zaro hamkorlik tashkilotlari majmui sifatida qaralishi mumkin. Ular inson jamoasining eng keng tarqalgan shakllari, jamiyatning birlamchi hujayralaridir.

Tashkilot shaxs va jamiyat o'rtasida vositachi vazifasini bajaradi, tashkilotning ijtimoiy hayoti esa shaxs, tashkilot va jamiyat manfaatlari o'rtasidagi ziddiyatlarni doimiy hal qilib turadi.

Sotsiologik nuqtai nazaridan ijtimoiy tashkilotning tuzilishi uning ijtimoiy pozitsiyalarni (pozitsiyalarni) joylashtirish va ularning o'ziga xos rolli reseptlari bilan munosabatlarini tartibga soluvchi qiymat-me'yoriy standartlari bilan belgilanadi.

Tashkilot ijtimoiy tuzilmasining o'ziga xos xususiyati ijtimoiy pozitsiyalarni majburiy ierarxik buyurtma qilish bo'lib, turli darajadagi ijtimoiy pozitsiyalarni ularning o'ziga xos huquq va majburiyatlar bilan muvofiqlashtirish imkonini beradi.

Bu ierarxiya asosida, ish bog'liqliklar narvon bir xil bor, qaysi oliy kishilarga kadrlar quyi darajadagi majburiy bo'ysunishni o'z zimmasiga oladi.

Bundan tashqari, tashkilotning ijtimoiy tuzilmasini tashkil etuvchi ijtimoiy pozitsiyalar va rollar juda qat'iy va aniq normativ tartibga solinadi, bu har bir a'zodan aniq vazifalarni va tegishli mas'uliyat darajasini talab qiladi.

Tashkilotning muvaffaqiyatli ishlashi uchun zarur shartlardan biri uning a'zolari uchun "vertikal harakatlanish" yoki rasmiy pozitsiyalar ierarxiyasi orqali muvaffaqiyatli reklama qilish imkoniyatini yaratadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, zamonaviy xodim doimo o'z malakasini oshirishi kerak.

Birinchidan, u xodimlar doimo o'zgaruvchan ishlab chiqarish sharoitlariga muvofiq o'z bilim va professional ko'nikmalarini yangilash imkonini beradi, ikkinchidan, professional rivojlanish bir martaba uchun asos yoki faqat "o'rmini taalukli" bo'lishi mumkin.

Rasmiy tashkilot faoliyatining yana bir muhim sharti-yaxshi tashkil etilgan muloqot tizimidir, ya'ni tashkilotning turli qismlari o'rtasida aylanadigan axborot oqimlarining munosabati.

Aloqa boshqaruv qarorlarini qabul qilish va odamlar faoliyatini oqilona muvofiqlashtirish uchun zarurdir.

Tashkilotning turli qismlari o'rtasida o'zaro axborot almashish-bu tashkilot a'zolarining eng muhim sharti, ishbilarmonlik muloqoti vositasi va ijtimoiy o'zaro munosabatidir.

Sotsiologik adabiyotlarda tashkilotlar tipologiyasiga ko'plab yondashuvlar mavjud.

An'anaviy deb ataladigan birinchi yondashuvda uchta tur mavjud:

- 1) korxona va firmalar (ishlab chiqarish, savdo, xizmat ko'rsatish);
- 2) muassasalar (moliyaviy, madaniy, ilmiy, boshqaruv, ta'lim, tibbiyot);
- 3) jamoat tashkilotlari (diniy, kasbiy, ixtiyoriy).

Ikkinci yondashuv jamoat munosabatlariga asoslangan tashkilotlarning bo'linishiga asoslanadi: iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va boshqaruv.

Ushbu turdag'i har bir tashkilotning maqsad va vazifalarini belgilaydigan muhim o'xshashliklarga ega.

Amerikalik sotsiolog A. Etzioni barcha tashkilotlarni uchta asosiy guruhga ajratadi:

- 1) ixtiyoriy, a'zolari ixtiyoriy asosda birlashadigan (siyosiy partiylar, kasaba uyushmalari, klublar, diniy birlashmalar);

2) majburiy, a'zolari majburiy bo'lib qolgan (armiya, qamoqxona, psixiatriya shifoxonasi);

3) a'zolari umumiy va individual maqsadlarga erishish uchun birlashadigan pragmatik (korxonalar, firmalar, moliyaviy tuzilmalar). Zamonaviy rus sosiologlari asosan quyidagi turdag'i tashkilotlarni ajratadilar:

1) ish, xodimlarga tirikchilik vositalari (korxonalar, firmalar, banklar) bilan ta'minlaydigan a'zolik);

2) a'zolik iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa ehtiyojlarni qondirish imkonini beradigan ommaviy uyushmalar bo'lgan jamoat birlashmalari (siyosiy partiyalar, ijtimoiy harakatlar);

3) biznes va jamoat tashkilotlari (kooperativlar, hamkorlik) xususiyatlarini birlashtiradigan oraliq);

4) assosiativ, manfaatlarni o'zaro amalga oshirish asosida yuzaga keladigan (klublar, norasmiy guruhlar).

Boshqa tasnifda tashkilotlarning ikkita asosiy turi mavjud: ma'muriy va jamoatchilik. O'z navbatida birinchi bo'linadi:

1) sanoat va iqtisodiy, shuningdek moliyaviy;

2) ma'muriy va boshqaruv (turli darajadagi davlat boshqaruvi organlari);

3) ilmiy va ilmiy tashkilotlar;

4) madaniy muassasalar va aholi uchun dam olish xizmatlari.

Jamoat tashkilotlariga siyosiy partiyalar va ixtiyoriy jamoat tashkilotlari, ijodiy uyushmalar va boshqalar kiradi.

## **Mavzu yuzasidan talabalar bilimini baholash uchun testlar**

### **1. Ijtimoiy institut "atamasi muallifi kim»:**

- a) M. Veber
- b) G. Spenser
- C) P. Sorokin
- e) K. Murton

**2. Qaysi kontseptsiya ta'rifga mos keladi:"inson faoliyatining turli sohalarini tartibga soluvchi va ularni jamiyatning ijtimoiy tizimini tashkil etuvchi rollar va maqomlar tizimida tashkil etadigan rasmiy va norasmiy qoidalar, printsiplar, me'yorlar, munosabatlarning barqaror kompleksi"?**

- a) ijtimoiy jamiyat;
- b) ijtimoiy tashkilot;
- v) ijtimoiy institut.

**3. Jamiyat normalariga nisbatan mustaqil harakatlar uchun ruxsat etilgan asosni belgilaydigan institutlar ushbu chegaradan tashqariga chiqadigan shaxsiy maqsadlar va sanktsiyalar uchun nima qilishadi?**

- a) integratsiya;
- b) tartibga solish;
- v) munosabatlar.

**4. Jamiyatning rolini turli sabablarga ko'ra — jinsi va yoshidan tortib, faoliyat va qobiliyatlarga qadar belgilaydigan institutlar nima deb ataladi?**

- a) integratsiya;
- b) tartibga solish;
- v) munosabatlar.

**5. Qaysi kontseptsiya ta'rifga mos keladi: "o'zboshimchalik bilan kelishuv**

**ish jarayonida birlashtirilgan, har bir a'zo uchun eng samarali faoliyat yuritish uchun muayyan funktsiyalarni taqsimlash va mustahkamlash"?**

- a) ijtimoiy institut;
- b) ijtimoiy tashkilot;
- v) ijtimoiy guruh.

**6. Ijtimoiy institutlarning asosiy vazifalari:**

- a) ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish, jamiyat barqarorligini ta'minlash;
- b) jamiyatni dinamizm, harakatchanlik, o'zgaruvchanlikni ta'minlash;
- v) bitiruvchilarga diplom berish.

**7. Ijtimoiy institut jamiyatida paydo bo'lish jarayoni va natijasi:**

- a) institutsionalizatsiya;
- b) disfunktsiya;
- v) stabilizatsiya.

**8. Ijtimoiy institutning disfunksiyasi quyidagicha namoyon bo'ladi:**

- a) institut eng muhim ijtimoiy ehtiyojlarni to'liq qondiradi;
- b) institut samarali emas, uning obro'si jamiyatda tushadi;
- v) institut jamiyatda obro'li, obro'li.

**9. Qanday tushunchalar quyidagi toifalarni birlashtiradi: mehnat taqsimoti, oila, mulk, armiya, nikoh, ta'lim?**

- a) ijtimoiy tuzilma;
- b) ijtimoiy munosabatlar;
- v) ijtimoiy institutlar.

**10. Muayyan ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish uchun mo'ljallangan rollar va maqomlar to'plami**

- a) ijtimoiy institut
- b) ijtimoiy guruh
- v) ijtimoiy jamoa

**Nazorat va mustahkamlash uchun savollar.**

1. Ijtimoiy institut nima?
2. Ijtimoiy stitutlarga misollar keltiring.
3. Ijtimoiy institutlarning asosiy xususiyatlari qanday?
4. E.Giddens qanday tabaqlashning tarixiy turlarini aniqladi?
5. Ijtimoiy harakat nima?

6. P.Sorokin qanday ijtimoiy harakatlanishni tanladi?

**ADABIYOTLAR**

1. Новикова С.С. Социология: история, основы, институционализация в России. - М.: Московский психолого-социальный институт; Воронеж: Издательство НПО «МОДЭК», 2000. - С.58.
2. Самыгин С.И., Перов Г.О. Социология. Ростов н/д: Издательский центр «Март», 2001. С.51.
3. Кравченко А.И. Социология. – Екатеренбург: Деловая книга, М.: издательская корпорация «Лотос», 1999. С.199
4. Самыгин С.И., Перов Г.О. Социология. Ростов н/д: Издательский центр «Март», 2001. С.51.
5. Фролов С.С. Социология: [Учебник для высш.учеб.заведений] — 2-е изд., перераб. и доп. — М.: Издательская корпорация «Логос», 1996. С.162.

## **7-MAVZU. JAMIYAT SOTSIAL STRUKTURASI**

### **Reja:**

1. Jamiyat sotsial strukturasiga doir dastlabki talqinlar.
2. Fuqarolik jamiyati - insoniy taraqqiyot uchun zaruriyat sifatida
3. Fuqarolik jamiyatining sotsial strukturalari va ularning o'zigaxos jihatlari.
4. Rivojlangan mamlakatlarda jamiyat sotsial strukturalarining rivojlanishida yangi tamoyillar.

**Tayanch atamalar:** Alkogolizm, anomiya, giyohvandlik, deviant, delinkvent hulq-atvor, jinoyat, jamoatchilik fikrini xaspo'shslash (manipulyasiya)

**1. Jamiyat sotsial strukturasiga** doir talqinlar. Jamiyatning sotsial strukturasi dastlab qadimgi yunon mutafakkirlari Platon (er.av.427-347 yy.) va Aristotel (er.av. 384-322 yy.) tomonidan tadqiq etilgan. Ular jamiyat va davlatni aynanlashtirgan bo'lsalarda, jamiyat a'zosi sifatida faqat erkin tug'ilgan va fuqarolik yoshiga yetgan kishilarni e'tirof etgan. Ularning jamiyatga doir qarashlari asosini sotsial struktura va sotsial adolat kontseptsiyalari tashkil etgan.

Platonning fikricha, sotsial strukturani faqat erkin tug'ilgan, ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan rolni bajarayotgan kishilar tashkil etadi. Insonning qalbi uchta asosga ega: «idrok» (intellektuallik), «jasurlik» (irodalilik) va «istak» (sezgi, tuyg'uga ega bo'lish). Odamlar o'z qalbidagi asoslardan qay birining ko'pligi yoki ozligiga qarab jamiyatda uchta ijtimoiy qatlam mavjud bo'ladi: donishmandlar – «faylasuflar», harbiylar – «qo'riqchilar», ishlab chiqaruvchilar – «dehqonlar» va «hunarmandlar». Boshqaruvchilar yuksak ma'lumotli, iste'dodli, xususiy mulkka ega bo'limgan, zohidlik turmush tarzini kechirayotgan, 50 yoshga yetgan faylasuflar ichidan tayinlanishi lozim. Boshqaruvchi bo'ladigan odamlarni falsafa va san'at vositasida tarbiyalash zarur. Boshqaruvchilar qonunlarni o'rnatadi, ijtimoiy ishlarni adolatli tarzda boshqaradi. «Qo'riqchilar» davlatni himoya

qiladi va jamiyatda tartibni izga soladi. «Dehqonlar» va «hunarmandlar» o’z mehnatlari bilan fuqarolarni barcha hayot uchun zarur bo’lgan narsalar bilan ta’minlaydi. Ko’rinib turibdiki, Platon tomonidan ilgari surilgan jamiyatning sotsial strukturasi oliy darjada donishmand-faylasuf turgan qattiq ierarxiyani nazarda tutgan edi.

Yirik yunon mutafakkiri Aristotel o’zining «Siyosat» kitobida jamiyatning tabiiy kelib chiqishi, uning sotsial stratifikatsiyasi va sotsial adolat kabilarga doir qarashlari tadqiq etildi. Aristotelning fikricha, inson tug’ilishdan boshlab instinkтив ravishda boshqalar bilan birgalikda hayot kechirishga intilpdigan mavjudotdir. Odamning boshqa mavjudotlardan farqi, uning ijtimoiy va shaxsiy munosabatlardagi ezgulik, adolat, «umumiyl foydani tushunib yetganligi»dir. Aristotel jamiyatda bir-birini izchillik bilan bir-biriga almashib boruvchi insoniy ijtimoiy hayot shakllarini bir-biridan ajratib ko’rsatib berdi: oila – yashash manzili (qishloq va boshq.) – polis (shahar-davlat). Arisiotel uchun davlat – odamning tabiiy ravishda boshqa odamlar bilan hayot kechirishga intilishi natijasida vujudga keladigan biralikda insoniy hayot kechirishning oliy tabiiy shaklidir. Oila – insoniy birlikning birlamchi shakli sifatida talkin etildi. Bir necha oilalar yashash manzilini tashkil etadi. O’zaro bir-birlariga yaqin yashash manzillari shahar-davlatga birlashadi.

Aristotel ilgari surgan sotsial struktura modelida asosiy strifikasiatsiyaviy printsip sifatida mulk senzi tanlandi. Unga muvofiq, fuqarolar uchta sotsial qatlamga bo’linadi: kambag’al, o’rta qatlam va boy. Mutafakkirning fikricha, davlatda qanchalik o’rta qatlam ko’proq bo’lsa, u shunchalik qudratli bo’ladi, gullab-yashaydi.

Antik yunon falsafasini yanada rivojlanishiga katta hissa qo’shgan, Sharq uyg’onish davrining mutafakkiri Abu Nasr Forobiy insoniy jamiyatni puxta o’rgangan olimlar jumlasiga kiradi. Forobiy «Fozil shahar odamlari qarashlari» asarida jamiyat («inson jamoasi»)ning kelib chiqish sabablarini ilmiy jihatdan asoslab beradi: «Har bir inson o’z tabiatini bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko’p narsalarga muhtoj bo’ladi,

uning bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kirita olmaydi, ularga ega bo'lish kishilik jamoasiga ehtiyoj tug'iladi... Shu sababli yashash uchun zarur bo'lgan, kishilarni bir-biriga yetkazib beruvchi va o'zaro yordamlashuvchi ko'p kishilarning birlashuvi orqaligina odam o'z tabiat bo'yicha intilgan yetuklikka erishuvi mumkin. Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va yetuklika erishmoq uchun zarur bo'lgan narsalarni yetkazib beradi. Shuning uchun inson ko'paydi va yerning aholi yashaydigan qismiga o'rnashdilar, natijada inson jamoasi vujudga keldi» . Mutafakkir nazdidagi inson jamoasi – bu kishilik jamiyatni hisoblanadi.

Forobiy jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi (sotsial strukturasi) sifatida jamiyatdagi turli ijtimoiy tabaqalarni chuqur tahlil etadi. Abu Nasr Forobiyning fikricha, mukammal jamiyatda har bir tabaqa, yaxlit ijtimoiy organizmning ajralmas qismi sifatida, o'zining muayyan funktsiyalariga ega bo'lib, go'yoki shu vazifalarni bajarish uchun ixtisoslashganlar.

Forobiy orzu qilgan ideal davlatda ijtimoiy tabaqalar o'rtasidagi farqlanishlar saqlanadi. Platonning ideal davlat tuzumi haqidagi ta'limotida ko'rsatilgani kabi, har bir tabaqaning vazifalari va majburiyatları aniq belgilangan bo'ladi, tabaqalar o'zlarining maqomlari bo'yicha o'zlariga tegishli bo'lgan faoliyat bilan shug'ullanadi. Bir tabaqaga mansub bo'lgan odam boshqatabaqa vakillari uchun tegishli bo'lganishlarni bajarish huquqiga ega emaslar (masalan, boshqaruvchilar tabaqasiga mansub kishilar dehqonchilik yoki savdo ishlari bilan shug'ullanmaydi). Fozil shahar-davlatda har bir tabaqaning jamiyatdao'rni va maqomi mazkur tabaqa bajarishi lozim bo'lgan vazifalarning qanday bo'lishi bilan belgilanadi. Tabaqa martabasining baland yoki past bo'lishi uning hukmdorga yaqin yoki uzoq bo'lishiga bog'liqdir. Hukmdorga yaqin yoki undan uzoq bo'lishning belgisi har bir tabaqa vakillarining aqliy (intellektual) va ma'naviy kamolot darajalarining yuksakligiga bog'liqdir. Aqliy va ma'naviy kamolot darajalari yuksak bo'lgan tabaqa vakillari, ya'ni hukmdorga yaqin odamlar yuqori lavozimlarni egallab, hurmatga

sazovor bo'lgan ishlarni bajaradi, ularning qo'l ostida ishlovchilar esa pastroq lavozimlardagi ishlarni bajaradi.

Ko'rinib turibdiki, Forobiyning ideal davlat tuzumiga asoslangan jamiyatda (fozil shahar-davlatlarda) kishilarning ijtimoiy tabaqalarga bo'linishi va ularning imtiyozlari saqlanadi. Mutafakkir biron-bir tabaqaga mansub odamlarning vazifalari va majburiyatları o'rtasida tafovutlarning saqlanishi, har bir odamning o'z kasbini yaxshi bilishi va o'z vazifalarini bajarishi jamiyatning sobitligi hamda adolatning yuzaga chiqishi uchun zarur bo'lgan omildir, deb qaraydi: har bir odamning o'z kasbiga tegishli vazifalarini to'g'ri bajarishi - jamiyatda adolatning saqlanishi va uni barqarorligini ta'minlash asosidir.

Mutafakkir o'zining «Talxisi navomisi Aflatun» («Platon qonunlari mohiyati») asarida ilohiy qonunlarni doimo adolatli ekanligini ilgari suradi. Fozillar jamiyatining adolatli bo'lishi va tabaqalar o'rtasida tavofutlarning saqlanishida adolat huquqiy kategoriya vazifasini bajaradi. Ana shu jihatlardan yondashganda, Forobiyningadolatg'oyasiga nisbatan ishlatgan ta'rifi Platon talqinlariga yaqindir. Lekin Forobiy qarashlaridagi adolat g'oyasi kishilar o'rtasida axloqiy, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarni, moddiy boyliklarni taqsimlash va o'zaro almashuv munosabatlarini ham o'ziga qamrab oladi. Mana shu yerda Forobiyning qarashlari Platon talqinlaridan farqlanadi. Forobiy o'zidan oldingi barcha o'tmishdoshlaridan farq qilib, adolat haqidagi quyidagi ta'rifini keltiradi: «Adolat - avvalambor butun shahar ahli tomonidan yaratilgan ne'matlarni (to'g'ri) taqsimlash hamda kishilar o'rtasida bu ne'matlarni taqsimlash qoidalarini saqlash demakdir. Bunday ne'matlar qatoriga (kishilarning) farovonligi, boylik (mol-mulk), turli unvonlar va jamiyatda tutgan o'rni hamda odamlarning moddiy-iqtisodiy va ma'naviy hayotiga oid boshqa ko'pgina ne'matlar (narsalar) kiradi. Jamoa a'zolarining har biri o'zining xizmatiga yarasha bu ne'matlardan tegishli hissasiga egadir. Agar ne'matlar bir odamga nisbatan kamroq taqsim etilsa, bu holda u odamga nisbatanadolatsizlik bo'ladi.

Aksincha, o'sha odamga ne'matlar ko'proq taqsim etilsa, unda boshqa fuqarolarga nisbatanadolatsizlik sodir qilingan bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda,adolat kishilar va turli tabaqalar o'rtasida o'zaro iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlarda to'g'ri taqsimlashning belgisi vazifasini bajaruvchi kategoriyadir.«Adolatsizlikning sodir bo'lishi, - deb yozadi Forobiy, - shunda ifodalanadiki, ne'matlarning tegishli hissasi berilmay qoladi». Mutafakkirnnng fikricha, sotsial strukturalarning yashash mezoni – bu sotsial tabaqalar o'rtasida, shuningdek davlat bilan tabaqalar o'rtasidagi munosabatlardaadolat printsipliga qilishdir.

Forobiy kishilarning diniy mazhabiga emas, balki ularning turli belgilari - tabiiy xususiyatlariga, qobiliyatlariga, aqliy iqtidorlariga hamda ilmlarni o'rganish va hayotiy tajriba toplash jarayonida orttirgan bilim va ko'nikmalariga qarab ijtimoiy guruhlarga bo'ladi. Uning talqinicha,shahar - bu muayyan bir davlat uyushmasi, jamiyat (jamo) esa - shu davlatga tobe bo'lgan odamlarning tabaqalardan iborat birlashmasidir. Albatta, bu kabi qarashlar Platon va Aristoteltomonidan ilgari surilgan jamiyatning sotsial strukturalariga doir ta'limotini va bu strukturalarni tabaqalashish qonuniyatlarini yanada rivojlantirdi.

Muayyan jamiyatning tarixiy rivojlanishini tahlil etish natijasida olingen tizimlar nazariyasi va sotsiologik tasniflardan kelib chiqib jamiyatning asosiy universal tasnifini quyidagicha ifodalash mumkin:  
a) bir butunlik, yaxlitlik; b) o'zgarishlarga boy va rivojlanishga moyillik (dinamizm); v) tizimlilik. Mazkur universal tasnifdan kelib chiqib jamiyatni quyidagicha ta'riflash mumkin: Jamiyat (society) – bu yaxlit tuzilma bo'lib, uning doirasida odamlarning birgalikda yashashi amalga oshadi; jamiyat o'zining unsurlaridan iborat bo'lish xususiyatiga ega bo'lgan, shuningdek o'zini mavjudlik makon va zamon chegaralariga ega bo'lgan o'ziga xos organizm yoki tizimdir. Shu tariqa, jamiyat muayyan va aniq hududda joylashgan bo'ladi va o'z mavjudligining aniqmuvaqqat doirasiga egadir. Ba'zi jamiyatshunos olimlarning fikricha, «jamiyat» va «mamlakat» tushunchalari o'rtasida

o'xshashlik mavjud. Jamiyat odamlardan iborat tuzilma sifatida tavsiflanib, u: sotsial aloqalarning birlashuvi ro'y beradigan hudud; muayyan bir hudud doirasida yuzaga kelgan sotsial aloqalar, munosabatlar, birliklarning turli tumanligiga ega; avtonomlik (mustaqil yashash) qobiliyatiga ega; integratsiyalashuvga moyil (barcha individlarni o'zaro qo'shiluvchanligi, ijtimoiy tartibot natijasidagi birlashuv).

**"Jamiyat"** deganda barcha insoniy munosabatlar (aloqalar) yig'indisi tushuniladi. Yana bir manbada "jamiyat" tushunchasi ma'lum bir hududni egallagan, oz yoki ko'p darajada o'zining boshqalardan farqlanuvchi madaniyati va institutlariga ega bo'lgan odamlarning o'zini o'zi abadiylashgan yig'indisi, deyiladi.

Jamiyat institutlar va birliklarning o'zaro munosabatlarini qo'llab-quvvatlaydigan, yangi sotsial tuzilmalarni integratsiyalaydigan, o'z mantig'idan kelib chiqib aholining asosiy qismini o'ziga bo'ysundiradigan, mazkur hududda yashovchi odamlar o'z xattiharakatlaridagi turli tuman sotsial o'zaro ta'sirlar va aloqalarni yagona negizga uyushtirishga undovchi va o'zini o'zi muvofiqlashtirish mexanizmlariga egadir. Jamiat – odamlar, birliklar va tuzilmalar o'zaro ta'sirlari va aloqalarining tarixan rivojalanuvchan, ularning birgalikda yashash jarayonida o'zgarib boradigan va tarkib topadigan yaxlit tizimdir.

Jamiatni o'ziga xos belgilari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: 1)sotsiallik; 2)jamiyat a'zolari (insonlar) o'rtasida o'zaro ta'sir va bog'lanishlarning mavjudligi; 3)ma'lum bir hududga ega bo'lish (sotsial makon); 4)sotsial zamonning (vaqtning) mavjudligi; 5)o'zini o'zi boshqarishi va muvofiqlshtirishi, o'zini o'zi namoyon qilishi, sotsial jarayonlarni o'z-o'zidan anglashi; 6)sotsial institutlarning mavjudligi; 7)odamlarning ongi, irodasi va faoliyatini har qanday o'zgarishlarga ta'sir etib turishi; 8)sotsial strukturaning mavjudligi.

Jamiatning strukturaviy komponentlari - ular ko'plab individlar (shaxslar); odamlar tomonidan bajariladigan sotsial rollar; o'z ichiga

hududiy, etnik va boshqa birliklarni olgan sotsial struktura; odamlarning bir-birlariga o'zaro ta'siri.

Jamiyat yaxlit tizim sifatida turli tuman unsurlardan (faoliyat turlari, ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy guruhlar, birliklar, institutlar va uyushmalar) iborat. Ularning barchasi bir-birlariga mustahkam bog'langan bo'lib, ularning jamlanmasi bir butunlikni (yaxlit jamiyatni) tashkil etadi. «Struktura» (tuzilma) tushunchasi (lotincha "structura" – tuzilish, tuzilma, joylashish tartibi, tartib) umumiy ma'noda bir butunning u yoki bu darajadagi barqaror unsurlari yoki ular o'rtasidagi o'zaro aloqalarni anglatadi.

Biz xorijiy adabiyotlardan foydalanishda qiyinchilik tug'ilmasligi uchun «tuzilma» tushunchasini xalqaro miqyosda qabul qilingan shakli – «struktura» atamasiishlatamiz. Struktura jamiyatning tarkibiy qismlarini turli tartibszelliklar aralashmasidan iborat holda yashashiga yo'l qo'ymaydigan, ularni muvofiqlashuviga shart-sharoitlar yaratib beradigan o'ziga mexanizm vazifasini ham bajaradi.

**Struktura** – ob'ektning bir butunligini va uning o'ziga o'zi aynanligini, ya'ni turli ichki va tashqi o'zgarishlarda o'zining asosiy xususiyatlarini saqlay olishini ta'minlovchi barqaror aloqalar yig'indisidir. Struktura aksariyat holatlarda "nimanidir tarkibiy qismlarini o'zaro joylashishi va o'zaro aloqalari" yoki "ma'lum bir tuzilish va tuzilmaga ega bo'lган narsa" ma'nolarida ishlataladi.

**Struktura** - birinchidan, bu unsurlarni ma'lum bir model sifatida namoyon qilish, masalan, qandaydir institutlashtirilgan sotsial tasniflashni (rollar, tashkilotlar va boshq.) "tuzilgan struktura" yoki "bandlik strukturasi" sifatida tartibga solish; ikkinchidan, ustki struktura asosida yotuvchi (ayniqsa qiyosiy grammatikada) qoida, tartibdir ("chuqur struktura" - Levi-Stross ta'bıricha). Ingliz otsiolog olimi Giddens uchun "struktura" tushunchasi sotsial tizimlarni qaytarilishi va takrorlanishida saqlanadigan "qoidalar va imkoniyatlar"ga taalluklidir.

Giddens jamiyatning sotsial strukturasi tushunchasini o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish barobarida, uni funktionalizm tarafдорлари

talqinidagi noaniqliklar va yengil-elpi ta’rifflashlarni keskin tanqid qilib quyidagi fikrlarni ilgari surdi: “Strukturatsiya nazariyasini o’zagini tashkil etgan muhim tushunchalarni ko’rib chiqamiz: «struktura», «tizim» va «strukturaning dualligi (ikki taraflamaligi)». Hech shubhasiz aytish mumkinki, ularning ichida birinchisi – struktura (yoki «sotsial struktura») – funktsionalizm oqimi tarafdarlari ichida juda ham ommaviylashib ketdi va ular o’z nomidan kelib chiqib ham «strukturalizm» an’analari oldida o’z burchini bajarishga urindi. Lekin, barcha nazariyalar ham bu tushunchaga sotsial-ilmiy nazariyalarining talablari darajasida ta’rif bera olmadi. Funktsionalizm tarafdarlari va ularning tanqidchilari o’zlarining asosiy diqqat-e’tiborini faqat «funktsiya» tushunchasiga qaratib, «struktura»ga oid tasavvurlarga muhim e’tibor bermadi; shu tariqa, bu tushunchaning ahamiyati eski holidan nariga o’tmadi.

Shu bilan birga, biz funktsionalizm tarafdarlari «struktura» deganda nimani tushunishini yaxshi bilamiz. Lekin, darhaqiqat,jamiyatshunos-tahlilchilar bu tushunchani sotsial munosabatlar va hodisalarni o’ziga xos «modellashtirish» deb tushunadi. Ko’pincha struktura tushunchasi skelet yoki organizm tuzilishi, yoki bino sinchi (qobirg’asi) kabi ko’zga ilinmas tasavvurlar shaklida talqin etildi. Bu yondashuv va unga tegishli tushuncha sub’ekt va sotsial ob’ektning ikki taraflamaligi (dualligi) bilan mustahkam ravishda o’zaro bog’liqlikda talqin etildi: bunda «struktura» insoniy faoliyatga nisbatan qandaydir «tashqi» holatni ifodalab, mustaqil sub’ektning erkin tashabbuslarini chegaralashni keltirib chiqaruvchi manba ma’nosini bera boshladи. Strukturalizm doirasida paydo bo’lgan strukturaga doir tasavvurlar bizga qiziqarli bo’lib tuyuladi. Bunda, struktura haqida so’zlaganda, biz u yoki bu sotsial munosabatlar va hodisalarning modellarini emas, balki mavjudlik va mavjud emaslikning (yo’qlikning)o’zaro kesishgan nuqtasini nazarda tutamiz; shu tarzda, yuzaki namoyon bo’lishdan kelib chiqqan holda uning poydevori - asos solinadigan printsiplari chiqarib tashlanadi”.

Giddens “sotsial struktura” va “tizim” tushunchalaridagi farqlanish va bir-birini to’ldirish xususiyatlarini ohib beradi, shuningdek ularga doir izlanishlarni yanada chuqurlashtirishning istiqboldagi vazifalariga to’xtaladi: “Dastlabki qarashda strukturaga doir yuqorida keltirilgan tasavvurlar umumiyligka hech qanday daxli yo’qdek ko’rinadi. Lekin, aslida ularning har biri sotsial munosabatlarni strukturalashning muhim jihatlariga tegishlidir. Bu jihatlar strukturalashtirish (strukturatsiya) nazariyasida «struktura» va «tizim» tushunchalariga differentsiyaviy (bir butunni bo’laklarga va farqlanuvchi jihatlariga qarab o’rganish) yondashuv vositasida anglab yetiladi. Sotsial munosabatlarni tahlil qilar ekanmiz, biz mummoning, bir tomondan, sintagmatik jihatlari – sotsial munosabatlarni vaziyatli amaliyotini takror yaratishni o’z ichiga olgan holda makonda va zamonda modellashtirish, ikkinchi tomondan, shu kabi takror yaratish jarayonida muttasil ravishda ishtirok etuvchi «strukturalashning usullari»ni ma’lum sharoitlarda tartibga solishni nazarda tutishga qaratilgan paradigmaviy «o’lchash»ni e’tiborga olishimiz zarur bo’ladi”.

«Ijtimoiy» tushunchasi lotincha (socialis) «sotsial» ma’nosini bildirib, u odamlarning jamiyatdagi o’zaro munosabatlari va hayot kechirish tarzi tufayli bir-birlariga bog’liq ekanligini anglatadi. Jamiyat keng ma’noda – bu umumi manfaatlar, qadriyatlar va maqsadlarga ega bo’lgan odamlarning birlashish shaklidir. Insoniy jamiyat insonlararo munosabatlari (sotsial munosabatlari) modeli (jamiyat sub’ektlari o’zaro munosabatlari yig’indisi) sifatida tavsiflanadi.

Bu tushunchalar o’zaro birlashtirilganida, “jamiyatning sotsial strukturasi” ma’nosini beradi. Bu tushuncha jamiyatning (birlikning, guruhlarning) ichki tuzilishini ifodalaydi; bu - tartibga solingan sotsial birliklar, sotsial institutlar va ularning o’zaro aloqalari yig’indisi demakdir. Sotsial struktura tor ma’noda funktsional jihatlardan o’zaro bog’langan sotsial maqomlar va rollarning yig’indisidir. Sotsial struktura jamiyatning yaxlitligi va barqarorligini ta’minlab turadi. Sotsial strukturani tahlil etishda odatda quyidagi sotsial hodisalar ko’rib

chiqiladi: sotsial maqom, sotsial rol, sotsial differentsiatsiya, sotsial stratifikatsiya, sotsial notenglik, sotsial mobillik, sotsial marginallik, sotsial institutlar va boshqalar.

Umuman, jamiyatning sotsial strukturasi barcha jamiyatlar uchun xos bo'lib, ularning shakllari, funktsiyalari, ta'siri natijalari turli jamiyatlarda fuqarolarning milliy qadriyatları, tarixiy rivojlanish tajribasi, siyosiy va huquqiy madaniyatga bog'lik holda turlicha bo'lishi mumkin.

**3. Fuqarolik jamiyati** - insoniy taraqqiyot uchun zaruriyat sifatida. "Fuqarolik jamiyati" tushunchasining ildizi (civil society) qadimgi grek faylasuflari va boshlab Sitseron yozgan asarlarda kuzatiladi. Lekin, grek faylasuflari fuqarolik jamiyati haqida fikrlaganida asosan davlatni ko'zda tutgan edilar. Fuqarolik jamiyati haqidagi tasavvurlar XVIII asr oxirida bir vaqtning o'zida shotland va kontinental Ma'rifatparvarligi tomonidan tug'ildi. Tomas Peyn va Georg Gegelъ kabi nazariyotchilar fuqarolik jamiyatini davlatga yaqin, lekin, shu bilan birga undan ajralgan soha, qaysiki, bu kabi jamiyatda fuqarolar o'z xohishlari va manfaatlariga bog'liq holda birlashadilar, deb talqin etdilar. Bu yangi talqinlarda iqtisodiy voqeliklarni o'zgarishlari ifodalangan edi: xususiy mulk, bozor raqobati va burjuaziyaning paydo bo'lishi. U tobora o'sib borayotgan erkinlik sari da'vat etish chaqiriqlaridan paydo bo'lgan edi.

XIX asrning o'rtasida jamiyatshunoslar va faylasuflar sanoat inqilobining ijtimoiy va siyosiy oqibatlariga o'z e'tiborlarini qaratganlarida esa fuqarolik jamiyati tushunchasi iste'moldan tushib qoldi. Faqat ikkinchi jahon urushida keyingi davrda Antonio Gramshi fuqarolik jamiyatiga tiraniya bilan kurashishning muhim sohasi va mustaqil siyosiy faoliyatning o'ziga xos otlanish nuqtasi sifatida qarab, uniqaytadan tikladi va bu jamiyat yana rusumga kirdi. Gramshi o'ng oqim diktaturani tadqiq etganligi uchun uning g'oyalari Sharqiy Yevropa, shuningdek, Lotin Amerikasidagi dissidentlar va huquq himoyachilariga kuchli ta'sir qildi. Chex, vengr, polyak faollari doimo fuqarolik jamiyati tushunchasiga murojaat etishar edi. Ayniqsa, 1989

yilda Berlin devori qulagan paytlarda u jasurlik tushunchasining sinonimi sifatida ishlatila boshlandi.

XX asrning 90-yillarida fuqarolik jamiyatni jozibador formulaning so'nggi natijasiga aylandi. Ulkan demokratlashtirishning dunyoviy tamoyillari uning oldida yangi ufqlarni ochdi. AQSh va G'arbiy Yevropada uning jamiyatni yangilashning harakatlantiruvchi kuchi sifatidagi o'rniga nisbatan qiziqishlar kuchaydi, shuningdek, davlat va hukumatta'sirlari kamayib borayotgan rivojlanayotgan mamlakatlar ichida ham u keng tarqala boshladi.

Tarixiy taraqqiyot tajribasidan ma'lumki, inson jamiyat tomonidan oliy ijtimoiy qadriyat manbalari sifatida namoyon bo'lishi eng yechimini topish eng qiyin muammolardan biridir. Chunki, bu kabi sharoitlarda insonni mansabdarlar va ularning apparatini irodasi asosida faoliyat yuritishdan boshqa chorasi qolmaydi, inson davlat mashinasining bir murvatiga aylana boshlaydi. Shaxs o'zining turmushini o'zgartirish qobiliyatiga ega bo'lmasdan, u xalqaro munosabatlarda "inson huquqlari manbasi" deb ataladigan o'z insoniy qadr-qimmatini e'zozlaydigan erkinlik me'yorlaridan baha ololmaydi.

Shuning uchun ham fuqarolik jamiyatini xalqaro tajribalar va milliy an'analar asosida shakllantirish inson erkinligi va huquqlarini ta'minlashning asosiy kafolati sifatida shakllantirish inson taraqqiyoti uchun eng zaruriy omildir. Hozirgi davrda jamiyatga doir zamonaviy nazariyalarda fuqarolik jamiyatining quyidagi asosiy uchta tarkibiy qismlari quyidagicha ta'rifланади:

- ijtimoiy ahamiyatga molik funktsiyalarni sezilarli qismini amalga oshiradigan jamoat birlashmalarini rivojlanganligi; "shaffof" hukumat va parlamentning mavjudligi; uning "shaffof"ligi jamiyat nazorati ostida va fuqarolarning baholashlari bilan bog'liq ekanligi bilan ifodalanadi;
- hukumat va nodavlat tashkilotlar o'rtasida "de-yure" talablari doirasidagi muloqotlarning mavjudligi, yoki, boshqacha aytganda, ijroiya hokimiyati tizilmalari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini

amalga oshirish va siyosiy qarorlar qabul qilish jarayoniga ta'sir eta olishning legitim usullarini shakllanganligi.

Shu bilan birga, jamiyatni qonunlar asosida boshqarilishi ham ob'ektiv zaruriyat hisoblanadi. Lekin, boshqaruv tizimida ba'zi mansabdorlarning byudjetni ijro etishi va turli resurslarni taqsimlash va boshqaruv faoliyatida qonunlar bilan belgilanmagan turli ruhsatnomalar berish, tadbirkorlikni nazorat qilish kabi turli byurokratik vositalar paydo bo'ladiki, ular doimo jamiyatni rivojlanishiga to'siq bo'lib kelgan. Shuningdek, bu kabi holatlar ob'ektiv zarurat hisoblanmaydi. Ularning barchasi boshqaruv an'analaridan chiqarib tashlanishi zarur.

Umuman, fuqarolik jamiyatining yashashi va rivojlanishi uchun davlat organlari quyidagilarga amal qilishiga zarurat tug'iladi:

- qarorlar qabul qilishva ularni ijrosini amalga oshirishda u yoki bu ijtimoiy tizilmalar bilan kelishib faoliyat ko'rsatishi shart ekanligi;

- davlat organlari vakolatlarini bir qismini nodavlat tashkilotlarga o'tkazish.

Shuningdek, davlat apparati funktsiyalarini nodavlat tashkilotlarga o'tkazib borish bilan boshqaruv tizimi ham demokratiyalashib boradi. Masalan, Buyuk Britaniyada davlat organlari faqat nodavlat tashkilotlari bajara olmaydigan yoki bajarishni istamaydigan funktsiyalarini bajaradi (ya'ni qoldiq printsipiga amal qiladi).

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida shunday xulosa chiqarish mumkin: vertikal ierarxiya asosida boshqarish manbai insonlardan iborat bo'l ganzaruriy qadriyatlarni shakllanishini izdan chiqarib turadi. Shuning uchun ham boshqaruvda davlat va jamiyatning rolini muvozanatlashtirish boshqaruvni modernizatsiyalashning ustuvor yo'naliши hisoblanmoqda.

Shuning uchun ham davlat boshqaruviga doir (ma'muriy) islohotlarni amalga oshirishning kafolati fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish bilan uzviy ravishda bog'liqdir. Chunki, inson taraqqiyotining asosiy komponentlaridan biri, bu – inson taqdirini hal

etish, uning huquq va erkinliklarini ta'minlanishiga doir boshqaruv jarayonida uning o'zi bosh manfaatdor sifatida ishtirok etishi taqozo etiladi.

Ma'lumki, g'arbda ma'muriy islohotlar asosiga subsidiarlik printsipi qo'yilgan bo'lib, u asosan g'arbda rivojlangan quyidagi diniy qadriyatni dunyoviylik asosida hal etish bilan bog'liq bo'ldi: "Shaxsning o'z tashabbusi va kuchi bilan qiladigan narsalardan mahrum qilish va uni jamoatga taalluqli deyish mumkin emas. Xuddi shuningdek, qattaroq va yuqori darajadagi hamjamiyatning kichik va itoatkor hamjamiyat qilishi va oxiriga yetkazishi mumkin bo'lgan ishga da'vogarlik qilishi ham xuddi yuqoridagidek, ijtimoiy tartibot uchun nihoyatda zararli bo'lgan nosog'lom muhitdir".

Hozirgi davrga kelib fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanib borishi bilan davlat boshqaruvini nomarakazlashtirish (detsentralizatsiyalash) uchun ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik shart-sharoitlar yaratiladi. Bu jarayon davlat boshqaruvini erkinlashtirish (liberallashtiish) va ma'muriy islohotlarning eng asosiy sharti hamdir.

Fuqarolik jamiyati shakllanib borgani sari mansabdorlar faoliyatini milliy manfaatlar, jamiyat baroqarorligi va xalq farovonligi asosida kechishi uchun shart-sharoitlar shakllanib boradi. Chunki, jamiyatning manfaatlari bilan shaxsning manfaatlari uyg'unlashgan fuqarolik jamiyati sharoitida fuqarolarning huquqlar ham manfaatlar asosida insoniy birlklarga uyushish va shu asosda hokimiyat organlarini nazorat qilish, ularda ishtirok etish mayllari shakllanib va o'sib bordi.

Fuqarolik jamiyati sharoitida markaziy hokimiyatda milliy manfaatlar bilan bog'liq yirik vakolatlardan boshqasi mahalliy hokimiyat organlari va fuqarolik jamiyati institutlariga uzatiladi. Hududiy o'zini o'zi boshqarish organlari, o'z navbatida, fuqarolarning ixtiyoriy birlashuvi o'z zimmasiga olmagan yoki u rad etganidan boshqa vakolatlarni amalga oshira boshladи. Bu holatda konsensusga erishish printsipiga asoslanildi. Bu printsip ko'pincha ma'muriy shartnomalarda ifodalana boshlaydi.

Rivojlangan mamlakatlarda huquqiy davlatning paydo bo'lishi fuqarolik jamiyati tushunchalarini talqin etishga ham kuchli ta'sir etdi. Jumladan, fuqarolik jamiyati tushunchasinikeng va tor ma'nolardaishlatish rusumga kirdi. Keng ma'nodagifuqarolikjamiyati - davlat va uning tizilmalari tomonidan jamiyatni egallab olmagan qismi, boshqacha aytganda, davlatningqo'lietmaganqismidir. Bu kabi jamiyat davlatga nisbatan avtonom, bevositaunga qarambo'lman qatlam sifatidarivojlandi. Shuningdek, fuqarolikjamiyati keng ma'nodafaqat demokratik qadriyatlari muhitidagina emas, balkiavtoritarizm rejimida ham yashay oladi. Lekin, totalitarizmning paydo bo'lishi bilan fuqarolikjamiyati siyosiy hokimiyattomonidan butunlay «yutib» yuboriladi.

Fuqarolik jamiyati tushunchasi tor ma'noda talqin etilganda, u huquqiy davlatningikkinci tomoni bo'lib, ular bir-birlarisiz yashay olmaydi. Fuqarolik jamiyati bozor iqtisodiyoti va demokratik huquqiydavlat sharoitida davlattasarrufida bo'lmanerkin va teng huquqli individlarning o'zaromunosabatlaridagi plyuralizmdan tashkil topadi. Bunday sharoitlarda jamiyatsohalariga xususiy manfaatlar va individualizmning erkinmunosabatlari qamrab olinadi. Bu kabi jamiyatningshakllanishi, uning rivojlanishi individlarningerkinlikka intilishi, ularningdavlatga tobe bo'lgan fuqarolikdan erkin mulkdor fuqarolarga aylanishi, o'z shaxsiy hurmat-obro'sinihis qila borishi, xo'jalik va siyosiy mas'ullikni o'z zimmasiga olishga tayyor bo'lishi bilan bog'liqdir.

So'nggi yarim asr ichida tarixiy rivojlanish tajribalari shuni ko'rsatdiki, huquqiy davlat unsurlari shakllanmasdan ilgari fuqarolik jamiyatini barpo etish uchun imkoniyatlar va shart-sharoitlar yaratilmaydi. Buning asosiy sababi shundaki, huquqiy davlat qurish islohotlari fuqarolik jamiyati muhitidan oziqlanadi, davlat irodasi ham jamiyatdagi turli tuman manfaatlar va ehtiyojlar ifodalanishiga bog'liq holda namoyon bo'ladi. Shuningdek, huquqiy davlat sharoitidagi erkin raqobatbardoshlik natijasidagina o'rta qatlam - mulkdorlar qatlamini shakllanishi uchun qulay shart-sharoitlaryaratiladi .

3. Fuqarolik jamiyatining sotsial strukturalari va ularning o'zigaxos jihatlari. Jamiyatni rivojlantirish, huquqiy davlatga asos solish, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish va ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtirokini faollashtirish, bozor iqtisodiyotiga o'tish, davlat hokimiyati organlarini tizimini nomarkazlashtirish natijasida fuqarolik jamiyati qurish uchun shart-sharoitlar yaratiladi. Fuqarolik jamiyati rivojlanib borgani sayin sotsial strukturalar ham takomillashadi, uning yangidan-yangi funktsiyalari paydo bo'ladi. Fuqarolik jamiyati sharoitida sotsial strukturalarga tasnif berish ijtimoiy tuzilmasi to'g'risidagi bilimlarnitahlil etishda unga doir kategoriylar to'g'risida tasavvurlarga ega bo'lish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun fuqarolik jamiyati klassik darajada rivojlangan Yevropa namunasidagi fuqarolik jamiyati kontseptsiyasining mohiyati nimada?, degan savolga javob berishga zarurat tug'iladi.

Bu kontseptsiyada fuqarolik jamiyatining muhim mezoni sifatida erkin fuqarolik jamoalarning teng huquqli, avtonom va faol xattiharakat qilayotgan individlarning mavjudligi yaqqol ajratib ko'rsatilgan. Fuqarolik jamiyati uchun eng muhim mohiyat kasb etuvchi jihatlar – bu alohida olingan individlar o'z shaxsiy xohishlariga bo'ysungan holda, «ijtimoiy manfatlardan» mustaqil holda shaxsiy ehtiyojlaridan kelib chiqib shunchaki o'z oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishishga intilishni emas, balki o'zining mavjud bo'lgan qonuniy manfaatlari va ehtiyojlarini chindan ham qondirishi hisoblanadi.

Bu soha, ya'ni «byurger» xususiy shaxs sifatida o'zini o'zi aniqlagan individuallik o'z xohishlari va shaxsiy avtonomligini qondirishga qaratilgan o'z talablarini ilgari surgan shaxsiy manfaatlari va ehtiyojlarini amalga oshiriadi. Fuqarolik jamiyatida o'zaro ta'sir va bog'lanishlar shuning uchun hamijtimoj (sotsial) kenglik deyiladiki, ular xususiy individ sifatida sotsial aktorlardan ham mustaqil ajralgan holda ham faoliyat yuritishi mumkin.

G'arb namunasidagi fuqarolik jamiyatining strukturasi quyidagilardan iborat:

–jamiyatning asosiy birligi – siyosiy qaramlikdan holi bo’lgan, o’z huquqlaridan foydalanishga qobil bo’lgan shaxs;

–turli tuman manfaatlarni ifodalash va amalga oshirish zaruriyati asosida shakllanadigan jamoat tashkilotlari va harakatlar;

–nodavlat ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar va institutlar (xususiy mulk, mehnat, tadbirkorlik va hokazo);

–davlatdan mustaqil bo’lgan ishlab chiqaruvchilar (xususiy firmalar va boshqalar);

–jamoat birlashmalari va tashkilotlari;

–saylovchilar uyushmalari, turli klublar va to’garaklar;

–munitsipal, ya’ni o’zini o’zi boshqarish organlari;

–ta’lim va tarbiyaning nodavlatsohasi;

–nodavlat ommaviy axborot vositalari;

–siyosiy partiylar, qonun chiqaruvchi va vakillik organlari atrofidagi davlat bilan fuqarolik jamiyatini (bog’lovchi bo’g’in» sifatidagi) turli lobbi tashkilotlari;

–tadbirkorlar, fermerlar tashkilotlari, kasaba, iste’molchilar uyushmalari, ilmiy va madaniy tashkilotlar, sport jamiyatlari va boshqalar.

–oila;

–diniy tashkilotlar va boshq. (3.1.-rasm).

Sotsial struktura ichidagi fuqarolik jamiyatining asosi - davlat va siyosiy tashkilotlarning barqarorligiga zaruriyat sezadigan o’rta sirnf hisoblanadi. «O’rta sinf»ning vakillari yuqori darajada sotsial va iqtisodiy mustaqillikka ega bo’ladi. Aristoteldan boshlab Russo va Gegelgacha bo’lgan barcha mutafakkirlar xususiy mulkni mustaqil fuqarolar yaratishdagi o’rnini e’tirof etgan.

Shuningdek, qator tadqiqotchilar fuqarolik jamiyatini rivojlanishini quyidagi isbot talab qilmaydigan jihatlarini ajratib ko’rsatdi:

–fuqarolik jamiyati davlatgacha yoki davlatdan tashqarida mavjud bo’lmaydi;

–ayni davlat, qaysiki fuqarolik jamiyatni uning chegarasi ichida mavjud bo’ladigan davlat fuqarolarning farovonligi va ularning alohida maqsadlariga (agar bu maqsadlar qonunga xilof bo’lmasa) mansub jihatlarni himoya qiladi;

–fuqarolik jamiyatni davlatdan fuqarolarning hayotini, sog’lig’ini, xavfsizligini va boshqa ijtimoiy manfaatlarini himoya qilishni talab qilishga haqlidir;

–bir tomondan moddiy mo’l-ko’lchilikda yashayotgan, ikkinchi tomondan muhtojlikda turmush kechirayotgan o’rtasidagi ziddiyatlarni yumshatuvchi ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish majburiyati davlat zimmasiga klanadi;

–davlat o’zining tashqi siyosati va mudofaa qudrati bilan fuqarolik jamiyatini yashashini ta’minlaydi.

Hozirgi davrda jamiyatshunos olimlar tomonidan fuqarolik jamiyatini strukturalashning uchta asosiy yondashuvini ilgari surdi: instituttsional, tizimli va sektorli. Ularni ichida instituttsional yondashuv kengroq tarqaldi. Bu yondashuv asosi sifatida tarixiy rivojlanish jarayonidaodamlarning sotsial xatti-harakatlari va sotsial aloqalarini muvofiqlashtirish maqsadi zaruriyati sifatida paydo bo’lgan ijtimoiy hayot birligi (uyushmasi) sifatida shakllangan «sotsial institut» tushunchasi qabul qilingan. Bu tavsifga tayangan holda, institut sifatida ham bir butun holdagi fuqarolik jamiyatini, ham uni tarkibiy qismlarini alohida-alohida tarzda ko’rib chiqish mumkin. Bunda fuqarolik jamiyati bozor munosabatlari asoslari, demokratik davlat, asosan – davlatdan mustaqil ravishda yashash (avvalambor, moliyaviy) manbalari mavjud bo’lgan sotsial sinflar va qatlamlar mavjudligi bilan tavsiflanadigan ijtimoiy munosabatlarning yaxlit tizimi sifatida namoyon bo’ladi. Bu fuqarolik institutlarbir butun jamiyatga mansub bo’lgan, uning biron-bir qismi yoki tizim ostiga taalluqli bo’lмаган, balki uning rivojlanishining muayyan bosqichida turishi bilan ifodalananadigan institutlardir.

Instituttsional yondashuvning muhim tomoni shundaki, u fuqarolik jamiyatining u yoki bu manfaatlarni amalga oshirayotgan alohida olingan omillarini ajratish va tavsiflash imkonini beradi.

Shuningdek,fuqarolik jamiyatini strukturalashning tizimli yondashuvi ham o'zining qator afzalliklariga egadir. Shuning uchun ham turli jamiyatga doir adabiyotlarda ko'pincha «struktura» tushunchasi «tizim» sinonimii sifatida ishlataladi. Bu kabi nuqtai nazardan kelib chiqilsa, har bir mamlakatdagi fuqarolik jamiyati quyidagi tizimiyl belgilarga ega bo'ladi: u biron-bir sotsiallik turiga mansub (keng ma'noda) bo'lib, boshqaruvchi va boshqariluvchi tizimlarga bo'linish, muayyan darajadagi suverenlik, ierarxiyalik, barqarorlik, rivojlanib va o'zgarib borish, ochiqlik, turli moslashuvlar, organik birlik (yaxlitlik) vadifferentsyalashish kabi sifatlarga ega bo'ladi.

Fuqarolik jamiyati o'z ichiga qator ostki tizimlarni oladi: iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va ma'naviy. Bu ostki tizimlarning funktsiyalaridan kelib chiqib ularning har biri doirasida alohida-alohida ravishda shakllanadigan fuqarolik jamiyatining uyushmalarini strukturalash mumkin.

Shuningdek, fuqarolik jamiyati strukturasini uch sektorlik nazariya asosida ham ko'rib chiqish mumkin (3.2.-rasm). Uning muhim jihat - bu fuqarolik jamiyatini gorizontal tekislikda (uch sektorga bo'lingan holda), shu bilan birga, uni vertikal, ya'ni ijtimoiy tizimdagi holatini yaxlit tarzda tahlil qilish mumkinligidadir. Gorizontal bo'lish deganda faoliyatları ustuvorligidan kelib chiqib jamiyatni uchta teng huquqli sektorlarga bo'lish tushuniladi. Dastlabki ikki sektor davlat va siyosiy institutlar va ishbilarmon xususiy tashkilotlar va korxonalar. Hozirgi davrda uchinchi – foyda olishni ko'zlamaydigan sektor ham paydo bo'ldi. Bu sektor aholining o'z oldiga shaxsiy daromad olishni qo'ymaydigan guruhlari va tashkilotlarini o'z ichiga oladi. Uchinchi sektorga oila bilan hukumat va foyda keltiruvchi biznes vakillaridan iborat sektor o'rtaida rivojlangan faollashuv sektori sifatida qaraladi. Bu qarashlarga muvofiq vertikal ravishda bo'linishda uchta daraja –

faoliyatga oid bo'lgan fuqarolik faolligi (xususan, fuqarolik jamiyati) vanofuqaroviylar hamjamiyat (jinoiylikka taalluqli bo'lgan) darajalari mavjudligini ifodalaydi.

Faoliyatga oid daraja o'z ichiga siyosiy institut sifatida davlat, iqtisodiy va biznes-strukturalar, foyda olishni ko'zlamaydigan tashkilotlar doirasida amalga oshadigan barcha yuridik jihatdan rasmiylashgan aloqalar va munosabatlarni oladi. Nofuqarolik jamiyati – bu barcha uchta sektordagi norasmiy (yashirin) va jinoiy faoliyatga moyil guruhlardir. Bu darajalar orasiga jamiyat faoliyati sohasining o'rta holati sifatida, bir tomonidan, huquqiy maydon doirasida, ikkinchi tomonidan, davlat tomonidan muvofiqlashtirilmaydigan fuqarolik jamiyati joylashadi.

Albatta, fuqarolik jamiyatining sotsial strukturalarini o'rganishda uchchala yondashuvning har biriga ehtiyoj seziladi. Fuqarolik jamiyatida ishtirok etayotgan har qanday omil institutlashadi, o'zining ustuvor maqsadlariga bog'liq holda sektorlarga bo'linadi, o'ziga xos muayyan muhitda faoliyat yuritadi. Ularning hammasini bir doiraga jamlanishi ostki tizimlarga bo'linadigan fuqarolik jamiyatini tashkil etadi.

Aksariyat jamiyatshunos olimlarning fikricha, fuqarolik jamiyatining strukturalari quyidagi belgilari bilan tavsiflanadi:

- sotsiallik (sotsial manfaatlar va intilishlarni artikulyatsiya qilish, odamlar va buyumlar o'rtasidagi emas, balki, odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar va aloqalar;

- davlatdan ayro bo'lgan o'zini o'zi boshqarish (avtonomlik);

- fuqaroviylilik (tsivilizatsiyaga erishganlik, ya'ni butun bir jamiyat va boshqalarning manfaatlarini e'tiborga olish qobiliyatiga ega bo'lish,, huquqiy doira ichida xatti-harakat qilish);

- ishtirok va aloqalarning ixtiyoriyligi (vertikal aloqalar ustidan gorizontal alqalarning ustunligi).

Agar mazkur yondashuvga asoslanilsa, unda fuqarolik jamiyatining strukturalariga ixtiyoriy notijorat tashkilotlar (xayriya, huquqni himoya qilish, volontyor va boshq.), ijtimoiy qatlamlar

manfaatlariga doir guruhlar (kasaba uyushmalari, tadbirkorlik, fermerlar, ayollar, yoshlar nodavlat tashkilotlari) yoki biror maqsadga qaratilgan (madaniy, sport) tashkilotlar, shuningdek sotsial harakatlar (ekologik, urushga qarshi va boshq.) tegishli ekanligi ko'zga yaqqol tashlanadi.

Fuqarolik jamiyatini rivojlanish tajribasi shuni ko'rsatdiki, yuqorida berilgan tavsiflarga muvofiq va mos keladigan ba'zi nodavlat tashkilotlar bilan fuqarolik jamiyati o'rtasidagi chegara, demak ular doirasida harakat qilayotgan tashkilotlar o'rtasidagi o'xshashlik yo'qolib ketdi.

Shundan kelib chiqib, faoliyatları fuqarolik jamiyati uchun g'oyatda muhim bo'lgan siyosiy partiyalar, biznes-hamjamiyatlar, ommaviy axborot vositalari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish kabilarni jamiyatdagi o'rnini tavsiflash maqsadida chegaraviy, yoki gibrid shaklidagi tushunchalar taklif qilindi. Ana shunday chegaraviy sohaga «quyidagi» manfaatlarni ifodalovchi, fuqarolik jamiyati tizimida oraliq joyni egallovchi mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari tegishlidir.

Fuqarolik jamiyatini siyosatdanbutunlay yiroq turadigan munosabatlar va institutlar tizimi sifatida tavsiflamaslik lozim. Bu jamiyatning genezisi va tabiatni turli tuman manfaatlarni davlat siyosatini belgilash jarayonida jamiyatdagi fuqarolar irodasi sifatida ifodalashi uchun iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy, oilaviy, madaniy va boshqa ijtimoiy munosabatlarni yetarli darajada tizimning tarkibiy qismlariga aylantira oladi. Bu tizim doirasida turlicha jamoat tashkilotlari, harakatlar, siyosiy partiyalar (idora etuvchi partiyadan tashqarilari), diniy tashkilotlar, iqtisodiy uyushma va birlashmalar, va nihoyat, insonning o'zi shaxs sifatida o'zining oilaviy, kasbiy, xizmat ko'rsatishga oid va boshqa turli tuman manfaatlari hamda ehtiyojlarini qondirish uchun harakat qiladi.

Yangi ijtimoiy individlar – teng fuqarolik huquqlariga va o'zlariga xos fuqarolik sifatlariga ega bo'lgan fuqarolar paydo bo'lmasdan turib fuqarolik jamiyatining yashashi, uning shakllanishiga erishib bo'lmaydi. Inson qachonki yuksak axloqiy fazilatlar,

demokratik qadriyatlar bilan uyg'unlashtirishga asoslangan ilg'or dunyoqarash, shaxsiy qadr-qimmati, mustaqilligi va individualligini boshqa fuqarolarning huquq va erkinliklarini hurmat qilish bilan muvozanatda qadrlash, qonunlar va umuminsoniy jamiyat hayoti qoidalariga amal qilish kabilarni o'z hayot tarziga aylantirganidagina fuqarolik darajasiga erishadi. Fuqarolik jamiyatiga xos bo'lган yangi avlodga mansub bo'lган shaxs jamoat tashkilotlari va ijtimoiy institutlar bilan bo'lakcha o'zaro munosabatlarda bo'ladi. Yetarli darajada rivojlangan fuqarolik jamiyati yangi individlar nafaqat jamoaga qorishib va birikib ketadi, balki o'zining shaxsiy individualligini namoyon qila oladi, yuksak ma'naviy qarashlarga ega bo'ladi. Bunday holatga erishish faqat odamlarning ruhiyati va dunyoqarashini tubdan o'zgartirganida, ularning iqtisodiy va sotsial maqomini yangi jamiyatga xos tarzda o'zgarganidagina ro'y beradi.

Fuqarolik jamiyati tarixiy rivojlanishning tadrijiy yo'li hosilasi sifatida asta-sekiinlik bilan rivojlanadi. Bu kabi jamiyatning shakllanishi uchun muayyan shart-sharoitlar bo'lshiga zaruriyat tug'iladi:

-fuqarolik jamiyati ikki xil yo'l bilan – davlat yordamida (vositasida) yoki mustaqil ravishda shakllanishi mumkin. Mazkur jamiyatning davlat yordamida shakllanishi – bu jamiyatni shakllantirishga doir muayyan qonunlarni ishlab chiqilishi, demokratik strukturalarni rivojlantirish, davlat tomonidan umum qabul qilingan me'yorlarga qat'iy amal qilish. Mustaqil ravishda shakllanish – bu o'rta mulkdorlar qatlaming jamiyatdagi hissasi ustuvor ahamiyat kasb eta boshlaganida, fuqarolar huquqiy madaniyati demokratik printsiplar talablari darajasiga ko'tarilganida, erkin fikrlaylaydigan fuqarolarning jamiyatga ta'siri sezilarli darajaga ko'tarilganida fuqarolik jamiyati tadrijiy yo'l bilan shakllanishi mumkin;

-fuqarolarning ko'pchilik qismini o'z shaxsiy mulkiga ega bo'lishi, uni turli shakllar va huquqlar doirasida mustaqil ravishda tasarruf etish huquqiga ega bo'lishi, shuningdek mulkdorlar qatlamining mustaqil ijtimoiy birlik sifatida rivojlanishi natijasida fuqarolik

jamiyati shakllanishi uchun iqtisodiy shart-sharoilar tug'ilishi mumkin. G'arb tadqiqotchilarining fikricha, xususiy mulkning mavjudligi fuqarolik jamiyati sharoitida shaxsning erkinligini tayanch (bazaviy) sharti hisoblanadi;

-fuqarolik jamiyatini shakllanishi uchun jamiyatda rivojlangan va turli tuman sotsial strukturalar yetilgan bo'lishi lozim. Bu strukturalar jamiyatdagi barcha fuqarolar ijtimoiy qatlamlari, guruhlari vakillarining turlicha manfaatlarini o'zida ifodalaydi;

-shaxsning sotsial, intellektual, psixologik jihatlardan rivojlanganligi, uning mustaqil faoliyat yuritish uchun ichki erkinligi va qobiliyatini shakllanganligi.

Hozirgi davrdagi gumanitar-ijtimoiy fanlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida fuqarolik jamiyati murakkab, ko'p darajali aloqalar va strukturalar tizimi sifatida talqin etilmoqda. U o'z ichiga barcha davlat faoliyati doirasidan tashqarida rivojlanadigan shaxslararo munosabatlarnioladi.

Birinchi daraja. Fuqarolik jamiyatidagi shaxslararo munosabatlarning mazkur darjasи – bu individlarning turmush kechirishni ta'minlovchi tayanch (birlamchi), ya'ni oziq-ovqat, kiyimbosh, uy-joy kabilarga nisbatan paydo bo'ladigan ehtiyojlardir. Bu ehtiyojlar kasbiy, iste'molchilar va boshqa uyushmalar (masalan, xususiy korxonalar, aktsionerlik jamiyatlari, vrachlar, quruvchilar, hunarmandlar birlashmalari va boshq.) kabi ijtimoiy institutlar vositasida amalga oshiriladi;

Ikkinci daraja. Bunda umrni uzaytirish bilan bog'liq bo'lган, sihat-salomatlik, bolalar tarbiyasi, ma'naviy-madaniy yuksalish, axborot, muloqotlar kabilarga doir ehtiyojlardan kelib chiqadigan shaxslararo munosabatlar. Bu munosabatlar ma'naviy, etnik, diniy, oila-nikoh va boshqa shakllardagi o'zaro aloqlarni o'z ichiga olgan sotsiomadaniy majmuani tashkil etadi. Bu darajadagi ehtiyojlar oila, ta'lim, ilmiy, ijodiy, sport uyushmalar, diniy maskanlar, madaniyat muassasalari, ommaviy axborot vositalari kabi institutlar vositasida qondiriladi.

Uchinchi daraja. Bunda ijtimoiy-siyosiy ishtirok ehtiyojlari nazarla tutiladi. Mazkur darajada shaxslararo munosabatlar o'zi afzal deb bilgan siyosiy qarash va qadriyatlarga ega bo'lish asosidagi individual tanlov bilan bog'liqdir. Mazkur daraja individa aniq siyosiy va ijtimoiy nuqtai nazarlar shakllanishini talab etadi. Bu darajadagi ehtiyojlar siyosiy partiyalar, harakatlar va boshqa uyushmalar vositasida qondiriladi.

Shuningdek, jamiyatshunos olimlar fuqarolik jamiyatining uchta asosiy sohalardagi strukturalarini bir-biridan ajratib, ularni quyidgaicha ifodalaydi: iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy.

Iqtisodiy sohada fuqarolik jamiyatining struktusi quyidagilardir: iqtisodiy faollikning individual shakllari; jamoaviy xo'jaliklar, kooperativlar, xususiy korxonalar va aktsionerlik jamiyatları (sanoat, savdo, moliyaviy sohalarda); tarmoqlar bo'yicha birlashmalar va uyushmalar (tadbirkorlar, fermerlar, sanoatchilar, banklar, neftchilar kabilar birlashmalari). Bu korxona va tashkilotlar fuqarolarning o'z tashabbuslari bilan tuziladi. Ular bilan bir qatorda davlatning unitar korxonalari ham faoliyat yuritishi mumkin. Raqobatchilik aloqalari va manfaatlarni intergatsiya qilish masalalari erkin bozor iqtisodiyoti qonunlari bilan hal etiladi.

Fuqarolik jamiyatining ijtimoiy-siyosiy sohasi o'z ichiga quyidagilarni oladi: fuqarolar ijtimoiy-siyosiy faolligining turli shakllari (majlislar, namoyishlar va boshq.); ijtimoiy, siyosiy tashkilotlar va harakatlar (kasaba uyushmalari, kam ta'minlangan qatlamlarlarga yordam uyushtirish jamiyati, nogironlar jamiyati, partiyalar va boshq.); o'zini o'zi boshqarish organlari va nodavlat ommaviy axborot vositalari. Ularning an'anaviy strukturaviy unsurlari: oila, sotsial guruhlar va birliklar. Bu mohada ijtimoiy fikrni shakllantirish va ifodalash, umum qabul qilingan me'yorlar va qadriyatlarni joriy etish, sotsial ixtiyojlarni kelishtirish, sotsial birliklarni o'zini o'zi tashkillashtirishni rag'batlantirish, fuqarolar hamkorligi asosida o'zaro yordamlar uyushtirish.

Fuqarolik jamiyatining ma'naviy sohasi bevosita odamlarning ma'naviy-axloqiy jihatlardan rivojlanishi, ularning ilmiy va badiiy ijodiyoti, madaniy rivojlanishi bilan bog'liqdir. Bu sohadagi fuqarolik jamiyatining unsuri - bu so'z va vijdon erkinligidir. Ularni amalga oshirish alohida olingan shaxslarning o'z e'tiqodlarini himoya qilish, o'z fikrini oshkora ayta olish, o'z shaxsiy g'oya va kontseptsiyalarini rivojlantirish imkoniyatlariga ega bo'lish, ijodiy tashabbuskorlik vao'zini o'zi rivojlantirish uchun shart-shapoitlar yaratishni ifodalaydi. Bu soha o'z ichiga mustaqil faoliyat yuritadigan ijodiy, ilmiy, madaniy, ma'naviy, ma'rifiy va boshqa uyushmalar, birlashmalar va tashkilotlarni oladi (masalan, yozuvchilar, rassomlar, kompozitorlar, uyushmalari, ilmiy hamjamiatlar, madaniy va ma'rifiy tashkilotlar, diniy maskanlar va boshq. (3.3.-rasm).

Fuqarolik jamiyati strukturasi o'zida jamiyatni sotsial-tabaqaviy jihatdan bo'lishni aks ettirsa ham u aslida jamiyat (suveren va mustaqil) sub'ektlarining erkin o'zaro ta'siri hamda bog'lanishlari natijasi o'laroq shakllanadi. Fuqarolik jamiyati manfaatlar muvozanatiga asoslanganligini uchun ham uni strukturalarini tavsiflashda asosiy ahamiyat kishilarni turli birliklarga birlashtirish va ularning a'zolik tabiatini ochib beradigan uyushfunksionaltahlilga qaratiladi. Bu xulosalardan yana bir muhim holat kelib chiqadi. Fuqarolik jamiyatining strukturasi o'zida gorizontallik tabiatinikasb etadi. Unda davlatdan farq qilib, vertikal aloqalar (bo'ysunish) emas, balki gorizontal munosabatlar ustunlik qiladi. Fuqarolik jamiyatida erkin va yuridik jihatdanteng huquqli hamkorlarning o'zaro munosabatlari (raqobat, qarama-qarshilik, hamkorlik, birdamlik) shakllanadi. Fuqarolik jamiyatining strukturalari o'zini o'zi tashkil etuvchi, o'zini o'zi boshqaruvchi sifatidagi teng huquqli sub'ektlar (hamkorlar, o'zaro nartnama tuzuvchilar) va ixtiyoriy hamda erkin istak bildirishlar natijasida paydo bo'ladi.

Shu tariqa, fuqarolik jamiyati faqat tizimli sifat kasb etganidagina o'zining sotsial harakatchanligiga va yetukligiga erishadi, deb xulosa qilish mumkin. Bu tizimlilik ierarxik emas, balki muvofiqlashtirish

tarzini kasb etadi. Bunda barcha sotsial birliklar (manfaatlarni ifodalash asosida tashkil topgan guruhlar) bir-birlariga bo'ysunmaydi, balki o'zaro aloqalar asosida faoliyat yuritadi. Fuqarolik jamiyatining boshlang'ich mezonlari – bu manfaatlar, huquq va shaxs erkinligidir. Erkinlik va adolat fuqarolik jamiyati sharoitida odamlar faoliyatini yo'lga qo'ygan holdasotsial omillik kasb etadi.

### **Mavzu yuzasidan talabalar bilimini baholash uchun testlar**

**1. Bir yoki bir nechta belgilar – daromad, yashash, ta'lim darajasi va boshqalar orqali ajratilgan ijtimoiy jamoalar qanday nomlanadi:**

- a) status guruhlari;
- b) ijtimoiy jamoalar;
- v) ijtimoiy qatlamlar.

**2. "Jamiyatning ijtimoiy strukturasi" tizimiga kiritilgan tushunchalar:**

- a) ijtimoiy-sinf tuzilishi, ijtimoiy farqlash, ijtimoiy taraqqiyot, ijtimoiy qatlam;
- b) ijtimoiy sinf, ijtimoiy-sinf tuzilishi, ijtimoiy farqlash, ijtimoiy qatlam;
- v) ijtimoiy sinf, ijtimoiy-sinf tuzilishi, ijtimoiy o'zgarishlar, aholining ijtimoiy tarkibi.

**3. Muayyan jismoniy makonda to'plangan ba'zi odamlar:**

- a) yarim guruh;
- b) yig'ish;
- v) ijtimoiy guruh.

**4. Insoniyatning tarixiy jihatdan rivojlangan guruhi, kelib chiqishi va yashash joylari birligi bilan bog'liq umumiylirsiy xususiyatlar qanday tavsiflanadi:**

- a) millat;

- b) irqi;
- v) ijtimoiy jamoa.

**5. Ijtimoiy tabaqalanish nazariyasi muallifi:**

- a) K. Marks;
- b) P. Sorokin;
- v) G. Spenser.

**6. Jamiyatning kam ta'minlangan resurslarini aholining turli qatlamlari o'rtasida tengsiz taqsimlash:**

- a) ijtimoiy harakat;
- b) ijtimoiy tengsizlik;
- v) ijtimoiy tabaqalanish;

**7. Bolalarning ota-onalariga nisbatan yuqori yoki pastroq ijtimoiy mavqega ega bo'lishini nazarda tutadigan ijtimoiy mobillik turi:**

- a) intrapartikulyar harakat;
- b) interpokolenik harakat;
- v) shaxsiy mobillik;

**8. Yashash joyini o'zgartirish, odamlarni ijtimoiy mavqeい o'zgarishi bilan boshqa hududga ko'chirish:**

- a) gorizontal harakat;
- b) migratsiya;
- v) guruh harakatchanligi.

**9. Jismoniy shaxslar, ijtimoiy guruhlarni bir qatlamdan ikkinchisiga ko'chirish, ularning ijtimoiy mavqeい sezilarli darajada o'zgarib turishi bu-:**

- a) gorizontal harakat;
- b) guruh mobilligi;
- v) shaxsiy mobillik.

## **10. Jamiyatning ijtimoiy tuzilishidagi shaxsning o'rni nima deyiladi?**

- a) ijtimoiy qatlam
- b) ijtimoiy guruh
- v) ijtimoiy maqom

### **Nazorat savollari**

1. Sotsializatsiya kishilarga ijtimoiy-madaniy me'yorlarni singdirish va sotsial rollarni o'zlashtirish sifatida.
2. Sotsializatsiya jarayoni: bosqich va davrlari.
3. Birlamchi va ikkilamchi sotsializatsiya.
4. Sotsializatsiya agentlari va institutlari.
5. Desotsializatsiya va resotsializatsiya
6. Ijtimoiylashuv va sotsial me'yorlar

### **ADABIYOTLAR**

1. Aliqoriev N.S., Ubaydullaeva R. va boshqalar. Umumiy sotsiologiya. - Bishkek, 1999.
2. Sotsiologiya tarixi. - T.: ToshDU, 1999.
3. <https://fayllar.org/>

## **8-MAVZU. SOTSIAL STRATIFIKATSİYA VA SOTSIAL MOBILLIK**

**Reja:**

- 1. Sotsial stratifikatsiya tushunchasi, uni o'rganishdagi yondashuvlar**

- 2. Stratifikatsiya modellari va turlari**
- 3. Sotsial mobillik tushunchasi va uning turlari**
- 4. Jamiyat sotsial stratifikatsiyasidagi o‘zgarishlar va uning o‘ziga xos jihatlari**

**Tayanch atamalar:** Guruh, stratifikasiya, birlamchi guruh, ikkilamchi sotsial guruh, rasmiy guruhlar, norasmiy guruhlar, referent guruh, guruh dinamikasi, sotsial mobillik, guruhiy mutanosiblik

"Stratifikasiya" atamasi sosiologiya tomonidan geologiyadan olingan bo'lib, u yer qatlamlarining joylashishini anglatadi. Ijtimoiy stratifikasiya-turli ijtimoiy pozisiyalarni taxminan bir xil ijtimoiy maqom bilan birlashtirib, vertikal ravishda (ijtimoiy ierarxiya) qurilgan ijtimoiy tengsizlik g'oyasini aks yettiruvchi maxsus qatlamlarga (qatlamlarga) bo'linishi.

Jamiyatning tabaqalarga bo'linishi ular o'rtasidagi ijtimoiy masofalarning tengsizligi — tabaqalanishning asosiy xususiyatiga asoslanadi. Ijtimoiy qatlamlar farovonlik, kuch-quvvat, ta'lim, dam olish va iste'mol ko'rsatkichlariga ko'ra vertikal va qat'iy ketma-ketlikda joylashtirilgan.

Ijtimoiy tabaqalanishda odamlar (ijtimoiy pozisiyalar) o'rtasida muayyan ijtimoiy masofa o'rnatiladi va ijtimoiy tabaqalar ierarxiyasi shakllanadi. Shunday qilib, jamiyat a'zolarining muayyan ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan noyob resurslarga teng emasligi ijtimoiy qatlamlarni ajratadigan chegaralarda ijtimoiy filtrlar o'rnatish orqali belgilanadi.

Masalan, ijtimoiy qatlamlarni daromad, bilim, kuch, iste'mol, ish xarakteri va bo'sh vaqt darajalari bilan farqlash mumkin. Jamiyatda aniqlangan ijtimoiy qatlamlar muayyan pozisiyalarning ijtimoiy jozibadorligini ifodalovchi ijtimoiy nufuz mezoniga ko'ra baholanadi.

Eng oddiy stratifikasiya modeli-dikotom-jamiyatning elitalar va ommaga bo'linishi. Eng qadimgi arxaik ijtimoiy tizimlarda jamiyatni klanlarga ajratish ular o'rtasida va ichida ijtimoiy tengsizlikni o'rnatish

bilan bir vaqtida amalga oshiriladi. Demak, "tashabbuskorlar", ya'ni muayyan ijtimoiy amaliyotlarga kirishganlar (kohinlar, oqsoqollar, rahbarlar) bor. Ichki jihatdan bunday jamiyat rivojlangani sari, kerak bo'lsa, tabaqalanishda davom etishi mumkin. Shunday qilib kastalar, mulklar, sinflar va boshqalar., paydo bo'ladi.

Jamiyatda rivojlangan tabaqalanish modeli haqidagi zamonaviy g'oyalar juda murakkab — ko'p qatlamlili (polixotomik), ko'p o'lchamli (bir necha o'qlarda amalga oshiriladi) va o'zgaruvchan (ko'p tabaqalanish modellarining birligida bo'lishiga imkon beruvchi): malaka, kvotalar, sertifikatlash, maqomni aniqlash, saflar, imtiyozlar, imtiyozlar va boshqalar.

Jamiyatning eng muhim dinamik xarakteristikasi ijtimoiy harakatchanlikdir. P. A. Sorokinning ta'rifiga ko'ra, "ijtimoiy mobillik shaxsning yoki ijtimoiy ob'ektning yoki bir ijtimoiy pozisiyadan boshqasiga faoliyat orqali yaratilgan yoki o'zgartirilgan qiymatning har qanday o'tishini anglatadi". Biroq, ijtimoiy agentlar har doim ham bir pozisiyadan boshqasiga o'tmaydilar; ijtimoiy pozisiyalarni ijtimoiy ierarxiyada o'zlarini ko'chirish mumkin, bunday harakat "pozitsion mobillik" (vertikal mobillik) yoki bir xil ijtimoiy qatlama (gorizontal mobillik) deb ataladi. Ijtimoiy harakatga to'siqlar qo'ygan ijtimoiy filtrlar bilan bir qatorda jamiyatda bu jarayonni sezilarli darajada tezlashtiruvchi "ijtimoiy liftlar" ham mavjud (inqirozli jamiyatda inqiloblar, urushlar, fathlar va boshqalar.; oddiy, barqaror jamiyatda-oila, nikoh, ta'lim, mulk va boshqalar.). Ijtimoiy harakatning bir ijtimoiy qatlamidan ikkinchisiga erkinlik darajasi asosan jamiyatning yopiq yoki ochiqligini belgilaydi.

Amerika jamiyatida 6 qatlamlari Varner nazariyasi V. L. Varner bir-biriga haqida xalq bayonotlar asosida jamiyatning turli qatlamlari nufuzi haqida nazariyasini ilgari suradi.

Varner nazariyasiga ko'ra, zamonaviy G'arb jamiyatini aholisi olti tabaqaga bo'linadi:

- Boy aristokratla.
- Birinchi avloddagi millionerlar.

- Yuqori ma'lumotli ziyolilar (shifokorlar, huquqshunoslar), ishbilarmonlar (sarmoya egalari).
- Mansabdor shaxslar, kotiblar, qator-fayl shifokorlar, schoolteachers, va boshqa oq-yoqa ishchilar.
- Malakali ishchilar (ko'k-yoqa ishchilar). Elektrchilar, chilangarlar, payvandchilar, turnerlar, haydovchilar va boshqalar.
- Boshpanasiz vagabondlar, tilanchilar, jinoyatchilar va ishsizlar.

### **Ijtimoiy tabaqalanishning tarixiy shakllari o'rtasidagi farqlar**

Ijtimoiy tabaqalanishning tarixiy shakllari ijtimoiy tabaqalanish zaminlaridagi "filtrlar" ning qat'iylik darajasi bilan farqlanadi.

**Kastalar**-ijtimoiy liftlar butunlay o'chirilgan ijtimoiy ierarxiyadagi odamlar guruhlari, shuning uchun odamlar martaba qurish imkoniga ega emaslar.

Mulklar ijtimoiy ierarxik odamlar guruhlari bor, qaerda qattiq "filtrlar" jiddiy ijtimoiy harakat cheklash va "liftlar" harakatini pasaytirishi.

Qatlamlari ijtimoiy ierarxik odamlar guruhlari bor, qaerda bir martaba qilish istaganlar uchun asosiy "filtri" moliyaviy resurslar mavjudligi hisoblanadi.

**Quldarlik**-har qanday inson huquqlaridan mahrum qilishning o'ta darajada tengsizlik bilan birga ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy shaklidir. Qadim zamonlarda paydo bo'lgan va XX asrning oxirigacha ba'zi mamlakatlarda mavjud bo'lgan, bir qator mamlakatlarda hali ham mavjud.

#### **Professional tabaqalanishi:**

**Kasbiy tabaqalanish**-jamiyatning rollar, bilim, ko'nikma, ta'lif va shu kabilarning muvaffaqiyatiga asoslangan qatlamlarga bo'linishidir.

#### **Ikki shaklda paydo bo'ladi:**

- Asosiy kasbiy guruhlar ierarxiyasi (interprofessional tabaqalanish);
- Har bir professional guruh ichidagi tabaqalanish (intraprofessional tabaqalanish).
- Interprofessional tabaqalanishi

- Interprofessional tabaqalanish ko'rsatkichlari:
- guruhning yashashi va faoliyat ko'rsatishi uchun kasbning ahamiyati, kasbning ijtimoiy maqomi;
- kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli bajarish uchun zarur bo'lgan aql darajasi.

Avvalo, kasb-hunar guruhlarining o'zini tashkil etish va nazorat qilish bilan bog'liq kasblar ijtimoiy ahamiyatga ega deb e'tirof etiladi. Masalan, askarning tartibsiz xatti-harakati yoki kompaniya xodimining nohaqligi boshqalarga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi, lekin ular mansub bo'lgan guruhnинг umumiy salbiy holati butun armiya yoki firmaga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Funktsiyani tashkil etish va nazorat qilish muvaffaqiyatli bajarilishi uchun jismoniy ishdan ko'ra yuqori darajadagi aql talab etiladi. Bunday ish yaxshiroq to'lanadi. Har qanday jamiyatda faoliyatni va intellektual faoliyatni tashkil etish va nazorat qilish ko'proq professional hisoblanadi. Bu guruhlar interprofessional tabaqalanishda yuqori pog'onaga ega.

Biroq istisnolar bor:

Keyingi, lekin yuqori professional qatlami quyi darajadagi pastki professional qatlami yuqori darajasini yuqori qobiliyati. Misol uchun, quruvchilar rahbari bir usta bo'ladi, va foremen muhandislar eng past darajada bilan kesishadi mumkin.

Qatlamlarning mavjud nisbatining keskin buzilishi. Bu g'alayon davrlari, agar qatlam yo'qolmasa axir, avvalgi nisbat tezda tiklanadi.

### **Inter-professional tabaqalanishi**

Har bir professional qatlam vakillari uch guruhga bo'linadi, o'z navbatida har bir guruh ko'plab kichik guruhlarga bo'linadi:

- tadbirkorlar yoki egalari. O'z "biznes" larini va xodimlarini tashkil etish va nazorat qilishdan iborat bo'lgan faoliyatlarida iqtisodiy jihatdan mustaqil;
- oliv toifali xodimlar: direktorlar, menejerlar, bosh muhandislar, korporasiyalar direktorlar Kengashi a'zolari va shu kabi. ular biznesning "egalari" emas, egasi ularning ustidadir, lekin ular o'z

ishlarini sotadilar va buning uchun pul to'laydilar. Bu toifadagi mutaxassislar "biznes yuritish"ni tashkil etishda muhim rol o'ynaydi. Ularning professional vazifasi jismoniy emas, balki intellektual ish;

- yollanma ishchi. Ular, yuqori martabali xodimlar kabi, o'z mehnatini sotish, lekin arzon. Asosan qo'l ishchilari bo'lib, ular mehnat xaridoridagi faoliyatiga bog'liqdir.

- Intraprofessional qatlamlar turli nomlarga ega bo'lishi mumkin, ammo ular barcha jamiyatlarda mavjud.

Ijtimoiy (tabaqalanish) strukturasi deganda jamiyatning turli tabaqalarini tabaqalashtirish va ierarxik tashkil etish, shuningdek, institutlar majmui va ular o'rtasidagi munosabatlar tushuniladi, "tabaqalanish" atamasi lotincha stratum — qatlamlar, qatlam so'zidan kelib chiqadi. Tabaqalar-jamiyatning ijtimoiy tuzilishidagi mavqeい bilan farq qiluvchi kishilarning katta guruhlari.

Barcha olimlar jamiyatning tabaqaviy tuzilishining asosini odamlarning tabiiy va ijtimoiy tengsizligi tashkil etadi, degan fikrda. Biroq, ularning fikrlari bu tengsizlikning mezoni nima ekanligi bilan farq qiladi. Jamiyatdagi tabaqalanish jarayonini o'rganar ekan, Karl Marks bu mezonne insonning mulkka egalik qilishi va uning daromad darajasi deb atagan. M. Veber ularga sub'ektning ijtimoiy nufuzini va siyosiy partiyalarga, hokimiyatga mansubligini qo'shdi. Pitirim Sorokin tabaqalanishning sababini jamiyatda huquq va imtiyozlar, mas'uliyat va burchlarning notekis taqsimlanishi deb hisoblagan. Shuningdek, u ijtimoiy makonning boshqa ko'plab farqlanish mezonlariga ega ekanligini ta'kidladi: fuqarolik, bosqinchilik, millat, diniy mansublik va boshqalar tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Nihoyat, strukturaviy funksionalizm nazariyasi tarafдорлари mezon sifatida jamiyatdagi muayyan ijtimoiy qatlamlarni bajaradigan ijtimoiy funksiyalarga tayanishni taklif etdilar.

Sotsiologiyada ijtimoiy tabaqalanishning to'rtta asosiy turi-quldorlik, kastalar, mulklar va sinflar mavjud. Birinchi uchtasi yopiq jamiyatni tavsiiflaydi va oxirgi turi ochiq.

Ijtimoiy tabaqalanishning birinchi tizimi qadimda vujudga kelgan va hali ham ayrim qoloq hududlarda davom etayotgan qullikdir. Qullikning ikki shakli mavjud: patriarchal, unda qul oilaning yosh a'zosining barcha huquqlariga ega va klassik, unda qul hech qanday huquqlarga ega emas va egasining mulki hisoblanadi (gapiruvchi vosita). Quldarlik bevosita zo'ravonlikka asoslangan bo'lib, quldarlik davridagi ijtimoiy guruhlar fuqarolik huquqlariga ega yoki ega emasligi bilan ajralib turardi.

Ijtimoiy tabaqalanishning ikkinchi tizimi kasta tizimi deb tan olinishi kerak. Kasta-a'zoligi insonga faqat tug'ilish yo'li bilan o'tiladigan ijtimoiy guruh (tabaqa). Insonning hayot davomida bir qastdan boshqasiga o'tishi mumkin emas-buning uchun u yana tug'ilishi kerak. Hindiston kasta jamiyatining klassik namunasidir. Hindistonda afsonaga ko'ra, Xudo Brahmaning turli qismlaridan tushgan to'rtta asosiy kastalar mavjud:

- **a) Brahmans-ruhoniylar;**
- **b) jangchilar Kshatriya ;**
- **C) savdogarlar vaishya ;**
- **D) shudras — fermerlar, hunarmandlar, ishchilar.**

Maxsus pozitsiyani hech qanday kastaga tegishli bo'lмаган va past lavozimni egallagan daxlsizlar egallaydi.

Tabaqalanishning keyingi shakli mulklardan tashkil topgan. Sinf-qonun yoki odat bo'yicha qabul qilinadigan huquq va burchlarga ega bo'lgan kishilar guruhi. Jamiyatda odatda imtiyozli va kam ta'minlangan sinflar mavjud. Masalan, G'arbiy Evropada birinchi guruhga zodagonlar va ruhoniylar (Fransiyada ular birinchi mulk va ikkinchi mulk deb atalgan) ikkinchi — hunarmandlar, savdogarlar va dehqonlar kirgan. 1917 oldin Rossiyada imtiyozli (zodagonlar, ruhoniylar) va unprivileged (dehqon) tashqari, yarim imtiyozli sinflar ham bor edi (masalan, kazaklar).

Nihoyat, yana bir tabaqalanish tizimi sinf tizimidir. Ilmiy adabiyotlarda sinflar eng to'liq ta'rifi V. I. Lenin tomonidan berilgan: "sinflar ijtimoiy ishlab chiqarish tarixan belgilangan tizimida o'z o'mniga

farq odamlar katta guruhlar, ularning nisbatan (eng qismi uchun belgilangan va qonunlarda rasmiylashtirilgan) ishlab chiqarish vositalari uchun, mehnat ijtimoiy tashkil o'z roli, va binobarin olish usullari va ular ijtimoiy boylik ulushi hajmi."Sinf yondashuv ko'pincha tabaqalashtirish yondashuv bilan qarama-qarshi bo'ladi, aslida sinf bo'linish ijtimoiy tabaqalanishi faqat maxsus hodisa bo'lsa-da.,

Jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik eng avvalo tabaqalanish – ijtimoiy guruhlarning ierarxik jihatdan tartiblangan pog'onada taqsimlanishi (har qanday atributning o'sish yoki kamayish tartibida) tushuniladi.

"Ijtimoiy tabaqalanish" atamasi ilmiy foydalanishga sobiq vatandoshimiz, so'ngra bu tushunchani geologiyadan qarz olgan mashhur amerikalik sosiolog P. Sorokin tomonidan kiritilgan. Stratifikasiya, albatta, ijtimoiy qatlamlarni buyurtma qilishni ta'kidlaydi va rus kontseptual analogiga ega-ayrim mezon bo'yicha tabaqalanish (boylik, kuch, obro ' va boshqalar.).

Ijtimoiy tengsizlik nazariyalari ikki asosiy yo'nalishga bo'linadi: funksionalistik va konfliktologik (marksistik).

Funksionalizm, E. Durkheim an'anasida, mehnat taqsimotidan ijtimoiy tengsizlikni keltirib chiqaradi: mexanik (tabiiy, jins va yosh) va organik (ta'lim va kasbiy ixtisoslashuvdan kelib chiqadigan).

Tabaqalanish mehnat taqsimotining mahsuli sifatida ko'rilar ekan, funksiyachilar ijtimoiy tengsizlik, avvalo, jamiyat uchun bajariladigan funksiyalarning ahamiyati va nufuzi bilan belgilanadi, deb hisoblaydilar.

